



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR
QO'MITASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TRANSPORT VAZIRLIGI



TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
Tashkent state
transport university

“O'ZBEKISTONNING RIVOJLANISH TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI”



MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY KONFERENSIYASI

TOSHKENT - 2024

“O‘zbekiston rivojlanish taraqqiyotida xotin-qizlarning o‘rni” birinchi respublika ilmiy konferensiyasi tashkiliy qo‘mitasi:

Shaumarov Said Sanatovich –Toshkent davlat transport universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor;

Merganov Avaz Mirsultanovich– Toshkent davlat transport universiteti, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i (rais o‘rinbosari);

Abdullayeva Ruxsora Sobirovna– Toshkent davlat transport universiteti, Ilmiy nashrlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i.

Konferensiya tahrir kengashi a‘zolari:

Pulatova Nargiza Aminovna – shoira Zulfiyaxonim avlodi;

Ulmasova Lobarxon Odilovna - ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'linmasi bosh mutaxassisi;

Yunusova Nilufar Baxtiyorovna - Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish,ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish va gender tenglikni ta'minlash bo'limining yetakchi mutaxassisi;

Turdibekov Kamol Xamitovich – Toshkent davlat transport universiteti "Elektr ta'minoti" kafedrasi dotsenti;

Ganixanova shoyista Sharafutdinovna – O'zbekiston davlat konservatoriyasi San'atshunoslik fanlari doktori, professor;

Reymnazarova Gulsara Djamalovna - Toshkent Davlat stomatologiya instituti fiziologiya va patologiya kafedrasi, t.f.n.dosent kafedra mudiri;

Raxmonova Shaxnoz Kaxxorovna - Toshkent Davlat stomatologiya instituti fiziologiya va patologiya kafedrasi assistenti;

Mamadramova Dilorom Zaynabiddinovna - Toshkent davlat transport universiteti ITI va IPKTB xodimi;

Ruzimatova Gulbaxor Adiljanovna - Toshkent davlat transport universiteti Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i

Tolipov Miraziz - Toshkent davlat transport universiteti, Ilmiy nashrlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i;

Umarova Ruzigul Sheraliyevna - Toshkent davlat transport universiteti ijtimoiy fanlar kafedrasi F.f.n.,dosent;

Abdukarimova Gulchexra Baratovna - ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA SHART-SHAROITLAR HAQIDA

Ikramova Feruza Xayrullayevna, Jarilqapova Nargiza Madiyar qizi

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqola xotin-qizlarning O‘zbekiston taraqqiyotidagi o‘rniga bag‘ishlangan bo‘lib, uning mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga qo‘shgan hissasining muhim jihatlarini yoritadi. Unda xotin-qizlarning bilim olishi, ularning iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy sohalaridagi faol ishtiroki o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston ayollari, ayollarning o‘rni, ijtimoiy taraqqiyot, ta’lim, iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, gender tengligi, ayollar huquqlari, ijtimoiy hayot.

O‘zbekiston taraqqiyotida ayollarning o‘rni muhim va serqirra mavzu bo‘lib, mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotining turli jabhalarini qamrab oladi. Tarixan madaniy an‘analar, oilaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, yosh avlodni voyaga yetkazishda ayollarning o‘rni katta. So‘nggi o‘n yilliklarda ularning mamlakat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi iqtisodiyot, siyosat, ta’lim va jamiyat hayoti kabi sohalarida yanada yaqqol ko‘zga tashlandi.

Xotin-qizlarning O‘zbekiston jamiyatidagi o‘rni tarixiy va zamonaviy davrda katta ahamiyatga ega bo‘lib, hayotning turli sohalarini qamrab oladi:

1. Oila va ta’lim: An‘anaga ko‘ra, ayollar oilada asosiy rol o‘ynagan va o‘ynashda davom etmoqda. Ular oilaviy qadriyatlar va urf-odatlar posbonlari, yangi avlod tarbiyachilaridir.

2. Ta’lim va fan: Bugungi kunda xotin-qizlar o‘quv jarayonida talaba va o‘qituvchi sifatida faol ishtirok etmoqda. Ularning ko‘pchiligi turli tadqiqot yo‘nalishlarida yetakchi o‘rinlarni egallab, ilm-fanda muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

3. Iqtisodiyot: Xotin-qizlar biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etib, mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo‘shmoqda. Ularning o‘rni, ayniqsa, kichik va o‘rta biznesda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlat tomonidan ayollar uchun dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi

4. Siyosat va davlat boshqaruvi: O‘zbekiston siyosiy tizimida ham ayollar muhim o‘rinlarni egallaydi. Ularning islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirishdagi ishtiroki gender tengligini ta’minlash, jamiyat turmush sharoitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

5. Madaniyat va san‘at: Mamlakat madaniy merosini asrab-avaylash va rivojlantirishda ayollar yetakchi rol o‘ynaydi. Ular san‘at, musiqa, adabiyot asarlari yaratishda ishtirok etib, O‘zbekistonni xalqaro maydonda faol namoyon etmoqda.

Rivojlangan huquqiy davlat va demokratik jamiyat talablaridan biri – erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlanishidir. Binobarin, gender tenglik, ya’ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ushbu omil eng yuqori darajadagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy taraqqiyotning ham negizidir. Mutaxassislarning fikricha, faqat erkaklardan iborat jamoaga nisbatan 50/50 foiz erkak va ayollardan iborat mehnat jamoalari, ayniqsa agar ular aqliy mehnat bilan band bo‘lsa, o‘z ish faoliyatida bir necha barobar yuqori natija ko‘rsatar ekan. Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari

kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingani ayni muddao bo‘ldi. Qaror ijrosi doirasida, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan bugungi kunda magistraturada o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt to‘lovlarini qoplab berish tartibi belgilandi. Magistraturada to‘lov-shartnoma asosida o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt summasini Davlat budjetidan qoplab berish tartibi tasdiqlandi.

Ushbu yaratilgan shart sharoitlardan foydalangan holda shu yili o‘zim ham magistratura talabasi bo‘lishga muyassar bo‘ldim. Bu albatta yurtimizda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, yaratilayotgan qulayliklar orqasida va albatta bulardan foydalangan holda o‘qib, izlanib kelajakda tanlagan sohamning yetuk mutaxasisi bo‘lib yetilishga harakat qilaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. BMT Ayollar. Gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish: Global hisobot. - Nyu-York: BMT, 2020.
2. Alimova, D.A. O‘zbekiston iqtisodiyotida ayollar: an‘anadan innovatsiyaga. — Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti, 2020 yil.
3. Kendjaboeva, L.M. O‘zbekiston siyosati va jamiyat hayotida ayollarning o‘rni: hozirgi bosqich. — Toshkent: “Ma‘rifat” nashriyoti, 2022 y.
4. 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qarori.
5. 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” PQ-5020-sonli qarorlari
6. [ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal](https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=5&article=022)
Year : 2022, Volume : 12, Issue : 5 First page : (129) Last page : (133) Online ISSN: 2249-7137. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00365.2
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=5&article=022>
7. www.gender.stat.uz

DAVLAT BOSHQARUVIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

**Ikramova Feruza Xayrullayevna, Maxmudova Dilfuza Abdulazizovna, Atamuratova
Xolida Rustamovna**

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Mamlakatimizda davlat boshqaruvida xotin qizlarning rolini oshirish, ularning ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada kuchaytirish, salomatligini mustahkamlash, qizlarning ta’lim-tarbiya olishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, iqtidorli va bilimli qizlarni tarbiyalash hamda ularning ilmiy salohiyatini yuksaltirish bugungi kunning muhim masalalaridan bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada mamlakatimizda davlat boshqaruvida xotin qizlarning mamlakatimizda davlat boshqaruvida xotin-qizlarning o‘rnini mustahkamlash masalalari tahlil qilingan bo‘lib, fikr va mulohazalar ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruvi, xotin-qizlarning huquqi, taraqqiyot jarayoni, huquqiy erkinlik, barkamol avlod, ijtimoiy-iqtisodiy sohada ayolning o‘rni, onalikni muhofaza qilish.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar davrida xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta’minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning to‘laqonli ishtirokini ta’minlash, ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Hozirgi kunda Parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, 32 foizni tashkil etdi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 27 foizga, tadbirkorlik sohasida 25 foizga, siyosiy partiyalarda 44 foizga, oliy ta’limda 46 foizga yetdi. Bugungi kunda xotin-qizlarga e’tibor davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi [1]. Saylov huquqlarini amalga oshirish yo‘nalishida saylovning barcha bosqichlarida xotin-qizlar va erkaklarning teng asosda ishtirok etishini kuzatuvchi 11 ta indikator ishlab chiqildi. 2024 yil 27 oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan parlament va mahalliy Kengash deputatlari saylovining eng asosiy ishtirokchilari bo‘lgan siyosiy partiyalar mazkur siyosiy tadbirdagi muhim hujjat — o‘z saylovoldi dasturlarini e’lon qildilar [1].

Qayd etish lozimki, saylov qonunchiligiga ko‘ra, ayollarning soni siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar umumiy sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan gender tenglik siyosati, xotin-qizlarning davlat va jamiyat hayotidagi o‘rnini yuksaltirish borasidagi islohotlarga mos va hamohang bo‘lgan jihatdir.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan nomzodlarning 43 foizi ayollardan iborat. O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan ko‘rsatilgan jami 175 nafar nomzodlarning 76 nafari yoki 43,4 foizi ayollardir. O‘zbekiston Ekologik partiyasining V Forumida tasdiqlangan deputatlikka nomzodlarning 44,6 foizi ayollardan iborat. Xalq demokratik partiyasidan esa 47,4 foiz ayol nomzodlar ilgari surildi.

“Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzodlarning 45 foizi ayollardan iboratdir. Yangi chaqiriqda parlamentimizda xotin-qizlar soni qanday bo‘lishi bu yilgi saylov natijalariga bog‘liq[5].

Faol va tashabbuskor ayollarning parlamentga kelishi xotin-qizlar huquq va mafaatlari himoya qilishga qaratilgan sa’y-harakatlarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Qonunchiligimizda belgilangan ayol nomzodlar bo‘yicha 40 foizlik talabga barcha siyosiy partiyalar tomonidan to‘la amal qilingan [3].

Mamlakatimizda xotin-qizlarga berilayotgan imkoniyatlar, davlat xizmati sohasida «Davlat boshqaruvida xotin-qizlar faolligini oshirish dasturi» tasdiqlanib, turli sohalarda boshqaruvchilik salohiyatiga ega 25055 nafar xotin-qizning kadrlar zaxirasi shakllantirilgan. Ta’lim, ilm-fan sohasida mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega bo‘lgan xotin-qizlarni davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish tartibi tasdiqlandi [4]. Unga ko‘ra, xotin-qizlar.uz elektron platformasi orqali tavsiyanoma olish uchun murojaat qilgan 29 531 nafar xotin-qizdan 28 664 nafariga tavsiyanoma berilgan. STARTAPlar bo‘yicha xotin-qizlarning umumiy qiymati 20,11 mlrd so‘mlik 25 ta STARTAP loyihalari moliyalashtirilgan. «Olima ayollar» grantlari bo‘yicha 2022 yilda 784 nafar olima ayol tomonidan ilmiy loyihalar bajarilgan, shundan 196 ta loyiha moliyalashtirishga tavsiya etilgan bo‘lib, buning uchun 281,6 mlrd so‘m mablag‘ ajratilgan.

Mamlakatimizda davlat boshqaruvida ayol-qizlarning rolini oshirish, ularning jamiyat taraqqiyotida ishtirokini ta’minlash, ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratishda yuqorida keltirgan fikr va mulohazalarimiz asosida quyidagi takliflarnimni bildirishim mumkin. Ayollar davlat boshqaruvida ishlashlari uchun dastlab, barcha to‘siqlarni olib tashlash va imkoniyatlar yaratish zarur. Shuningdek, ayollarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan choralarni yana bir-bor ko‘rib chiqish, ayollar sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etishi mumkin bo‘lgan soha va kasblarda ishlashini yana bir bor ko‘rib chiqish, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan xotin-qizlarni bepul o‘qitishni yo‘lga qo‘yish kerak[6].

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Jumladan, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1400 ga yaqin xotin-qiz rahbarlik lavozimlarida mehnat qilmoqda. Ulardan 17 nafari senator, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, 1075 nafari esa xalq deputatlari mahalliy kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda. Davlatimizda ayol-qizlarimizga bu kabi keng imkoniyatlar yaratilishi jamiyat taraqqiyotining yanada rivojlanishi va davlat boshqaruvida xotin-qizlarning faolligini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5325-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 01.05.2023 yil.
3. M. Nazarova O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat tamoyillari. Scientific progress.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin- qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-son Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 02.07.2024 yildagi 1344-sonli qarori.
6. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year : 2022, Volume : 12, Issue : 5 First page : (129) Last page : (133) Online ISSN: 2249-7137. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00365.2 <https://www.indianjournals.com>
7. www.gender.stat.uz
8. LexUZ internet sayti.

INDONEZIYADA LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYAVIY INSTRUMENTLARINING O‘RNI

Sevara Ismatova Abdushukur qizi

“International School of Finance Technology and Science” Instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Indoneziyada moliya tizimida kuzatiladigan loyihalarda islom moliyaviy instrumentlaridan foydalanish imkoniyatlari hamda ularning ta’siri yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: Indoneziya, moliyaviy instrumentlar, moliya bozori, moliyalashtirish, infratuzilma loyihalari, energetika loyihalari, ta’lim loyihalari, kredit, transport loyihalari, sukuk emessiyasi, takoful.

РОЛЬ ИСЛАМСКИХ ФИНАНСОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ПРОЕКТНОМ ФИНАНСИРОВАНИИ В ИНДОНЕЗИИ

Севара Исмадова

“International School of Finance Technology and Science” институт

Аннотация: В данной статье освещаются возможности использования исламских финансовых инструментов и их влияние на проекты, наблюдаемые в финансовой системе Индонезии.

Ключевые слова: Индонезия, финансовые инструменты, финансовый рынок, финансирование, инфраструктурные проекты, энергетические проекты, образовательные проекты, кредит, транспортные проекты, выпуск сукук, такофул.

THE ROLE OF ISLAMIC FINANCIAL INSTRUMENTS IN PROJECT FINANCING IN INDONESIA

Sevara Ismatova

“International School of Finance Technology and Science” Institut

Abstract: This article highlights the possibilities of using Islamic financial instruments and their effects in the projects observed in the financial system in Indonesia.

Key words: Indonesia, financial instruments, financial market, financing, infrastructure projects, energy projects, education projects, credit, transport projects, sukuk issuance, takoful.

So‘nggi yillarda islom moliyasi va bankiga, xususan, Indoneziyada qiziqish ortib bormoqda. Indoneziyada loyihalarni moliyalashtirishda islomiy moliyaviy vositalardan foydalanish moliyaviy inklyuzivlik va iqtisodiy rivojlanishga ko‘maklashuvchi jismoniy shaxslar va korxonalarning kengroq doirasini qamrab olishga imkon beradi.


Loyihani moliyalashtirish infratuzilma, ijtimoiy va iqtisodiy tashabbuslar uchun zarur

resurslarni ta’minlab, Indoneziya rivojlanishida asosiy rol o‘ynaydi. Bu maqsadda islom moliyaviy instrumentlardan foydalanish ayniqsa foydali bo‘lishi mumkin, chunki ular mintaqada investitsiya va loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

Janubi-Sharqiy Osiyoda islomiy moliyaviy instrumentlar yordamida moliyalashtirilgan muvaffaqiyatli loyihalarga misol sifatida infratuzilma loyihalari mavjud va unga ko‘ra Indoneziya islomiy moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda 2021-yildan boshlab yo‘llar, aeroportlar va portlar qurish bo‘yicha loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirdi. Masalan, Tanjung Priok porti loyihasi islom obligatsiyalari (Sukuk) hisobidan moliyalashtirildi.

Indoneziyada islom moliyaviy instrumentlar orqali loyihani moliyalashtirishning haqiqiy misollaridan biri Jakartadagi Soekarno-Xatta xalqaro aeroporti qurilishini moliyalashtirishdir. Ushbu loyiha obligatsiyaga o‘xshash islom moliyaviy instrumenti bo‘lgan sukuk orqali moliyalashtirildi, bu esa investorlarga islom moliyasi tamoyillari tamoyillariga rioya qilgan holda aeroport qurilishida ishtirok etish imkonini berdi. Infratuzilmani rivojlantirish uchun sukukdan foydalanish ijtimoiy manfaatli yirik loyihalarni qo‘llab-quvvatlashda islom moliyaviy instrumentning noyob qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

Asosiy bozorlarning tiklanishi va sukuk emissasining hajmi (2014-2022)



3-rasm. Asosiy bozorlarning tiklanishi va sukuk emissasining hajmi (2014-2022)


Indoneziyada islom moliyaviy instrumentlardan foydalangan holda loyihalarni moliyalashtirish tahlili shuni ko‘ratmoqdaki, Indoneziyada turli loyihalarni, jumladan, aeroportlar qurish, infratuzilma loyihalari, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, turizm sohasiga sarmoya kiritish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash kabi loyihalarni moliyalashtirishda islom moliyaviy instrumentlardan sezilarli darajada foydalanilmoqda. Bu iqtisodiyotning turli tarmoqlarini qo‘llab-quvvatlashda islomiy moliyaviy vositalarning keng qo‘llanilishini ko‘rsatadi.

1-jadval

Indoneziyada islom moliyaviy vositalardan foydalanish tahlili (Malayziya bilan taqqoslaganda)

№	Loyihalar	Indoneziya	Malayziya
1	Aeroport qurilishi	Muhim investitsiya	Foydalanish cheklangan
2	Infratuzilma obyektlari	Faol foydalanish	Turli sohalarga investitsiya kiritish
3	Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish	Moliyalashtirish bilan yaqin aloqa	Ushbu sanoatda cheklangan foydalanish
4	Turizm sektori	Muhim investitsiya	Rivojlanish uchun investitsiya
5	Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish	Qo‘llab-quvvatlash	Janubi-Sharqiy Osiyoda sektorni qo‘llab-quvvatlash

Indoneziyaning jami islomiy moliyaviy aktivlari 2020-yilda 138,18 milliard AQSh dollari tashkil etdi. Yana bir instrument murobaha savdo turi bo‘lib, sotuvchi xaridorning talabiga ko‘ra tovarlarni sotib oladi va ularni kichikroq marjada qayta sotadi. Ushbu instrument savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun ishlatiladi. Indoneziyada murobaha ham keng qo‘llaniladigan islom moliyaviy instrument hisoblanadi. Bu biznesga xaridordan buyurtma berish uchun tovarlarni sotib olish va keyin ularni tovar narxini va kelishilgan foydani o‘z ichiga olgan narxda qayta sotish imkonini beradi. Savdoning ushbu shakli qo‘shma sarmoya hisoblanadi va islom moliyaviy mablag‘larni foizlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri berishdan qochadi.




5-rasm. Indoneziya islom moliyaviy aktivlarining o‘sishi (trillion rupiya) (2022)

Indoneziya ham islom moliyaviy tamoyillariga mos keladigan islom moliyaviy instrumentlardan keng foydalanadi.

Bu instrumentlardan biri – mudorabadir. Bu investitsiya shakli bo‘lib, unda bir tomon (investor) moliyalashtirishni ta‘minlaydi va boshqa tomon (tadbirkor) biznesni boshqaradi. Foyda tomonlar o‘rtasida oldindan kelishilgan shartlarga ko‘ra taqsimlanadi. Indoneziyada mudoraba turli iqtisodiy sektorlarda qo‘llaniladigan umumiy islom moliyaviy instrumenti sifatida tanilgan.

Indoneziyada mudoraba eng ko‘p qo‘llaniladigan islom moliyaviy instrumentlardan biri bo‘lib, Indoneziya Banki ma‘lumotlariga ko‘ra, Mudoraba o‘tgan yili mamlakatdagi barcha islomiy moliyalashtirishning 15 foizni tashkil qilgan. Bu uning Indoneziyadagi islom moliya sektoriga qo‘shgan katta hissasini aks ettiradi.

Navbatdagi misolda qishloq xo‘jaligi sohasida Mudorabadan foydalanish keltirilgan, bu yerda investorlar dehqonchilik tashabbuslari uchun kapital beradi va fermerlar operatsiyalarni boshqaradi. Keyin olingan foyda kelishilgan shartlar asosida investorlar va fermerlar o‘rtasida taqsimlanadi. Mudorabadan Indoneziya iqtisodiyotining turli tarmoqlarida keng qo‘llanilishi uning ko‘p qirraliligi va mamlakatda islomiy moliyalashtirish va investitsiya faoliyatini osonlashtirishda muhimligini ko‘rsatadi.



6-rasm. Indoneziyada qo‘llaniladigan mashhur islom moliyaviy instrumentlardan ba‘zilari

Indoneziyada murobaha islom moliyasining asosiy vositalaridan biri bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarida qo‘llaniladi. Misol uchun, ko‘chmas mulk sohasida murobaha ko‘chmas mulk sotib olishni moliyalashtirish uchun ishlatilishi mumkin, qishloq xo‘jaligida esa qishloq xo‘jaligi texnikasini sotib olish yoki urug‘lik materiallariga sarmoya kiritish uchun ishlatilishi mumkin.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, murobaha Indoneziyadagi islom moliyaviy operatsiyalarning umumiy hajmining muhim qismini tashkil qiladi. Masalan, 2020-yilda mamlakatdagi islom moliya operatsiyalarning 40 foizdan ortig‘i murobahadan foydalangan holda amalga oshirilgan. Bu Indoneziyadagi biznes va investorlar orasida ushbu vositaning keng tarqalgani va mashhurligini ko‘rsatadi.

Indoneziyada qo‘llaniladigan islomiy moliyaviy instrumentlarning yana bir mashhur shakli ijara hisoblanadi. Bu lizingning bir turi bo‘lib, unda aktivlar ma‘lum muddatga haq evaziga ijaraga beriladi. Ijara Indoneziya iqtisodiyotining turli tarmoqlarida asbob-uskunalar va boshqa aktivlarni sotib olishni moliyalashtirish uchun keng qo‘llaniladi. Ushbu vosita islom moliyaviy tamoyillariga mos keladi va Indoneziya islom moliya bozorining muhim qismi hisoblanadi.

Indoneziya islom moliyasining dunyodagi yetakchi markazlaridan biri bo‘lib, mamlakatda islom moliyaviy instrumentlardan foydalanish sezilarli darajada o‘smoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, ijara Indoneziyadagi islom moliya bozorida ham muhim rol o‘ynaydi. Ijaradan muvaffaqiyatli foydalanishning misoli transport sektorida bo‘lib, kompaniyalar katta kapital qo‘yilmalarsiz o‘z mahsuldorligini oshirish uchun transport vositalarini ijaraga olishadi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda Indoneziyada iqtisodiyotning turli tarmoqlarida islomiy moliyalashtirishning o‘sishi kuzatilmoqda, bu esa ushbu instrumentlarga ishonch ortib borayotganidan dalolat beradi. Masalan, hisobotlar ko‘ra, qishloq xo‘jaligida Ijara qishloq xo‘jaligi texnikasini sotib olishni moliyalashtirish, infratuzilmani yaxshilash va ishlab chiqarishni ko‘paytirish uchun ishlatiladi.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Indoneziyadagi islom moliyaviy operatsiyalarning umumiy hajmida ijara instrumentining ulushi ham sezilarli darajaga yetdi. 2020-yilda islomiy moliyaviy operatsiyalarning taxminan 35 foizi Ijara yordamida amalga oshirilgan. Bu ushbu instrumentning Indoneziyadagi biznes va investorlar orasida keng tarqalgani va mashhurligini, shuningdek, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga qo‘shayotgan salmoqli hissasini ko‘rsatadi.

Indoneziya iqtisodiyotining turli tarmoqlarida islom moliyasining o‘shishida sukuk tobora muhim o‘rinni egallamoqda. Sukuk mulk ulushini yoki muayyan aktiv yoki loyihadan daromad olish huquqini ifodalovchi islom obligatsiyalari hisoblanadi. Ular uzoq muddatli moliyani jalb qilish uchun foydalaniladi va ularning mamlakat iqtisodiyotiga joriy etilishi islom moliyasini

yanada mustahkamlashi va diversifikatsiya qilishi mumkin.

Sukuk kompaniyalar va Indoneziya hukumati uchun infratuzilma, energetika, transport va boshqa muhim tarmoqlarni rivojlantirishda moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Bundan tashqari, sukuk emissiyasi xorijiy investorlarning mamlakatdagi investitsiya bazasini diversifikatsiya qilish va kengaytirish uchun samarali instrument bo‘lishi mumkin. Indoneziyada islom moliyasining doimiy rivojlanishi va mustahkamlanishi bilan sukuk iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun istiqbolli instrument hisoblanadi.

Indoneziyada sukuk bozori o‘shishda davom etmoqda, bu islom moliyaviy instrumentlarga qiziqishning ortishidan dalolat beradi. Islamic Finance News ma’lumotlariga ko‘ra, Indoneziyaning sukuk emissiyasi hajmi 2020-yilda 27,55 milliard AQSh dollarga yetgan, bu o‘tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

Indoneziyadagi muvaffaqiyatli sukuk emissiyasiga misol qilib 2021-yilda PT Sarana Multi Infrastruktur davlat kompaniyasi tomonidan 10 va 30 yillik sukuklarning umumiy qiymati 802 mln.ni keltirish mumkin. Ushbu sukuk infratuzilma sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish uchun ishlatilgan va bu ularning mamlakatdagi yirik infratuzilma loyihalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashdagi asosiy ro‘lini ta’kidlagan. Shunday qilib, Indoneziyadagi sukuk mamlakatning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shadigan iqtisodiyotning turli tarmoqlariga investitsiyalarni jalb qilishda mashhur instrument bo‘lib qolmoqda.

Ishlab chiqarish, savdo, transport va boshqalar kabi turli sohalardagi mijozlar o‘z ehtiyojlariga mos keladigan turli xil instrumentlarni tanlashlari mumkin. Masalan, ko‘chmas mulk sohasida ular uzoq muddatli loyihalar uchun investitsiyalarni jalb qilish uchun sukukdan foydalanishni afzal ko‘rishlari mumkin, qishloq xo‘jaligi yoki kichik biznesda esa mudoraba ko‘proq mos instrument bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun islomiy moliyaviy vositalarni tanlashda mijozlarning o‘ziga xos ehtiyojlari va maqsadlariga e’tibor qaratish, ularning islom moliyaviy tamoyillariga muvofiqligi hamda muayyan biznes yoki loyiha ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Global Islamic Finance Report 2023.
2. R. Adewiyah and A. Bawono. “The Effect of Islamic Capital Market Instruments on Indonesia’s Economic Growth is Moderated by The Money Supply” Islamiconomic/Islamiconomic : Jurnal Islamic Economics. Jun.2023 y, 413 p.

O‘ZBEKISTONNING RIVOJLANISH TARAQQIYOTIDAGI XOTIN-QIZLARING O‘RNI

Rafiyeva Ruxshona To‘lqinovna

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada ayollarning iqtisodiyot va diplomatiyadagi o‘rni tadqiq qilingan. Ayollarning diplomatiya va tinchlik muzokaralaridagi ishtiroki, xususan, iqtisodiy rivojlanishdagi hissasi tahlil qilingan. Xotin-qizlarning iqtisodiy, diplomatik faoliyati lokal va global miqyosda o‘rganilgan. Ayollarning iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan islohotlar mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: barqaror rivojlanish, tinchlikni mustahkamlash, biznes aloqa, kooperatsiya, global korporatsiyalar.

Mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarimizga tayanib, milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari dadil qadam qo‘yib bormoqdamiz. Mamlakatimizning siyosiy hayotida, davlat va jamiyat boshqaruvida, iqtisodiyotimizning barcha tarmoqlarida, madaniyat, ilm-u fan, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, sport kabi ijtimoiy sohalarida ayollarimizning o‘rni va roli ortib borayotganligi e’tiborlidir.

Ma’lumki, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo tarixining turli davrlarida ayollar davlat boshqaruvi, diplomatiya va iqtisodiyotning turli sohalarida faol ishtirok etishgan. Ularning davlatlararo munosabatlar va iqtisodiy jarayonlarda tutgan o‘rni katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shgan. Bundan ko‘rinadiki, ayollar nafaqat hozir, balki o‘tmishdan ham diplomatik va iqtisodiy sohalarida faol bo‘lishgan.

Iqtisodiy va diplomatik aloqalarni o‘rnatishda xotin-qizlarning o‘rni yildan yilga oshib bormoqda, chunki ular global miqyosda barqaror rivojlanish va tinchlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydilar. Quyida ularning bir qancha muhim jihatlari keltirib o‘tilgan:

- Xotin-qizlar tinchlik muzokaralarida o‘ta muhim rol o‘ynashadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar ishtirok etgan muzokaralar barqarorroq va uzoq muddatli kelishuvlarga olib keladi. Ular muzokaralarning ijtimoiy va insoniy jihatlarini yaxshiroq tushunadilar va ko‘pincha adolat va inkluzivlikka e’tibor qaratadilar.

- Ayollar iqtisodiyotda faol ishtirok etishlari bilan davlatning iqtisodiy kuchayishi ham tezlashadi. Ayniqsa, tadbirkorlik, innovatsiya va mehnat bozoridagi teng huquqli ishtirok orqali ayollar iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishadi. Shuningdek, xalqaro biznes aloqalarini o‘rnatishda va kooperatsiyalarni mustahkamlashda ayollarning rahbarlik qilishi muhim bo‘lib, ularning turli tomonlarga moslashuvchanligi va aloqa ko‘nikmalari yuqori baholanadi.

- Xotin-qizlar diplomatik sohada ishlashi davlatlarning xalqaro maydonda ko‘proq jinsiy tenglikka e’tibor qaratishini namoyish etadi.

- Xalqaro miqyosda ayollar yetakchi sifatida insonparvarlik loyihalarini amalga oshirish va tinchlikparvar tashabbuslar ko‘rsatishda ilg‘or o‘rin tutadilar.

Shu jihatlardan kelib chiqqan holda ayollar rivojlanayotgan bozorlarda startap va kichik bizneslarni tashkil qilishda faol, global korporatsiyalar rahbariyatida yuqori lavozimlarni egallashmoqda, xalqaro va siyosatda muhim muzokaralar va kelishuvlarni amalga oshirishda ishtirok etishmoqda, insonparvarlik missiyalarida yetakchilik qilishmoqda hamda multilateral muzokaralarda muvozanatli yondashuvni ta’minlashmoqda.

Statistik ma’lumotlar iqtisodiy va diplomatik aloqalarni mustahkamlashda xotin-qizlarning roli global va milliy miqyosda o‘z o‘rnini borayotganini ko‘rsatmoqda. Masalan, 2024-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, diplomat sifatida faoliyat yuritayotgan ayollar soni butun dunyoda 20,54% ni tashkil etadi. Ba’zi davlatlarda ayollar yetakchi lavozimlarda, jumladan, elchilik, konsullik va boshqa diplomatik vazifalarni bajarishda faol qatnashmoqda. O‘zbekistonda ayollarning diplomatik xizmatlarda ishtiroki ham ortmoqda. Hozirgi kunda O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalari va konsulliklarida xizmat qilayotgan ayollar soni oshib bormoqda.

So‘nggi yillarga kelib, ayollarning globallashgan iqtisodiy faoliyatda, ayniqsa, eksport va xalqaro biznesda ishtiroki o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Masalan, ayollar boshqarayotgan kichik va o‘rta korxonalar xalqaro savdoda o‘z o‘rnini mustahkamlab bormoqda. 2023-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra O‘zbekistonda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxona va mikrofirmalar soni 39,1 mingtani tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarning jamiyatlarda va turli sohalarida, jumladan, diplomatik va iqtisodiy aloqalardagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha prezidentimizning bir qator farmonlari va qarorlari qabul qilingan. Ushbu hujjatlar gender tenglikni ta’minlash, ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Prezidentimizning 2021-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 2022-yil 8-martdagi xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha qilgan chiqishi bunga yaqqol misoldir. “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ham xotin-qizlarning davlat boshqaruvi va iqtisodiy sohalaridagi faoliyatini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Unda diplomatik va iqtisodiy aloqalarda xotin-qizlar ishtirokini oshirish uchun turli dasturlar va xalqaro loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda mashhur diplomat va iqtisodchi ayollar orasida Saida Mirziyoyeva, Ra’no Jo‘rayeva, Zamira Ahmedova kabi shaxslar e’tiborga molikdir. Saida Mirziyoyeva so‘nggi yillarda mamlakatning xalqaro aloqalari, media va madaniy sohalarida faoliyat olib bormoqda. Ra’no Jo‘rayeva O‘zbekistonning iqtisodiy va moliyaviy sohalarida muhim o‘rin tutadi. U transport va aviatsiya sanoatida yuqori lavozimlarda ishlagan. Xususan, u “O‘zavtoyo‘l” hamda “O‘zbekiston havo yo‘llari”da rahbarlik qilgan. Zamira Ahmedova esa O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiyot sohasidagi taniqli iqtisodchilaridan biridir. U ko‘plab tadqiqotlar va iqtisodiy siyosatga oid loyihalarda qatnashgan, davlat iqtisodiy siyosatini shakllantirishga hissa qo‘shgan.

Xulosa: Xotin-qizlarning iqtisodiy va diplomatik aloqalarni o‘rnatishda tutgan o‘rni tobora oshib bormoqda. Ular tadbirkorlik, savdo, diplomatiya va xalqaro tashkilotlar orqali davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim rol o‘ynashmoqda. Ayollarning bu sohalarida ko‘proq ishtirok etishi kelajakda yanada adolatli, barqaror va hamkorlikka asoslangan global tizimni yaratishga yordam beradi.

Sun’iy intellektidan foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 8-martdagi xotin-qizlar huquqlarini kengaytirish bo‘yicha chiqishidagi nutqidan ;
2. “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” ;
3. <https://uz.kursiv.media/uz/2023-09-18/tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxona-va-mikrofirmalar-soni-qancha/amp/> ;
4. https://uza.uz/oz/posts/ayollarni-tadbirkorlikka-jalb-etish-yolida_637757 ;
5. <https://zamon.uz/detail/ozbekistonda-faoliyat-olib-borayotgan-diplomat-ayollar-ozbekiston>.

O‘ZBEKISTONNING RIVOJLANISH TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI

Salimjonova Sevinch Ravil qizi

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning rivojlanish tarixidan hozirga qadar xotin-qizlarning ishtirokini ta’minlash darajasi yaxshilanganligini, mamlakatimizdagi har bir soha jahon miqyosida yuksalishida ayollarimizning mardonavor mehnati va haq-huquqlarini anglagan holda o‘z hissalarini qo‘shayotganliklarini yaqqol ko‘rish mumkin.

Kalit so‘zlar: O‘zbekistonning rivoji, xotin-qizlar, xalqaro munosabatlar, inson huquqlari, ijtimoiy va siyosiy jabhalar, gender tenglik.

"Ayol — ona, millat tarbiyachisi". Bunday ta’rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, xotin-qizlar masalasi jamiyat taraqqiyotida juda katta o‘rin egallaydi. Bizga tarixdan ma’lumki, To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiy, Zulfiya kabi ayollar bir qancha buyuk izlanishlar olib borib, ilm-fan va adabiyot, ma’naviyat va ma’rifatni yuksaltirish borasida salmoqli ishlar amalga oshirishgan. Shunday siymolar davomchilari ekanligimizning o‘ziyoq bugungi kun xotin-qizlarga g‘urur va sharaf tuyg‘ularini his qilishga sabab bo‘la oladi. Bundan tashqari faqat erkaklar emas balki ayollarning mardligi, jasorati vatanni boshqarishda ilk marotaba o‘z hissalarini qo‘shib hozirga qadar ularning davomchilari soni ortib bormoqda. Misol uchun 2024-yil Fransiyaning Parij shahrida bo‘lib o‘tgan Yozgi olimpiada o‘yinlarida Dyuzdo sport turning 52 kg vazn toifasida oltin medalni qo‘lga kiritgan Diyora Keldiyorova Baxtiyor qizi “To‘maris” ko‘krak nishoni sohibdori O‘zbekistonning sport sohasida rivojlanayotganini butunjahonga tanitdi.

O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgach, xotin-qizlarning har sohada ijtimoiy-siyosiy faolligiga bo‘lgan e’tibor yuksaldi. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun kerakli bo‘lgan shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Umuman olganda, O‘zbekistonda xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va mavqeyini mustahkamlash borasida davlat ahamiyatiga molik salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Zero, jamiyat rivojini xotin-qizlarsiz, ularning ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu bois ayollarning oilada ham, davlat va jamoat ishlarida ham emin-erkin faoliyat yuritishlari, ularning huquq va manfaatlarini ro‘yobga chiqarish yo‘lida mamlakatimiz miqyosida qator chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda. O‘nlab opa-singillarimiz “O‘zbekiston Qahramoni”, “O‘zbekiston fan arbobi”, “O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi”, “O‘zbekiston xalq shoiri”, “O‘zbekiston xalq artisti” singari davlatimizning yuksak faxriy unvonlari, orden va medallariga sazovor bo‘lgan. Ularning orasida 500 nafardan ziyod fan doktorlari va akademiklar, minglab fan nomzodlari o‘z bilimi, iste’dodi bilan Vatanimiz ravnaqi yo‘lida astoydil xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik, tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishi, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni ta’sis etildi.

Darhaqiqat, yurtimiz tarixida birinchi marta saylovlarda milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunali ko‘rsatkichga ko‘tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Gap shundaki, Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan 150 nafar deputatning 48 nafari yoki 32 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Senatda bu ko‘rsatkich qariyb 25 foizga yetdi.

Mahalliy Kengashlar deputatlarining 31 foizi ham jonkuyar, faol ayollardir. Ana shunday natijalar tufayli O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, milliy parlamentimiz ayol deputatlar va senatorlar soni bo‘yicha dunyodagi 190 ta milliy parlament o‘rtasida 37-pog‘onaga ko‘tarildi. Shuningdek, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi – 27 foizga, siyosiy partiyalarda – 44 foizga, oliy ta‘lim tizimida – 40 foizga, tadbirkorlik sohasida esa 35 foizga yetdi. Bu o‘zgarishlarning barchasi so‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish borasidagi tizimli ishlarning rivoj topishidadir. Aniq bir sohadagi ishlar, xususan:

- ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to‘g‘risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo‘llash amaliyotida ayollar huquqlari to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash uchun mas‘ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy normalar asosida o‘qitish kabi muhim yo‘nalishlarda olib borilmoqda.

Uchinchi Renessans poydevori davrida milliy qonunchiligimiz va xalqaro konvensiyalar orqali bu yo‘nalishda zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish yuzasidan amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar natijasida yigirmadan ortiq normativ-huquqiy hujjat imzolandi. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlar, Prezidentimizning xotin-qizlar huquqlarini va gender tenglikni ta‘minlash, ayollarni zo‘ravonlik va zulmdan himoya qilish, ularning tadbirkorlik maqomini kuchaytirish to‘g‘risidagi farmon va qarorlari shular jumlasidandir. Gender tenglik haqida so‘z borganda, ushbu tushuncha faqat ayollar manfaatlarini ifodalash bilangina cheklanmasligiga e‘tibor qaratish lozim. Aksincha, gender tenglik tamoyili har ikki jins vakillarining o‘z orzu va maqsadlari sari dadil harakati, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini nazarda tutadi. Rivojlangan huquqiy davlat va demokratik jamiyat talablaridan biri – erkak va ayol huquqlari tengligining ta‘minlanishidir. Binobarin, gender tenglik, ya‘ni erkaklar va xotin-qizlar tengligi insonning asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi.

Davlatning rivojlanishida xotin-qizlarning ishtiroki natijasida yosh avlodning bilim, sport, jurnalistika va boshqa turdagi sohalarni mukammal darajada o‘zida aks etishi, o‘rganishi va o‘z hissasini qo‘shishi orqali xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa O‘zbekistonimizning butunjahon rivojlangan davlatlar qatorida turishi uchun ildam qadamlardir. Misol tariqasida shuni aytish joizki, 2024-yil 15-22 iyul kunlari nemis tili bo‘yicha Butunjahon olimpiada Gettingen shahrida o‘tkazilib, unda birinchi o‘rinni qo‘lga kiritgan o‘zbekistonlik Rayyona Ibrohimova tariximizda birinchi marotaba 62ta raqib davlatlardan birinchilikni egalladi, bu esa bizning vatanimizni rivojlantirishda balki butunjahonda O‘zbekiston davlati ham har taraflama rivojlanayotgan davlatlar sirasi qatoridan joy olganligi bejiz emas.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bir ona 2ta, 4ta balki 8-10 nafar farzandning tarbiyasi bilan shug‘illangan va uning hayotida balki jamiyatda o‘z nomi yoki foydasi tegishi uchun chaqaloqligidan to jamiyatga kerakli inson bo‘lguniga qadar farzandi bilan astoidil harakat qilgan, rivojlantirgan ona nima uchun jamiyatimizning rivojlanishi uchun o‘z hissasini qo‘sholmas ekan!? Xotin-qizlarning oilada ham jamiyatda ham o‘rni beqiyosdir. Shu sababli bosh prezidentimiz davlat boshqaruvida, jamiyat ishlarida ayollarning ham ishtirokini ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratib bermoqdalar. Xalqimizga taniqli xotin-qizlar ushbu imkoniyatlardan foydalangan holda hayotda, jamiyatda o‘z o‘rnini egallamoqda. Barcha xotin-qizlarimizni hayotda faol bo‘lishga, bilim olishga, o‘z ustilarida ishlashga, Maryam kabi hech nimadan qo‘rqmay, aniq

maqsad sari harakat qilishlari kerak. Chunki bugun O‘zbekistonda ilm-ma’rifatga intilish xavf emas, balki ehtiyojdir va ana shunday Maryam, To‘maris, Nodirabegim, Bibixonim, Zulfiyalar O‘zbekistonimizga juda kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.SH.M.Mirziyoev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy ma’lumotlar. 2022yil 2 mart. Elektron resurs
- 2.<https://islomkarimov.uz/en/news/ayolni-uluglamoq-vatanni-hayotni-uluglamoqdeganidir-islom-karimov> 07.03.2019
3. <https://adliya.uz/ru/posts/davlat-boshqaruvida-xotin-qizlarning-ulushi-qancha>
4. Xalq so‘zi online [xs.uz/uz/post/xotin-qizlar jamiyat taraqqiyotida](https://xs.uz/uz/post/xotin-qizlar-jamiat-taraqqiyotida)
5. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi rasmiy veb-sayti pravacheloveka.uz/uz
6. “Oila , xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnalining 2023-yil 3-soni

НАЗИРА АХМЕДОВА -СОЛОВЕЙ УЗБЕКСКОГО ОПЕРНОГО ИСКУССТВА

Шойиста Ганиханова

Государственная консерватория Узбекистана (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация. Среди первых исполнительниц женских партий в оперном искусстве Узбекистана была Назира Ахмедова Народная артистка Узбекистана. Она воплощала такие образы как: Лейли (опера Р. Глиэра и Т. Садыкова «Лейли и Меджнун»), Мохим (музыкальная драма «Фархад и Ширин» по драме С. Абдуллы, музыка Т. Джалилова), Асаль (опера Т. Садыкова «Гульсара») и др. Навык владения европейской манерой пения пригодился певице в работе над образами Микаэлы (опера Дж. Бизе «Кармен»), блистать в «Евгении Онегине» и «Пиковой даме» П.И. Чайковского, «Риголетто» Дж. Верди и других произведениях европейской классики. Талант Назире Ахмедовой и сегодня приковывает к себе взгляды молодого поколения, побуждая к совершенствованию собственного мастерства.

Ключевые слова: Назира Ахмедова, опера, вокальное мастерство, ария.

NAZIRA AKHMEDOVA - THE NIGHTINGALE OF UZBEK OPERA

Shoyista Ganikhanov

State Conservatory of Uzbekistan (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation. Among the first female performers in the opera art of Uzbekistan was Nazira Akhmedova, People's Artist of Uzbekistan. She embodied such images as: Leyli (opera by R. Glier and T. Sadykov "Leyli and Majnun"), Mohim (musical drama "Farhad and Shirin" based on the drama by S. Abdullah, music by T. Jalilov), Asal (opera by T. Sadykov "Gulsara"), etc. The skill of mastering the European style of singing was useful to the singer in her work on the images of Michaela (opera by J. Bizet "Carmen"), to shine in "Eugene Onegin" and "The Queen of Spades" by P.I. Tchaikovsky, "Rigoletto" by J. Verdi and other works of European classics. The talent of Nazira Akhmedova still attracts the views of the younger generation, encouraging them to improve their own skills.

Keywords: Nazira Akhmedova, opera, vocal skills, aria.

На протяжении тысячелетий узбекский народ по крупицам складывал, формировал свое собственную музыкальную культуру. Музыкальный театр, в свою очередь, является ярким образцом слияния в одно целое драматического таланта актера, его вокального мастерства, танцевальной пластики, выраженное в витиеватых, цветистых оборотах восточной поэзии.

Среди первых исполнительниц женских партий в оперном искусстве Узбекистана была Назира Ахмедова. Само ее имя, уже наполненное музыкой, звучит тепло и проникновенно, как и голос великой певицы – соловья узбекской оперной школы. Таким его запомнили ее современники, таким мы слышим его на пленках, сохранившихся в фондах радиокомитета, телевидения и личных архивах .

Назира Ахмедова дочь ферганской долины, землячка многих деятелей искусства и культуры Узбекистана родилась в Анджане в 1913 году. Любовь к музыкальному искусству

она впитала с молоком матери, которая была искусной исполнительницей народных песен, виртуозно играла на дутаре. С 20х годов XIX столетия Назира начинает посещать занятия в школе-интернате в Ташкенте, куда перебирается после смерти отца. Активная участница всех мероприятий школы и концертов художественной самодеятельности Назира начинает понимать, что художественное творчество ее призвание. В 1928 году, в числе первых представителей талантливой узбекской молодежи Н. Ахмедова поступает в Московскую театральную-художественную школу.

Учеба в Москве была сопряжена с рядом трудностей, но знакомство с другой культурой обогатило и расширило кругозор юной певицы. А самое главное, Назира постигла азы европейской вокальной школы. Ее редкий по диапазону голос стал насыщенней, приобрел глубину [1].

Творческий путь Назире Ахмедовой это неустанный труд, работа над собой. Вернувшись на Родину, Назира Ахмедова поступает на службу в Ташкентский молодежный театр, а вскоре переходит в Республиканский академический театр драмы, параллельно молодая певица записывается на радио, выступает на эстраде. Будучи уже известной и снискавшая любовь народа, профессиональное уважение со стороны коллег она продолжает работать над совершенствованием голосового аппарата, что в 1933 году приводит Н.Ахмедову в оперную студию при ташкентском театре «Колизей».

1935 год стал значительным для Назире, ее приглашают солисткой в Республиканский государственный музыкальный театр, где ею были созданы яркие, незабываемые образы. Ее красивое, теплого тембра лирико-колоратурное сопрано, выигрышные внешние данные, грациозные, пластичные движения, незаурядный актерский талант – были своего рода средствами художественной выразительности, которыми пользовалась артистка. Одной из первых ролей, в которой она запомнилась современникам, был образ Таны из музыкальной драмы «Ер Таргын». Красавица калмычка, женственная и обаятельная пленила не только сердце батыра Таргына, но и зрителей. Надо сказать, что напарницей Н.Ахмедовой и соперницей по сюжету была не менее знаменитая и талантливая узбекская певица Халима Насырова. Их дуэт, где коварная дочь хана Акжунус (Х.Насырова) издевается над страдающей пленницей Таной (Н. Ахмедова), всякий раз глубоко волновал зрительный зал и стал часто исполняемым номером в концертных программах.

В 1938 году оперный спектакль «Ер Таргын» был показан в Ленинграде. Культурная столица России с воодушевлением встретила, высоко оценила и была восхищена самобытным искусством узбеков. В рецензии ленинградской прессы были названы четыре фамилии актеров, чьи вокальные и драматические данные поразили искушенную публику. Это были - Халима Насырова, Назира Ахмедова, Мухитдин Кари Якубов и Карим Закиров.

Рождение и формирование узбекской оперы связано со спектаклем по мотивам А. Навои «Лейли и Меджнун». Опера Р. Глиэра и Т. Садыкова имела четыре редакции и от раза к разу произведение приобретало драматургическую стройность. Назира Ахмедова воплотила образ Лейли в четвертой редакции в 1954 году. Ее героиня была трактована актрисой по-иному, чем у предшественниц. Знание культуры и обычаев родного края, менталитет узбекской женщины, ее ум и умение терпеливо выносить удары судьбы помогли создать правдивый и цельный образ Лейли. Именно такой видел, на наш взгляд, Лейли Алишер Навои.

Лейли-Ахмедова нежна, женственна, лирична. Но вместе с тем в ней чувствуется внутренний стержень, непримиримое отрицание устоев феодального быта. Героиня поэмы

Навои в своём письме к Кайсу говорит о двойном гнете узбекской женщины. Одну цепь можно разорвать, но как справиться с другой? Эта мысль поэта и стала ключом к истолкованию образа Лейли. Ахмедова сумела раскрыть внутренний мир Лейли, ее стремление к свободе.

В музыкальной драме «Фархад и Ширин» по драме С. Абдуллы, музыка Т. Джалилова Назира Ахмедова предстает в роли коварной красавицы Мохим. Используя колоритную манеру хорезмийского пения [2, с.249], актриса выстроила образ кокетливой и капризной принцессы.

В «Гульсаре» Т. Садыкова Н.Ахмедова создает противоположный по характеру образ. Партия Асаль словно специально написана для Назире Ахмедовой она наполнена жизнелюбием и задором, обогащена руладами, подражающими соловьиному пению. По отзывам прессы, актриса прекрасно справлялась с необычной для узбекской оперы манерой пения, «владея современной школой вокала, достигнув чистоты звука и безупречности интонации»[2, с. 306]

Это самое владение «современной школой пения» помогли Назире Ахмедовой перевоплощаться в кроткую испанскую девушку Микаэлу (опера Дж. Бизе «Кармен»), блистать в «Евгении Онегине» и «Пиковой даме» П.И. Чайковского, «Риголетто» Дж. Верди и других произведениях европейской классики.

За вклад, внесенный Назирой Ахмедовой в развитие культуры, ей было присвоено почетное звание Народный артист Узбекистана. Талант этой выдающейся личности приковывает к себе взгляды молодого поколения, побуждая к совершенствованию собственного мастерства. В связи с чем в 2002, 2005 и 2007 годах Министерством по делам культуры и спорта РУз, Союзом композиторов Узбекистана, Международным благотворительным фондом Талибжана Садыкова и Государственной консерватории Узбекистана проводились Республиканские конкурсы вокалистов имени Назире Ахмедовой.

В этом году деятели культуры и искусства Узбекистана вспоминают чистый, открытый взгляд, улыбку красивой женщины, голос теплого тембра, принадлежавшей Назире Ахмедовой, в связи с ее 100 летним юбилеем. Личность Назире Ахмедовой это не просто страничка в истории культуры Узбекистана, это - наше национальное достояние.

Список использованной литературы:

1. Ашрафи М. «Ер Таргын», Првда Востока, 10 апреля 1938 года.
2. Корсакова А. Узбекский оперный театр. Очерк истории. Ташкент 1961 с. 249.
3. Комарницкая О.В. Русская опера второй половины XX - начала XXI веков. Проблемы жанра, драматургии, композиции. – М.: ПКЦ «Альтекс», 2011. – 306 с.
4. Насырова Ю. Эволюция принципов претворения фольклора в узбекской опере. Ташкент: «San’at», 2017. – 148 с.

MAMLAKATIMIZDA GENDER TENGLIGIGA YO‘L.

Xidoyatullayeva Gulsora Zoirovna

O‘zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san’ati instituti

Annotatsiya. Maqola jamiyatdagi gender tengsizlik, uni bartaraf etishda xalqaro mezonlar borasida tahlil hamda mamlakatimizda gender tengligi uchun qonuniy islohotlar to‘g‘risida boradi.

Аннотация. В статье речь идет о гендерном неравенстве в обществе, анализе международных критериев его устранения, а также правовых реформах по обеспечению гендерного равенства в нашей стране.

Abstract. The article deals with gender inequality in society, analysis of international criteria for its elimination, as well as legal reforms to ensure gender equality in our country.

Kalit so‘zlar. Gender tengsizlik, qonun, qaror, boshqaruv, xotin-qizlar, gender tenglik, ta’lim.

Ключевые слова. Гендерное неравенство, закон, постановление, управление, женщины, гендерное равенство, образование.

Key words. Gender inequality, law, regulation, management, women, gender equality, education.

“Ayol kim? Biroz jumboqli savol. Ayolning o‘zi ham tushunmas sirli olami, nozik qalbi bizni hayratda qoldiradi. Ayol bir zumda quyoshdek chaqnasa, birpasda anglab bo‘lmaydigan tushkunlik qurshovida qoladi. Biz siz ham bilgan, kuzatgan hayotiy voqealar asosida ayolning mardligi-yu, matonati ba’zan esa erkaklarni-da qoyil qoldiradigan shijoati haqida bilamiz”[4]. Bu xilqat jamiyatning qaysi bo‘g‘inida bo‘lmasin, xar bir ish, mehnat yoki vazifasini ijodkorlik va umum ijtimoiylik omillarni inobatga olgan holda amalga oshiradi.

Jamiyatda “gender tengligi” tushunchasi bor bo‘lib, oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o‘rtasidagi huquq tenglikka erishishni nazarda tutadi. Rivojlangan davlatlarda bu iborani ko‘p qo‘llanilishiga sabab ham bor. Negaki, jamiyatda ayollar doimiy ravishda erkaklar bilan solishtirib kelingan. Gender tengsizligini bartaraf etish huquqiy islohotlar, ijtimoiy tadbirlar va ta’lim tashabbuslarini birlashtirgan ko‘p qirrali yondashuvni talab qilib, asosiy strategiyalarga quyidagilar kiradi:

- a) Hayotning barcha sohalarida gender tengligini ta’minlovchi qonun hujjatlarini qabul qilish va amalga oshirish;
- b) Xotin-qizlar uchun ta’limga sarmoya kiritish, ayniqsa STEAM sohalarida;
- c) Ayollarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishga ko‘maklashish.
- d) Ayollarning siyosiy faolligini va yetakchiligini rag‘batlantirish
- e) Ommaviy axborot vositalari va ta’lim muassasalari orqali ijobiy gender rollarini targ‘ib qilish.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan 50 dan ortiq qonunlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 58-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta’minlaydi” deb alohida ta’kidlangan[2].

Mamlakatimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi roli muhim va ularning maqomi hamda huquqlari kun sayin izchil ravishda yaxshilanib bormoqda. Hozirgi kunda ayollar ta’lim, sog‘liqni

saqlash, biznes va siyosat kabi turli sohalarda faoldirlar. So‘nggi yillarda Hukumatimiz xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, jumladan, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari va davlat organlarida ularning vakilligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar tashkil etib kelinmoqda.

O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-sentyabrdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ularning muammolarini hal etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 557-sonli qarori qabul qilindi[3]. Bunda 2024-yil oktyabr oyidan boshlab “Xotin-qizlar.uz” platformasi doirasida Xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va tizimli hal etish moduli ishga tushirilib, muammolarni o‘rganish moduli orqali aniqlangan muammolar tegishliligi bo‘yicha “mahalla – tuman – viloyat – respublika” darajasida hal etiladi. Yana shuni eslatib o‘tish joizki, Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Muammolarimizning yechimi, savollarimizning javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshiklarni ochadigan kalit ham – faqat va faqat ta’lim va tarbiyadir. Ayniqsa, xotin-qizlarning bilim olishlari, kasb egallashlariga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Men hurmatli ota-onalarga qarata aytmoqchiman: qizlaringizni o‘qiting, orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarishlarida ularga ko‘makchi bo‘ling! Ulug‘larimiz aytganlaridek, o‘g‘il bolani o‘qitsak, bir kishi savodli bo‘ladi. Qiz bolani o‘qitsak, butun oila, butun jamiyat bilimli bo‘ladi!” [1] degan fikrlarni ta’kidlab o‘tdilar. Darhaqiqat, Respublikamizda buning uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Bizning institutimiz tashkil etilganiga ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, jamoamizda jami 88 nafar xotin-qizlar o‘z mehnat faoliyatini olib boradi, shulardan 31 nafari professor-o‘qituvchilar, ulardan 10 nafar xotin-qizlarimiz mas’uliyatli yuqori lavozimlarda, 4 nafari falsafa doktori (PhD), 5 nafari dotsent va 3 nafari professor ilmiy daraja va unvonlarga ega ayollardir. Umumiy talabalar kontingenti 511 nafarni, ulardan qizlar 195 nafarni tashkil etadi. Magistrlar 29 nafar, ulardan 20 nafari ayol-qizlar, bu esa umumiy hisobda 70% xotin-qizlar tashkil etadi degani. Bu ko‘rsatkich 15-avgust 2022- yildagi 447-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat oliy ta’lim muassasalari magistratura bosqichida ta’lim olayotgan xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt mablag‘larini to‘lab berish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” qaror natijasi deb bilaman. Jamiyatimizda boshqa jabhalarda xam bunday tendensiyalar kuzatilayotgani quvonarli.

Xalqaro tashkilotlarning gender tengligi uchun tavsiya etilgan mezonlari mamlakatimiz siyosatida qonun va qarorlar bilan belgilangan. Bu o‘z navbatida yaqin kelajakdagi boshqaruv institutlarda xotin-qizlarning soni ortishiga olib keladi. Shu o‘rinda Buyuk Britaniya siyosatdoni, birinchi ayol bosh vaziri bo‘lgan Margaret Tetcherning iqtibosi o‘rinli deb bildim — “Uy-ro‘zg‘orni boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni tushunadigan har qanday ayol, mamlakatni boshqarishda yuzaga keladigan muammolarni tushunishi mumkin”[5].

Foydalanilgan resurslar:

1. president.uz/uz/lists/view/7519
2. <https://lex.uz/docs/6445145>
3. <https://lex.uz/ru/pdfs/7098016>
4. [Muslima.uz](https://muslima.uz)
5. https://www.bbc.com/russian/uk/2013/04/130408_thatcher_quotes

ЎЗБЕКИСТОНДА АЁЛЛАР МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИНИНГ АЙРИМ ХУСУСИЯТЛАРИ

Дусбекова Хуршида Пардаевна

Тошкент давлат Шарқшунослик университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон хотин-қизлари ташқи мигрантлари сифатида тавсифланади. Аёлларнинг меҳнат миграциясида тутган ўрни, унинг айрим жиҳатлари, шаклланиш йўналишлари ва бугунги ҳолати таҳлил этилди. Шунингдек, аёллар миграциясининг салбий-ижобий жиҳатлари, мамлакат иқтисодига таъсири, уларни келгусида оиласида қолдириш масалалари кўриб чиқилди.

Калит сўзлар: миграция, мигрант, муҳожир, меҳнат бозори, миллий-этник, сервис, демография, квота, доллар.

НЕКОТОРЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЖЕНСКОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Дусбекова Хуршида Пардаевна

Ташкентский государственный университет востоковедения (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: В данной статье женщины Узбекистана описываются как иностранные мигранты. Проанализирована роль женщин в трудовой миграции, некоторые ее аспекты, направления формирования и современная ситуация. Также были рассмотрены отрицательные и положительные стороны женской миграции, влияние на экономику страны, вопросы оставления их в семье в будущем.

Ключевые слова: миграция, мигрант, иммигрант, рынок труда, национально-этнический, услуга, демография, квота, доллар.

SOME CHARACTERISTICS OF FEMALE LABOR MIGRATION IN UZBEKISTAN

Dusbekova Xurshida Pardaevna

Tashkent State University of Oriental Studies (Tashkent, Uzbekistan)

Annotation: This article describes women in Uzbekistan as foreign migrants. The role of women in labor migration, some of its aspects, directions of formation and the current situation are analyzed. The negative and positive aspects of female migration, the impact on the country's economy, and issues of leaving them in the family in the future were also considered.

Key words: migration, migrant, immigrant, labor market, national-ethnic, service, demography, quota, dollar.

Глобаллашув юкори чўққига кўтарилган бугунги даврда жаҳон меҳнат бозори орқали деярли барча мамлакатларга меҳнат мигрантлари кириб борди ва бу жараён мазкур давлатлар тараққиётига салбий-ижобий таъсир кўрсатмоқда.

Сир эмаски, мамлакатимиз аҳолисининг ишсиз қатлами ҳам имкон қадар чет давлатлардан иш топишга ҳаракат қилади. Бу ўз-ўзидан ташқи меҳнат миграциясидан Ўзбекистон фуқаролари ҳам, хусусан ўзбек хотин-қизлари ҳам ҳоли эмаслигини кўрсатади.

БМТнинг статистик маълумотларига кўра 2020 йилда дунёдаги халқаро мигрантлар сони, яъни ўз мамлакатидан ташқарида яшовчи одамлар 281 миллионга этди. Мигрант аёллар халқаро мигрантларнинг 48 фоизини ташкил қилади.

Бошқача айтганда, агар бу рақамларни Ўзбекистон кесимида таҳлил қилсак 38 млн.га тенг мамлакат аҳолисининг меҳнатга лаёқатли бўлган 5,8-6,0 млн.аҳолиси (30%дан ортиғи) сурункали меҳнат миграциясида бўлиши жуда ачинарли ҳол. Хусусан, 2021 йилда 1,7 млн, 2022 йилда 2 млн 346 минг нафар мигрант фуқароларимиз хорижда ишлаган. Улар таркибининг Россияда катта қисми эркаклар бўлса, Туркия ёки Исроил каби мамлакатларга кетувчи мигрантларимизнинг аксари аёллардир.

Шунингдек, хотин-қизларимиз орасида асосан Россия, Қозоғистон, Туркия, Араб мамлакатлари ва АҚШга иш излаб кетувчилар кўплиги билан характерланади. Хусусан, АҚШ Давлат Департаменти маълумотларига қараганда, ҳар йили 6-7 минг ўзбеклар 1990-2016 йиллар давомида иммиграцион виза (грееен сард) эгаси бўлишга эришганлар. Мигрантларнинг 35-40 фоизи аёллар бўлиши инобатга олсак, ўзбекистонлик хотин-қизлар орасидан ҳам океан ортига ишлаш учун кетганлар талайгина. 2019 йилги лотерея натижалари бўйича эса мавжуд 50 мингта картадан 1743 таси ўзбекистонликларга теккан (2150 дан ортиқ киши ўйнаган). 2023 – йил (Грин кард) дастури орқали визаларни тақдим этиш бўйича дунёда 7-ўринни Ўзбекистон эгаллади. Бу мавсумда лотереянинг 5,5 мингдан зиёдроғи ўзбекистонликларга чиққан, берилган визалар сони эса 3100 дан кўпроқни ташкил этган.

Бу узоқ ғарб давлати билан боғлиқ расий миграцион рақамларимиз бўлса, АҚШга айланма йўллар билан кетганлар ва айна пайтда хорижда яшаб туриб ушбу мамлакатга иш ўзгартириб юрувчи ҳамюртларимиз ҳам талайгина.

Фуқароларнинг давлатларо меҳнат ёки адамик (таълим) миграцияси табиий ҳол ва бу ҳолат эркаклар ва аёллар учун бирдек қамровга эга бўлиши мумкин.

Сўнгги йилларда ўзбекистонлик хотин-қизлар ҳам ташқи меҳнат миграциясида салмоқли кўрсаткичларни эгалламоқда. Биргина 2023-йил январ-декабр ойларида Ўзбекистон Республикасидан хорижий мамлакатларга узоқ муддатга яшаш ва ишлаш учун кўчиб кетганлар сони 17 336 кишини ташкил этиб, шундан эркаклар сони 8 270 кишини, (47,7%) аёллар сони эса 9066 кишини (52,3%) ташкил этди.

Биргина Исроилнинг Ўзбекистондаги элчихонаси маълумотларига кўра, айна пайтда бу давлатда ишлаш ҳуқуқига эга бўлган 10 мингга яқин ватандошимиз бўлиб, уларнинг қарийб 85 фоизини аёллар ташкил этишининг ўзи юқори маош тўланадиган мамлакатларда ишлаш учун кетувчи аёллар салмоқли рақамларни ташкил этишининг исботидир.

Бугунги кунда Ўзбекистон аҳолиси ҳар йили 900-950 минг кишига ўсиб бораётган бўлса, меҳнатга лаёқатли аҳоли сони демак, 460-500 мингга ўсиб келмоқда.

Лекин бизнинг иқтисодийтимиз аҳолининг, меҳнат ресурсларининг шундай суръатларда ўсишини кўтара оладими, – деган мантикий савол туғилади. Ва аниқки, оиланинг фаровон яшашини таъминлаш учун ҳар бир оиладан камида икки киши даромад топиши шарт. Шу боис хотин-қизларнинг бандлиги ҳам муҳим масала бўлиб қолаверади.

Мамлакат меҳнат бозорининг имкониятидан келиб чиқиб Ўзбекистонда меҳнатга лаёқатли умумий аҳоли сонидан фақат тахминан 60 фоизи мамлакатда доимий яшайди ва иш билан таъминланган. Қолган қисми меҳнат муҳожир сифатида хориждан иш топиши зарур.

Шунингдек, эркак ишчилар қатори бизда аёл ишчилар сони ҳам кун сайин ортиб бормоқда. (Ажримлар натижасида хотин-қизлар оиласининг ёлғиз боқувчисига айланиши ҳам бир сабаб). Ҳатто олий маълумот олаётган хотин-қизлар ҳам юқори маош учун ўз малакасини хорижий меҳнат бозорига сафарбар этипти.

Хўш аёлларнинг меҳнат муҳожирлиги сифатида четда фаолият олиб бориши, бошқача қилиб айтганда, меҳнат ресурслари экспорти Ўзбекистон учун қандай характерланади?

Аввало:

- Иқтисодиёт учун ташқи валюта ва инвестициялар манбаи;
- Оилаларга мўмай даромад;
- Меҳнатга лаёқатли, лекин махсус билимлари ва маданияти кам бўлган ёш аёллар билан боғлиқ бўлган барча иқтисодий ва ижтимоий муаммоларнинг экспорти;
- Аҳолининг энг фаол қисмининг норозилик хажмини камайтиришнинг энг осон усули;
- Мамлакатнинг ички истеъмол бозорида талаб ва таклиф мувозанатини сунъий равишда ўзгартириш, яъни талабни оширишнинг жўнгина усули (одамлар четда, лекин уларнинг даромадлари шу ерда);
- Ҳукумат учун ёлғиз аёл, бева, камбағал ва кам даромадлиқ хотин-қизлари мавжуд оилалар ташвишини ана шу оилалар вакиллари ўзларининг бўйнига илишга шароит яратади;
- Тараққий этган мамлакатлар аёлларига хос характерли аёллар шаклланади (интеллектуал ривожланиш бундан мустасно).
- Ўзбек диаспорасининг жаҳон бўйлаб ёйилиши тезлашади (аксарият турмуш қурмаган хотин-қизлар хорижда оилали бўлиши ва муқим қолиб кетиши эркакларга қараганда юқори кўрсаткичларда)...

Шунингдек, ижтимоий бадали оғирроқ характери эса:

- Ёш фарзандлар оналарсиз (ўзгалар қарамоғида) улғаядилар ва тўлиқсиз тарбия топадилар;
- Оиладаги эр-хотин бўлиб яшаш жуфтлик баланси бузилади ва натижада янги ижтимоий муаммолар пайдо бўлади (қўшхотинлик, хиёнат ва ҳ.к)
- Узоқ муддат ва сурункали мусофир юртда оғир меҳнат қилган аёлнинг саломатлигида жиддий бузилишлар юзага келади;
- Турли халқлар қадриятлари ва урфлари янгиликка ўч аёллар томонидан (оммавий маданият) мамлакатга тез ритмларда кириб келади ва халққа сингдирилади ва ҳ.к

Хотин-қизлар меҳнат миграцияси хусусиятлари ҳақида гапирганда албатта жуда кўплаб факторларни санаб ўтиш мумкин, бироқ жаҳонга очиқ мамлакатлар ўз аҳолисини хорижга чиқиш ва меҳнат қилиш қабилардан бутунлай тўсиб ҳам қўя олмайди.

Айниқса Ўзбекистон аёллари агар оиласида унинг қарамоғида фарзандлар ёки кексалар бўлса уларни ҳеч бир оғир меҳнат ёки мусофирлик ҳавотири қўрқита олмайди.

Меҳнат миграцияси доирасида аёлларнинг тақсимланиши ўзига хос хусусиятларга эга. Эркак меҳнат муҳожирларининг ёши катталари кўпроқ манфаатлироқ бўлса (характери шаклланиб бўлган, ҳаётнинг паст-баландларидан бирмунча ўтган 30-45 ёшгача бўлган эркаклар), хотин-қизлар меҳнат миграцияси асосан ёшлардан иборат бўлиши билан характерланади. Айниқса ўз мамлакатидан чиқиб кетаётган ёш аёл меҳнат муҳожирларининг кейинги тақдири борилаётган давлат билан боғлиқ кетиши эҳтимоли ҳам эркакларга нисбатан катта. Шу боис ўзбек хотин-қизлари орасида хорижда ишлаш учун кетувчилар таркиби одатда 25-40 ёшгача бўлганларни ташкил этмоқда. Албатта барча иммигрант давлатлар учун ҳам ёш хотин-қизларнинг меҳнат мигранти сифатида четдан кириб келиши, кейинчалик мамлакатнинг туб ерли аҳолиси билан турмуш қуриб, муқим қолиши ҳудуд демографиясига сезиларли натижа бериши билан ҳам манфаатлидир.

Бундан ташқари, ёш аёллар меҳнат миграцияси учун мўлжалланган мамлакатда иш берувчилар учун афзалроқдир. Мигрантни ёллашда иш берувчи уни иложи борица кўпроқ жалб қилишга ҳаракат қилади. Унинг учун ҳаракатчанлик, меҳнат қобилияти ва бошқалар (айниқса ёш болалари ва оиласи) билан боғлиқ муаммолар бўлмаслиги жуда муҳимдир.

Буни баҳсли жиҳатдан таҳлил қилсак, кекса авлод вакиллари профессионал жиҳатдан кўпроқ тажрибага эга, аммо мигрантларни иш билан таъминлаш махсус кўникмаларни талаб қилмайди, бироқ жисмоний ресурслар, масалан ишчининг ёш, соғлом ва эркин шахс бўлиши иш берувчи учун жуда муҳимдир.

Бундан ташқари, барча Осиё мамлакатларининг ахлоқ билан боғлиқ анъаналарига кўра, минтақадаги кекса одамларга нисбатан ҳурматли муносабат омили ҳам алоҳида рол ўйнайди: ота-оналари тенгги инсонларга иш буюриш ёки қаттиққўллик билан талабчанлик тақозо этилганда биров ноқулай вазиятлар юзага келиши мумкин. Шунингдек, мазкур ҳудудларда аксарият ёшларнинг иш излаб мигрант сифатида мамлакатни тарк этиши ҳам, уларнинг азалий анъаналарига мувофиқ уйдаги кексаларни - ота-оналарини мусофирлик машаққати ва оғир меҳнатга раво кўрмасликларидир.

Ўзбекистон хотин-қизлари учун ташқи меҳнат бозори сифатида қулай давлатлар дея Қозоғистон, Россия, Туркия, Дубай, Жанубий Корея, Исроил ва АҚШ юқори ўринларни эгаллайди. Албатта бу мамлакатларнинг аксарияти юқори маош нуқтаи назаридан танланса, айримлари меҳнат муҳожирларининг ўз ватанларига яқинлиги (масалан Қозоғистон) ва мамлакатда мусофирларга яратилган ҳар томонлама кафолатган меҳнат шароитлари эканлиги сир эмас.

Шу ўринда таъкидлаш муҳимки, хотин-қизлар меҳнат миграцияси нисбатан жинойтчилик хавфи паст бўлган жараён бўлиб, бунга аёлларнинг жинойтга мойиллиги пастлиги, улар кўпроқ оила ва фарзандлари хотиржамлиги учун асосий нуқтаи назарини ушбу ракурсга қаратишидадир.

Бироқ ўзга юртга кўчиб ўтган инсонда янги жамиятларга сингиш, адаптация жараёни турлича кечади. Бу ўринда албатта ўзлигини йўқотиб қўядиган, мақсади ва олдидаги вазифаларига нотўғри нуқтаи назар билан ҳаракатга киришадиган мусофир аёлларимиз ҳам йўқ эмас.

Шунинг учун аёлларнинг, аynиқса ёш оналарнинг хорижга иш излаб эмас, академик миграция мақсадида кетиши кўпроқ миллат ва мамлакат учун манфаатлидир. Давлатимиз томонидан оналар хорижга иш излаб кетишларини олдини олиш учун нималар қилинмоқда?

Бугун маҳалла институтига ёрдамга муҳтож оилаларни қўллаб-қувватлаш, аёллар меҳнат миграциясини имкон қадар камайтириш вазифалари юкланган. Аммо бу осон иш эмас, албатта. Аниқ касби йўқ, таълимни ҳам ҳаминқадар олган жамиятда эса ишсизликни бартараф этиш йўлида калаванинг учи ҳали бери топиладиганга ўхшамайди. Тўғри жаҳон ҳамжамияти эпидемиялар билан боғлиқ карантин даврини бошдан кечиргандан сўнг хорижда ишлаб юрганларнинг катта қисми ватанга қайтди. Бугунги кунда мамлакат тадбиркорлари томонидан яратилаётган янги иш ўринларига аёлларимизнинг доимий бандлиги таъминланаётгани таҳсинга сазовор. Бироқ биз ҳануз аҳолиси йилига юқори рақамларда кўпаяётган мамлакат сифатида меҳнат мигрантлари етказиб беришда ҳам олдинги поғоналарни эгаллаймиз.

Барчага маълумки, оила ўз фарзандларини қўллаб-қувватлаши, оналар уларнинг ёнида бўлиши, уларнинг тарбияси билан шуғулланиши керак. Чунки ота-онасидан узоқда улғайган болаларда руҳий муаммолар ўсиб боради. Баъзан уйга қайтган мигрантлар

оилалари билан танишиш жараёнида уларнинг бир қисми иш билан таъминлангани, бироқ кўпчилиги ишлаш учун яна юртни тарк этаётганларига гувоҳ бўламиз.

Оналар Ўзбекистон келажаги бўлган авлодни вояга етказишмоқда, ҳеч қандай эҳтиёж уларни ўз фарзандларини кексаларга ташлаб, хорижда оғир меҳнат қилишга мажбурламаслиги керак.

Фойдаланилган адабиётлар ва манбалар:

1. ООН. Глобальные вопросы повестки дня. Миграция.
<https://www.un.org/ru/global-issues/migration>
2. газета.uz/14 декабрь 2022/ <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/14/migrant/>
3. <https://www.gazeta.uz/2023> йил 10 май.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Статистика агентлигининг демографик ҳолати ҳисоботи (2024 йил 26-январ)
5. <https://nuqtainazar.uz> 2023 йил 29-апрел
6. «Трудовая миграция: зарубежный опыт и особенности законодательства Казахстана» национальный тренинг. Нур-Султан. 2020. 12-13 февраль.С.17

ЎЗБЕКИСТОННИНГ РИВОЖЛАНИШ ТАРАҚҚИЁТИДА ИҚТИСОДИЙ ВА ДИПЛОМАТИК АЛОҚАЛАР

Хикматова Дилдора Шухратовна

Тошкент Амалий Фанлар Университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация: Ушбу мақолада Ўзбекистон миқёсида ривожланиш тараққиётининг иқтисодий, дипломатик ва якин қушничилик алоқалари моҳияти, долзарб масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: иқтисодиёт, иқтисодиётни ривожлантириш, иқтисодий, дипломатик алоқалар, иқтисодиёт тармоқлари, ҳамкорлик даражаси, сиёсий йуналиш, халқаро муносабатлар, савдо айланмаси, минтакавий ва глобал ёндашув

Кириш

Сўнгги йилларда Ўзбекистон ички сиёсатида кузатилаётган кенг қамровли ислохотлар, очиқлик ва янгиланишлар, мамлакатнинг ташқи сиёсатида ҳам яққол намоён бўлмоқда.

Ўзбекистон халқаро муносабатларнинг тенг ҳуқуқли субъекти сифатида, минтақа ва глобал даражада фаол ташқи сиёсатни йулга қуйиб, хорижий ҳамкорлар билан узаро манфаатли муносабатларни ривожлантирмоқда. Бундай изчил, аниқ ва конструктив ташқи сиёсатни халқаро экспертлар ва кузатувчилар ҳам эътироф этмоқда.

Жаҳон буйлаб тарқалган короновирус инфекцияси ва глобал даражадаги инқирозли хавф-хатарлар даврида ҳам Ўзбекистон мамлакатда ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлаб, минтақа давлатлари ва жаҳон ҳамжамияти билан ҳамкорлик алоқаларини давом эттиришга алоҳида эътибор қаратди.

Маълумки, Ўзбекистон ташқи сиёсий фаолиятининг асосий вазифаларидан бири – уз ҳудуди атрофида тинчлик, барқарорлик ва хавфсизлик муҳитини шакллантириш ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, Президент Шавкат Мирзиёев қушнилариимиз – Марказий Осиё давлатлари билан дустона, якин қушничилик ва узаро манфаатли алоқаларни ривожлантириш ва мустаҳкамлашни асосий устувор ташқи сиёсий йуналиш сифатида белгилаб берди.

Хусусан, Марказий Осиё минтақасидаги мамлакатлар билан барча соҳаларда узаро дустлик, яхши қушничилик ва стратегик шериклик руҳидаги муносабатларни сифат ва мазмун жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш борасида 2023 йил давомида ташқи сиёсий ва иқтисодий фаолият бўйича давлат идоралари томонидан 46 та олий даражада ва 24 та юқори даражада ташриф ва турли тадбирлар амалга оширилди. Бу жараёнда “халқ дипломатияси” амалда жуда фаол бўлгани кузатилди. Хусусан, халқ вакиллари – олимлар ва рассомлар, маданият ва дин арбоблари, ишбилармонлар ва ёшлар, туризм ва спорт ташкилотлари, жамоат бирлашмалари ва нодавлат ташкилотлар иштирокида 150 дан ортиқ турли учрашувлар, анжуманлар, видеоконференциялар ва бошқа шу каби тадбирлар ўтказилди. Кайд этиш жоизки, сўнгги йилларда Президент Шавкат Мирзиёев ташаббусларини қушни давлатлар раҳбарлари томонидан қўллаб-қувватланиши натижасида Марказий Осиёда сиёсий мулоқот ва узаро ишонч мустаҳкамланди, давлат раҳбарларининг маслахатлашув учрашувлари йулга қуйилди.

Натижада минтақадаги икки ва ундан кўп томонлама ҳамкорлик даражаси янги босқичга кўтарилди. Хусусан, 2017-2019 йиллар давомида Марказий Осиё мамлакатлари билан савдо айланмаси йиллик ўртача 50 фоиздан кўпроққа ўсиб, 5,2 млрд.долларга етган.

2020 йил натижаларига кура эса, глобал пандемия шароитига карамай, Ўзбекистоннинг Марказий Осиё давлатлари билан савдо айланмасининг умумий ҳажми 5млрд.долларни ташкил этди.

Жумладан, Ўзбекистоннинг умумий ташки савдо айланмасида Марказий Осиё давлатларининг улуши 2019 йилдаги 12,4% дан, 2020 йилда 13,6% га ошганини куриш мумкин. Ўзбекистоннинг минтакадаги умумий ташки савдо айланмасида эса Козогистоннинг улуши 61%, Қирғизистон – 18,2%, Туркменистон – 10,6% ва Тожикистоннинг улуши – 10,2% ни ташкил этди.

Марказий Осиё мамлакатлари уртасида савдо-иқтисодий муносабатларнинг мана шундай яхшиланиши, умуман айтганда, минтаканинг инвестициявий жозибadorлигини оширишга ёрдам берди. Хусусан, 2017-2020 йиллар оралигида Ўзбекистон ва минтака мамлакатлари уртасида 300 дан ортиқ шартнома, шунингдек, қарийб 75 млрд.долларга тенг шартнома ва битимлар имзоланган.

Колаверса, жорий йил январь ойида Ўзбекистон ва Козогистон ҳукуматлари АҚШ билан ҳамкорликда минтакада иқтисодий алоқаларни кенгайтиришга хизмат қиладиган лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш учун беш йил ичида камида 1 млрд.долларга тенг маблағларини жалб этиш мақсадида “Марказий Осиё инвестициявий шериклиги” ташаббусини йўлга қўйди. “C5+1” платформаси орқали амалга оширилаётган ушбу ташаббус Марказий Осиё мамлакатлари иқтисодиётини мустаҳкамлаш ва усишини таъминлаш мақсадида савдо-сотиқни ошириш, комплекс ривожланишни рағбатлантириш ва қўп томонлама алоқаларни чуқурлаштириш учун барча мавжуд имкониятлардан фойдаланишга интилади.

Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳамда 2021 йил “Ёшларни қўллаб-қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” Давлат дастурида Марказий Осиё давлатлари билан яқин қўшничилик алоқаларини мустаҳкамлашга алоҳида аҳамият қаратилган.

Хусусан, жорий йил Давлат дастурида Марказий Осиё давлатлари билан муносабатларни изчил давом эттириш чора-тадбирлар режасида:

- Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари билан икки томонлама ва минтакавий алоқаларни сифат жиҳатидан янги босқичга олиб чиқиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини ишлаб чиқиш;
- Олий ва юқори даражада узаро ташрифларни ташкил этиш;
- “Халқ дипломатияси” механизмларидан самарали фойдаланиш;
- Яхши қўшничилик муносабатларини мустаҳкамлаш йўлидаги мавжуд тусиқларни биргаликда ҳал этиш;
- Савдо иқтисодий алоқаларни ривожлантириш ва товар айирбошлаш ҳажмининг усиши ва ҳамкорликни мустаҳкамлаш учун қўлай шароитлар яратиш;
- Минтаканинг транзит ва логистика салоҳиятидан самарали фойдаланиш ва транспорт инфратузилмаси ривожланишини таъминлаш;
- Марказий Осиё мамлакатларининг минтакалари (шу жумладан, чегара ҳудудлари) уртасидаги ҳамкорликни фаоллаштириш қўзда тутилган.

Бундан ташқари, жорий йилда Ўзбекистон Марказий Осиё давлатлари билан алоқаларни қўп томонлама ҳамкорлик механизмлари, жумладан, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ), Мустақил Давлатлар Ҳамдустлиги (МДҲ), Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ), Туркий тилли давлатлар ҳамкорлик Кенгаши (ТТДХК), Европада

Хавфсизлик ва Ҳамкорлик Ташкилоти (ЕХХТ) ва бошқа тузилмалар доирасида ҳам ривожлантиришни, бунда нафакат сиёсий-дипломатик муносабатлар, балки иқтисодий дипломатия, парламентлараро дипломатия ҳамда халқ дипломатиясини кучайтириш назарда тутилмоқда.

Хулоса

Ўзбекистон Президентининг Парламентга Мурожаатномаси ва жорий йилги Давлат дастурида кушни Марказий Осиё давлатларига алоҳида ургу берилишининг муҳимлиги шундан иборатки, мазкур йуналиш Ўзбекистон ташқи сиёсатининг бош устувор йуналиши ҳисобланади. Бу Ўзбекистон Марказий Осиёнинг барча давлатлари билан чегарадош минтақадаги ягона давлатлиги, мамлакатдаги ҳар қандай сиёсий, иқтисодий ва маданий соҳадаги ўзгаришларнинг бевосита минтақагатаъсир эътиши ҳамда Марказий Осиёнинг барқарор ривожланиши минтақанинг барча давлатлари манфаатларига хизмат қилишида намоён бўлмоқда. Ўзбекистоннинг бугунги ташқи сиёсати, хусусан, яхши қўшничилик ва прагматик минтақавий сиёсати давлатнинг халқаро нуфузини оширибгина қолмай, Марказий Осиёнинг барқарор ва улкан имкониятларга эга ҳамкорлик маконига айланишига хизмат қилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. “Замонавий дунёда Ўзбекистон ташқи сиёсатининг кун тартиби”, 27 август 2020 й., <https://uza.uz/uz/posts/zamonaviy-dunyeda-zbekiston-tash-i-siyesatining-kun-tartibi-27-08-2020>
2. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. “Ўзбекистон Республикаси ташқи сиёсати”, <https://mfa.uz/uz/pages/vneshnaya-politika>
3. Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги. “Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлигининг 2020 йилдаги фаолияти ҳақида ҳисобот”, 9 январь 2021 й., <https://mfa.uz/uz/press/news/2021/ozbekiston-respublikasi-tashqi-ishlar-vazirligining-2020-yildagi-faoliyati-haqida-hisobot---29088>
4. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. “Ўзбекистон Республикаси ташқи савдо айланмаси”, 22 январь 2021 й., https://stat.uz/images/uploads/docs/tashqi_savdo_uz_22012021.pdf
5. Кутбитдинов Ю. “Центральная Азия в приоритете внешней политики Узбекистана”, 26 январь 2021 й., <https://review.uz/post/centralnaya-aziya-v-prioritete-vneshney-politiki-uzbekistana>

MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Nasirova Shaira Narmaradovna, Xoliqov Muhriddin Mardiqulovich

Navoiy davlat pedagogika institute (Navoiy, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Maqolada mamlakat iqtisodiyotida meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishning ahamiyati to‘g‘risidagima’lumotlar yoritilgan. O‘zbekistonda meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish afzalliklari va imkoniyatlari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: mahsulot, agrar, iqtisodiyot, meva-sabzavot, modernizatsiya, xomashyo, texnologiya, xo‘jalik

Hozirgi qishloq xo‘jaligida o‘tkazilayotgan izchil iqtisodiy islohotlar aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga talabni to‘laroq qondirishi va bu sohadagi ta‘minotni tubdan yaxshilab jahon andozalariga tenglashtirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning agrar sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida fermer xo‘jaliklarining barqaror rivojlanishini ta‘minlashda raqobat muhitini shakllantirish orqali ularni raqobatbardoshligini oshirish, mahsulot yetishtirishda talab va taklif muvozanatiga erishish, ichki va tashqi bozorda samarali faoliyat yurituvchi mexanizmlarni keng ko‘lamda joriy qilinishi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida meva-sabzavotchilik tarmog‘ining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tarmoq oziq-ovqat sanoatini xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Bugungi kunda meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirishga respublikamizda davlat tamonidan alohida e‘tibor berilib, meva-sabzavotchilik tarmog‘idagi iqtisodiy munosabatlarga davlatning o‘rni sezilib turmoqda.

Meva-sabzavotlarni tashqi bozorlarga eksport qilish natijasida mamlakatimizning valyuta zaxiralari mustahkamlanmoqda. Meva-sabzavot yetishtirishda yerdan samarali foydalanishda yerning unumdorligini oshirish yo‘li bilan hosildorlikni oshirishga erishilsa, qishloq xo‘jaligi barqaror rivojlanadi, yerdan samarali foydalanish natijasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining iqtisodiy mustaqilligi oshadi, ularning faoliyatiga tashqi ta‘sir kamayadi va meva-sabzavot yalpi mahsuloti ko‘payadi.

Meva-sabzavotchilik quyi tarmog‘ining iqtisodiy samaradorligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri ekin turlari bo‘yicha hosildorlik darajasidir. Agrar tarmoqda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texniktexnologik yangilash, sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, urug‘chilik-seleksiya ishlarini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilishi va innovatsion g‘oyalarni joriy etish borasida olib borilgan tizimli chora-tadbirlar natijasi o‘laroq o‘tgan davr davomida sabzavotlar, kartoshka, poliz ekinlari hamda meva va uzumlar hosildorligida sezilarli o‘sish yuz berdi.

Meva-sabzavotchilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining yirik tarmog‘i sifatida agrosanoat majmuasining quyi tarmog‘ini aks ettiradi. Bu soha o‘z ichiga meva-sabzavot yetishtiruvchi xo‘jaliklar, ilmiy tadqiqot institutlari, ularning filiallari, urug‘chilik tajriba stansiyalari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash korxonalari va ularni sotish bilan shug‘ullanuvchi bir qator savdo va eksport kompaniyalarini o‘z ichiga qamrab oladi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog‘ida ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirish bevosita ushbu tarmoq taraqqiyotini tizimli tarzda kompleks amalga oshirish uslubiyot va usullarini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘nggi davrda meva-sabzavotchilik tarmog‘ida bozor munosabatlarini joriy etish borasida bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Xususan, so‘nggi yillar davomida meva-sabzavotchilik tarmog‘ida yuz berayotgan o‘zgarishlar asosan quyidagilardan iborat hisoblanadi:

- meva-sabzavotchilikni rivojlantirishni agrar iqtisodiyotni modernizatsiyalashning ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida tan olinishi;
- meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga ajratilayotgan yerlarning kengayib borayotganligi;
- meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda ilg‘or texnologiyalarni joriy etish ko‘lamining ortib borayotgani;
- meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash borasida yirik davlat dasturlarining amalga oshirilayotgani va hokazo.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalar orasida meva-sabzavot yetishtirish hamda ulardan qayta ishlangan mahsulotlarni ishlab chiqarish, eksport qilishda yetakchi davlat hisoblanadi. Bu esa, mazkur mintaqada raqobat afzalligini vujudga keltiradi. O‘zbekiston hududiy jihatdan yaqin mamlakatlarga mazkur turdagi mahsulotlarni eksport qilishda sarflayotgan transport xarajatlari ushbu hududlarga industrial mamlakatlarning eksportda transport xarajatlariga nisbatan past. Darhaqiqat, O‘zbekiston meva-sabzavotchilik majmuasi mahsulotlarining hududiy jihatdan yaqin mamlakatlar bozorlarida raqobatbardoshlik darajasini oshirishning ulkan imkoniyatlari mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kholikov M.M., Djuraev Kh.F., Nasirova Sh.N. The importance of improving the drying processes of fruit and vegetable pastilles. UNIVERSUM: «Технические науки» № 7 (100), М., Изд. «МЦНО», 2022, Россия, 34-38 p.
2. Kholikov M.M., Nasirova Sh.N. Improvement of drying processes for fruit and vegetable pastilles. Procedia of Theoretical and Applied Sciences, Volume 8, Jun 2023, Portugaliya, 89-90 pp.
3. Kholikov M.M., Nasirova Sh.N. Fruit drying methods and their useful features. Modern Scientific Research International Scientific Journal 2023, Volume 1 Issue 9 Impact Factor- 8.4, 157-162 pp

NUTQ O‘STIRISHDA BADIY ASARNI SAHNALASHTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Pardayeva Kamola Tolibjonovna

Tashkent Amaliy Fanlar universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Bolalar nutqini o‘stirish nazariyasi va texnologiyalar moduli shaxsda nutqiy ta’lim jarayonida maktabgacha ta’lim-pedagogikasi kasbiga doir bilim, ko‘nikma, malakalarni, ulardagi majvud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Maktabgacha ta’limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta’lim olishga tayyorlashdan iboratdir. Bolalar maktabgacha ta’limda aniq bilimlarnigina emas, fikrlash ko‘nikmasini egallashi, tengdoshlari va kattalarning nutqlarini tushunishlari, ular bilan erkin fikr almashish, hamkorlik asosida faoliyat ko‘rsatishi talab etiladi.

Kalit so‘zlar: personaj, emotsional, ijodiy o‘yinlar, sahnalashtirilgan o‘yinlar, siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar, qurish-yasash o‘yinlari

Sahnalashtirish o‘yinlari, bu bolalarning mustaqil ijodiy o‘yin turi bo‘lib, unda badiiy asar va hikoyalar bolalar tomonidan rollarga bo‘lib ijro etiladi. Bu o‘yinlar bolalarda iroda, intizom va o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, boshqalarning harakatlari bilan hisoblashish kabi ijobiy ma’naviy xislatlarni shakllantiradi. Sahnalashtirish o‘yinlarida bolalar o‘yin jarayoniga kirib boradilar, voqea va ertak ahramonlarining ichki hayotiga bevosita aloqador bo‘lgan qahramonlik, jasurlik, mehribonlik, jonbozlik, jonkuyarlik kabi ijobiy fazilatlarini o‘zlarida yaqqol namoyon qiladilar. Sahnalashtirish uchun badiiy asar, ertaklar tanlash katta yoshdagilardan bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, istaklarini hisobga olishni talab etadi.

Adabiy asarlarni tanlashda quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Mazmunining g‘oyaviy-ma’naviy barkamolligi.
2. Badiiy jihatdan mazmundorligi.
3. Asardagi qatnashchi va rollarning soni (qancha ko‘p bo‘lsa, asar shuncha ahamiyatlidir).
4. Mazmuni yaxshi bo‘lishi bilan birga, unda harakat turlarining ham ko‘p bo‘lishi.
5. Ifodali o‘qishga mos bo‘lishi.
6. Mazmuni qiziqarli, hayot bilan bog‘langan bo‘lmog‘i zarur.

Bolalar xalq ertaklarini sahnalashtirishni yaxshi ko‘radilar. Masalan, “Sholg‘om”, “Zumrad va Qimmat”, “Bo‘g‘irsoq” va boshqalar. Bolalar boshqa xalq ertaklarini ham turli usullarda (qo‘g‘irchoq, soya, soya teatri orqali) sahnalashtirishga ehtiyoj sezadilar. Badiiy asarni eslab qolishlari uchun uni qayta qo‘yib berish, sahnada ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan foydalaniladi. Sahnalashtirish o‘yinlari qiziqarli o‘tishi va uzoq vaqt davom etishi uchun kerakli jihozlar tayyorlanishi va unga to‘g‘ri rahbarlik qilinishi kerak. Kattalar o‘yin rejissyori rolini amalga oshira borib, bolalarning xatti-harakatlari, qobiliyatlari, intilishlarini hisobga olib boradilar. O‘yinda faol ishtirok etgan bolalarni alohida rag‘batlantirilib, kelgusida qaysi asarlarni sahnalashtirish kerakligini aniqlaydilar.

1. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtirishda qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlarning roli kattadir. Pedagoglardan Z.V. Lishtvan, V.G. Nechayeva o‘z tadqiqotlarida qurishyasash o‘yinlarining o‘ziga xos tomonlari va ahamiyatini yoritib berganlar. Bolalar nashriyotlari badiiy asarlarni sahnalashtirish uchun xalq ertaklariga siluetlar, teatr-kitoblar, panorama-kitoblar kabi turliko‘rinishdagi ko‘rgazmali qo‘llanmalarni chop etmoqdalar.

2. Sahnalashtirilgan o‘yinlar. Sahnalashtirilgan o‘yinlar ijodiy o‘yinlar sarasiga kiradi. Unga ijodiy o‘yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg‘unligi, bolalarning mustaqillik va o‘z-o‘zini uyushtira olish jihatlari xos.

Badiiy asarni sahnalashtirib ko‘rsatish usullari.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda oddiydan murakkabga qarab yo‘naltirib borilishi maqsadga muvofiq. Masalan, o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlansa, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. Ertak va hikoyalarni bolalar ko‘pincha o‘zlarining ijodiy rolli o‘yinlarida sahnalashtiradilar, bu o‘yinlarda tulki, sichqon, xo‘roz, quyon kabi personajlarni o‘yinlarda aks ettiradilar. Har xil she‘r, ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari mana shunday o‘rganiladi. Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo‘lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo‘lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. «Sholg‘om», «Bo‘g‘irsoq» kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklarga olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she‘rlar ham olinadi. Masalan, tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi.

Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko‘proq qanday asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo‘lg‘usi sahnalashtiriladigan o‘yinlar jonlantiriladi.

Non isi

Alisher Navoiy

Sahnada saroy ko‘rinishi tasvirlanadi. «Non isi» rivoyatini sahnalashtirish uchun zarur bo‘lgan barcha jihozlar hozirlanadi. Ishtirokchilarning barchasi o‘z o‘rnini egallaydi.

– Bir kuni podshoh Husayn Boyqaro o‘z huzuriga vazirlarini chaqiribdi. Dunyodagi eng xushbo‘y narsani keltiring!

O‘ng qo‘l vaziri bir dasta atirgul keltiribdi.

Vazir: – Mana shohim.

Shoh: – Yo‘q, men aytgan narsa bu emas.

Chap qo‘l vaziri qalampirmunchiq keltiribdi.

Vazir: – Mana, shohim, marhamat.

Shoh: – Yo‘q. Men aytgan narsa bu emas. Sizlarga uch kun muhlat: topsalaringiz – topdingiz, topmasalaringiz, hammangizni jazolaymen!

Vazirlar nima qilishlarini bilmay, rosa boshlari qotibdi. O‘ylay-o‘ylay, Alisher Navoiyning huzuriga borib, maslahat so‘rashga qaror qilishibdi.

– Assalomu-alaykum, taxsir.

– Vaalaykum assalom. Kelinglar, xush ko‘rdik, marhamat.

Vazir: – Ey, mehribon ustoz! Bizni jazodan qutqaring. Shohimiz dunyoda eng xushbo‘y isli narsani keltirishimizni buyurib edilar. Shuni hech topa olmayapmiz. Panohingizga oling.

Navoiy: – Bu jumboqni ochadurg‘on kishi – Dehqon bobodur. Qani, yuringlar-chi, so‘raymiz.

Hammalari birgalashib, Dehqon bobo huzuriga boribdilar.

Dehqon: – Otam rahmatli tandirdan yangi uzilgan non isidan hushbo‘yroq narsa yo‘q, deguvchi edilar. Yangi yopilgan non-olib boringlar-chi, shohga ma‘qul kelsa, ajabmas.

Navoiy yangi uzilgan nonni savatga solib, shoh huzuriga kiribdi.

Navoiy: – Mana, shohim. Dunyoda hushbo‘y hidli narsa – tandirdan yangi uzilgan nondir.

Shoh: – Rahmat, do‘stim, ko‘nglim istagan narsani siz topib keltiribsiz.

Navoiy: – Shohim, rahmatni menga emas, Dehqon boboga ayting, ko‘nglingizning istagini shu kishi topdi.

Shoh chapak chalib, mulozimlarini chaqiribdi.

Shoh: – Dehqonga sarpo kiydiring!

Shoh xazinaboni dehqonga sarpo kiydiribdi.

Dehqon: – Qulluq, shohim, qulluq.

Demak xulosa sifatida shuni aytish kerakki, o‘yinlar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o‘yinda bola o‘zini o‘sha asardagi qahramon o‘rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so‘zlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo‘lgan ijobiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o‘yinda badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi. Sahnalashtirilgan o‘yinlar bolalar biror ertak yoki hikoya syujeti asosida ma’lum bir rolni bajarishiga, o‘yin jarayonidagi personajlarning aytadigan so‘zlarining yod olinishiga asoslangan bo‘lib, bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston. NMIU, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: —O‘zbekiston NMIU, 2017. – 48 b.
4. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Kayumova N. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU, 2017-yil.
6. .D.R. Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi” O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirligi huzuridagi “Intellektual mulk agentligi”.-T.: 2020yil. (elektron darslik).
7. F.R. Qodirova «Nutq o‘stirish metodikasi» O‘UM T.; 2012yil.(elektron)

8. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning ruhiy omillari. Sariog‘och. 1998-yil.
9. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish metodikasi. T.: Fan va texnologiyalar. 2009 yil. O‘quv qo‘llanma.
10. D.R.Babayeva. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. T.: “Barkamol avlod fayz”, 2018 y. Darslik.

МАДАНИЯТДА МИЛЛИЙЛИК ВА УМУМИНСОНИЙЛИКНИНГ АНТИК ДАВРДАГИ ТАРИХИЙ ИЛДИЗЛАРИ

Мерзаев Икром Бобакулович,

Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. Мақолада маданият ва миллийлик тушунчаси, маданиятнинг илк ривожланиш босқичлари Хиндистон, Хитой фани ва фалсафаси, юнон фани ва унда маданият ва миллийлик тушунчасининг ёритилиши антик давр ва унинг кейинги инсоният цивилизациясида тутган ўрни ёритилган.

Калит сўзлар: Маданият, миллийлик, умуминсонийлик, антик давр, шахс, эстетик маданият, жамият, шахс.

Маълумки бугунги кунда маданиятга берилган таърифлар жуда кўп. Умуман, маданият, кенг маънода, ҳаётни фалсафий идрок этиш ва ҳаётга фалсафий-маънавий муносабатда бўлиш демакдир. Бу нарсa тарихий жараён сифатида қадимдан то ҳозирги кунга қадар ўзининг бой меросини жаҳон халқлари фалсафий тафаккурида ифодалаб келган. Айниқса, қадимги Хитой, Ҳиндистон, Юнонистон каби давлатлардаги ижтимоий-фалсафий фикрлар тараққиётида эстетик маданият даврлар оралиғида ретроспектив ёндашувлар ривожланган. Бу давлатларда ўзига хос эстетик дунёқараш шаклланган. Улардаги “...қадимги маданият ёдгорликларининг мавзу йўналиши ҳам диққатга сазовордир. Асосий тасвир (қоя суратлари) ва тақлид (рақслар) учун овчилик касби билан боғлиқ ҳайвонлар объект қилиб олинган. Ёввойи буқа, фил, кийик тасвирларини яратиш билан қадимги одамлар улар ҳақида ўзи билган жуда муҳим хислатларини ва бу хислатларга хос ўзининг хатти-ҳаракатларини ифодалаган”[1]. Фан ва маданиятнинг юксак эстетик маданиятга оид кўринишлари қадимги Хитой халқи дунёқарашида гўзаллик ҳақидаги тушунчаларида ифодаланган. Хитойликлар қадимдан хунармандчилик билан шуғулланишганликлари сабабли бутун дунё халқлари томонидан “Чин” мамлакати деган номга сазовор бўлишган. Хитойда ижтимоий-эстетик фикр ривожига Конфуций (эр.ав. 551-479) алоҳида ўрин тутди. У ўзининг эстетик ғояларга бой “Қўшиқлар китоби”, “Баҳор ва куз” асарларида табиатнинг хушманзара кўриниши, зилол сувлар жилваси, бутун мавжудотнинг чиройини тараннум этган. Шунингдек, инсоннинг ҳис-туйғулари туғма хусусиятлар асосида шаклланиб, жамиятда эстетик маданиятни камол топтиради, дейди. Лекин бу хусусиятлар ижтимоий ҳаёт давомида нафосат ва гўзаллик, уйғунлик ва мувофиқлик, фантазия ҳамда санъат кабиларга боғлиқ равишда ўзгариб боради, деб таъкидлайди. У эстетик маданият билан ахлоқий етуклик орасидаги муштаракликни улуғлайди. Конфуций таълимотига кўра, эстетик маданиятли кишилар “...соғлом жамият яратиш учун зарур бўлган барча ижобий руҳдаги инсоний хислатлар ўз-ўзидан намоён бўлмайди, уларга эга бўлиш учун кишининг ўзини-ўзи тарбиялаши, ҳаётда ўз ўрнини топишга интилиши каби масъулиятни онгли равишда ҳис этиши керак”[2]. Шахсларнинг эстетик маданиятли бўлиши уларнинг зиммаларига юкланган вазифаларни кўтаринки руҳда ва аниқ бажаришни тақозо этади. Қадимги Хитойдаги маданиятга оид фикрлар Лао Цзи (мил.ав. VI-V асрлар) томонидан илгари сурилган даосизм таълимотида ифодаланган. Унинг таълимотига кўра, дао қонуни – табиатнинг яшаш қонунидир, ундаги рангбаранглик кураши ва уйғунлиги абадийликнинг эътирофи этилишидир¹. Демак, жамият ва шахс эстетик маданияти бирбири билан чамбарчас боғлиқ ҳолда тадрижий ривожланиб бориши Хитой мутафаккирларининг диққат марказида бўлган. Ҳан. Даосизм таълимотича, шахс

эстетик маданияти табиат ва жамият ўртасидаги ўзаро алоқадорлик орқали уйғунлашиб кетади. Бу жараёнда “санъатни бир одамдан иккинчи одамга ўтказиб бўлмайдиган, яъни ўргатиб бўлмайдиган олий ҳодиса сифатида талқин этади. Санъат ўз ички ниятида табиатдаги ўхшашликни (айнанликни) илғаб олиш; “тутиб қолиш” қобилятидир. Ниятнинг ўзи санъаткор қалбида бирон-бир масъулиятсиз, ҳеч қандай шакл-у шамойилсиз туғилади, шаклни эса, у ўзида (қардош) бўлган табиат билан уйқашиб (хе) кетган лаҳзада олади. Ижодий жараён барча кучлар олий даражада жамланган лаҳзада вужудга келадиган нагоҳоний “башорат” тарзида тушинилади” [3]. Қадимги дунё юнон фалсафасига монанд ҳолда вужудга келди. Шу асосда тартибга солинган кўплаб эстетик назариялар шаклланиб, шахс эстетик маданиятининг турли-туман эстетик ғоялари ва фикрлари ривожланишига замин бўлиб хизмат қилди. Хулоса қилиб таъкидлашимиз жоизки Маданиятнинг миллийлик ва умуминсонийлик антик давр фани ривожига илк қадамлардан ҳисобланиб бу ўз навбатида кейинги тараққиётнинг ривожланишига илк пойдевор вазифасини бажарди.

Адабиётлар.

1. Philosophy of the dictionary. –Vol.: 2004. 327-bet.
2. Yuldashev S.A. Antiphalosophy. –T.: 1999. 78-bet.

МИЛЛИЙЛИК ВА УМУМИНСОНИЙЛИК УЙҒУНЛИГИНИ ФАЛСАФИЙ МЕТОДОЛОГИК МУАММОЛАРИ.

Мерзаев Икром Бобакулович

Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. Мақолада маданият ва миллийлик тушунчаси, маданиятнинг илк ривожланиш босқичлари Хиндистон, Хитой фани ва фалсафаси, юнон фани ва унда маданият ва миллийлик тушунчасининг ёритилиши антик давр ва унинг кейинги инсоният цивилизациясида тутган ўрни ёритилган.

Калит сўзлар: Маданият, миллийлик, умуминсонийлик, антик давр, шахс, эстетик маданият, жамият, шахс.

Миллийлик ва умуминсонийлик тушунчалари инсон ва унинг фаолияти давомида тафаккурининг доимий равишда ўзгарувчан ва янгиликка мойиллиги жамиятда ўзига хос ижтимоий муносабатларни вужудга келтириб боради. Бу жараён, ўз навбатида, маданиятнинг хилма-хил кўринишларини шакллантиради, воқелик ҳақидаги тасаввурларни янгилайди, жамиятнинг ўз ички қонуниятларига боғлиқ равишда ижтимоий муҳитнинг ривожланиш ва ўзгариш жараёнларига таъсир этади. Ҳар бир шахс маданиятининг ривожланиб бориши жамият эстетик маданияти ва халқ маънавий бойлигининг оммалашув ҳамда идрок этилиш даражасига боғлиқ бўлади. Бу жараён ҳеч қачон текис ва силлиқ кечмаган, у доимо спиралсимон ҳаракат ва ривожланиш босқичларини ўтаб келган. Жамиятда маданий ривожланиш узок тарихий тараққиёт йўлига эга. Маданиятнинг турли шакллари тарихан шаклланиб, ижтимоий қатламлар учун турлича хизмат қилиб келган. Маданиятнинг шакллари, жумладан, шахс маънавий юксалиши, асрлар оша маънавий кадриятларни тўплаш ва кўпайтириш билан ажралиб туради. Ана шундай маънавий кадриятлардан бири сифатида эстетик маданият шахс тафаккури, онги ва дунёқарашини бойиши жараёнида жуда катта роль ўйнайди. Шундай экан, аввало, маданиятнинг ўзи нима эканлигини англаб етиш, шу аснода унинг ривожланиш қонуниятлари ва тамойилларини тадқиқ этиш зарурияти туғилади. Жамиятнинг маданияти муайян тарихий шароитда яратилган ва идрок этилаётган эстетик кадриятлар йиғиндисидан иборат. Унга, биринчи навбатда, миллат истиқомат қиладиган муҳит табиати, ижтимоий-сиёсий тузумдаги тизимлар фаолиятига муносабат, яратилаётган барча моддий ва маънавий кадриятларнинг эстетик жиҳатлари, одамлар ҳаёти ва фаолиятидаги эстетик томонлар ва, шубҳасиз, адабиёт ва санъат дурдоналари киради. Жамиятда шахс маданияти турли хил нарса ва ҳодисалар ўртасидаги жараёнларнинг ўзаро алоқадорлиги асосида ривожланади. Бу ривожланиш асосида шахснинг онгида ҳосил бўладиган тасаввур ва фикрлар йиғиндиси муайян эстетик кўринишга асосланган ҳолда ижтимоий ҳаётнинг қуйидаги қонуниятларида бўлади.

Табиат ва жамият ривожланиши жараёнида вужудга келадиган маданиятнинг бу қонуниятлари ижтимоий ҳаётнинг барча жабҳаларида, айниқса, санъат, ахлоқ, ҳуқуқ, дин, фан ва таълим соҳаларида амал қилиб, маданият назариясининг моҳиятини очиб беришга хизмат қилади. Уларнинг ҳар бири жамият ривожига алоҳида-алоҳида шаклланиб бориб, шахс дунёқараши ва онгининг тараққий этишига олиб боради.

Хулоса сифатида: маданияти жамиятнинг барча соҳаларида намоён бўлиши универсал ҳодиса экан, уни ўрганиш усуллари, услублари ҳам кенг қамровли, турли-туман бўлиши мумкин. Учинчидан, шахс эстетик маданиятининг полифункционаллик тамойили жамиятдаги турли ижтимоий вазифаларни бажаришда кўринади. Хусусан, эстетик маданият

олами ўзгартириш, инсонни тарбиялаш, борлиқни билиш, ижтимоий организмни бошқариш, шахслар ўртасидаги муносабатларни тартибга солиш, улар амалларини назорат қилиш, фуқарони ҳимоя қилиш, унга лаззат бағишлаш, тарихан шаклланган эстетик маданиятни авлодларга етказиб бериш, амалга ошмаган ва ошмайдиган истакларнинг ўрнини тўлдириш каби вазифаларни бажаради. Умуман олганда, шахс эстетик маданиятининг шаклланиш тамойиллари жамият ривожланишида ўзининг янгича қиёфаси мазмун ва моҳияти билан эстетик онг ва фаолиятнинг хилма-хиллигини вужудга келтириб, воқеликка бўлган завқий муносабатларни бойитиб боради.

Адабиётлар.

1. Фалсафа Луғати. - Т.: 2004. 327-бет.
2. Э. Умаров, М. Абдулаев. Маънавият асослари. –Т.: Шарқ, 2005.

HOZIRGI DAVR O‘ZBEKISTON KEKSA AVLOD VAKILLARIDA MA’NAVIY JASORAT, AXLOQIY BURCH VA MAS’ULIYATNI YUKSALTIRISH STRATEGIYASI: AN’ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK DIALEKTIKASI

Abdukarimova Gulchexra Baratovna

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotasiya. Maqolada bugungi kunda keksa avlod va uning jamiyatdagi o‘rni, Avlodlar davomiyligi eng umumiy ma’noda moddiy va ma’naviy qadriyatlar, bilim, ko‘nikma va malakalarning avloddan-avlodga o‘tishi, ma’naviy madaniyatni, oila va ijtimoiy hayotdagi o‘rni taxlil qilingan. Shuningdek, Avlodlararo vorisiyligi, har bir yangi avlod uning davomiyligi, yangi masalalari taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Keksalar”, “qariyalar”, “qariyalar”, “faxriylar” stereotip, Yangi avlod, avlod, ajdod, davomiylilik, qadriyat, moddiylik, ma’naviylik.

Keksa odamlar o‘ziga xos individual ijtimoiy hamjamiyatdir. Uning o‘ziga xosligi shundaki, aholining qarishi jamiyatning urbanizatsiyasi, demokratlashuvi, ijtimoiy-madaniy faoliyatning rivojlanishi, pensiya bilan ta’minlangan pensionerlar sonining ko‘payishi, katta yoshdagi bolalar va keksa ota-onalarning bir-biridan ajralishi bilan kuchaymoqda. Keksalarning jamiyatdagi roli ularning tarixiy tajribasi va madaniy an’analari tarafdorlari sifatida belgilanadi. Muayyan ijtimoiy-madaniy avlodning ijtimoiy biografiyasiga qarab o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Har zamonda, barcha davrlarda, barcha jamiyatlarda shaxsning yoshligi uning hayotida chuqur iz qoldiradi. Shu boisdan ham O‘zbekistonda “aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirish, pensiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya sur’atlaridan yuqori miqdorda izchil oshirish, keksalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish”[1]pensiya ta’minoti tizimining muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda keksalarning turmush tarzi va bo‘sh vaqtini o‘rganish, davlat va jamoat tashkilotlarining e’tibori yetarli emas. Keksalarning tajribasi va kuchi to‘liq ishlatilmaydi. Pensiyaga chiqqandan keyin ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish qobiliyati pasayadi. Keksa odamlar nafaqaga chiqishga psixologik jihatdan tayyor emaslar. Bo‘sh vaqtdan to‘g‘ri foydalanmaydi. Turmush sharoiti yomon bo‘lsa, keksalar ko‘p vaqtini uy yumushlari bilan o‘tkazadilar. U ma’naviy manfaatlarga unchalik ahamiyat bermaydi. Keksalar uchun dam olishning samarali shakllarini nazariy va uslubiy jihatdan ishlab chiqish ularning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini tushunish va individual xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, rekreatsion faoliyatning xarakteri va darajasi quyidagi omillarga bog‘liq: 1) salomatlik va psixologik faollik holati; 2) ijtimoiy mavqe (yolg‘izlik, bolalar bilan yashash); 3) ilgari ish tajribasiga ega bo‘lgan shaxslar va tashkilotlar bilan avvalgi jamoatchilik aloqalarini saqlab turish; 4) daromadning moddiy mazmuni va miqdori; 5) madaniyat va ta’lim darajasi; 6) xulq-atvor xususiyatlari.

Yosh, jins kabi, ijtimoiy munosabatlarni iyerarxiya qiladi va tabaqalanish kategoriyasidir. Keksa odamlar istisno amaliyotlarga duchor bo‘lgan inqirozli guruh sifatida ko‘riladi. “Zamonaviy jamiyatda keksalik obrazlarini yaratish mexanizmlari inson rivojlanishining individual jarayoni haqidagi qarashlar, yoshlarga alohida obro‘-e’tibor maqomini beradigan jismoniylikka utilitar yondashuvlar, materialning qadriyatlariga yo‘naltirilgan ish etikasi bilan belgilanadi”[2].

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, birinchidan, “avlodlar” ijtimoiy tajribani to‘playdigan, sharhlaydigan va tarjima qiladigan tarixiy jihatdan o‘zaro bog‘langan demografik

guruhlardir. Shu bilan birga, talqinlarning tabiati va ijtimoiy tajribani amaliyotga tadbiq usullari ijtimoiy-madaniy dinamikaning vektorlari va turini belgilaydi. Shunday qilib, falsafiy nuqtai nazaridan avlodni sotsial-madaniy dinamikaning subyekti sifatida tavsiflash mumkin. Ikkinchidan, avlodlarning ijtimoiy-madaniy vorisiyligi tamoyili - umumiy ijtimoiy sharoitlar va tarixiy vazifalar bilan belgilanadigan ijtimoiy munosabatlar va munosabatlarning doimiy takrorlanishining obyektiv-tarixiy qonuniyati, ular orqali avlodlar tanlash, saqlash, uzatish, o‘zlashtirish, qayta ishlashni amalga oshiradi. oldingi ijtimoiy faoliyat tajribasi, o‘ziga xos madaniyat va ularni yanada rivojlantirish uchun muloqot shakllaridan iborat bo‘ladi.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. 6-сон, 70-модда.
2. Прохорова Л.В. Самореализация пожилых людей как способ преодоления социальной эксклюзии / Л.В. Прохорова, Л.А.Осьмук, В.Б. Пономарёв. – Новосибирск: НГТУ, 2012. – 232 с.
1. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
2. Suyunov D. H. The main problems of corporate governance and ways to solve them //EPRA International Journal of Economic Growth and Environmental Issues (EGEI) ISSN. – C. 2321-6247.
3. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 138-145.
4. Suyunov D. K. Scientific Foundation For Implementation Of The Compliance Control System At Corporate Enterprises //The American Journal of Management and Economics Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 06. – C. 138-145.

O‘ZBEKISTONDA HUQUQ FALSAFASINING SIYOSIY –HUQUQIY G‘OYALARI

Eldor Elomonov Ruslan o‘g‘li, Nomozqulova Iroda Xolbozor qizi

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Huquq falsafasi yoki huquqshunoslik jamiyatda huquqning tabiati, maqsadi va funksiyasi haqidagi keng ko‘lamli nazariy qarashlarni o‘z ichiga oladi. Postsovet davlatidan ochiq va demokratik jamiyatga o‘tayotgan O‘zbekistonda huquq falsafasiga ta’sir etuvchi siyosiy-huquqiy g‘oyalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqola ushbu g‘oyalarni o‘rganish, ularning tarixiy ildizlari, bugungi kundagi dolzarbligi va O‘zbekistonning huquqiy va siyosiy landshaftida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni muhokama qilishga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Huquq falsafasi, Postsovet, Tarixiy ildizlar, Sovet qonunchilik, Islom qonunchilik, Huquqiy plyuralizm, Sud-huquq mustaqiligi

O‘zbekistondagi mavjud huquq falsafasini tushunish uchun uning tarixiy asoslarini ko‘rib chiqish zarur. Mamlakat 1991 yilda Sovet Ittifoqi parchalanganidan keyin mustaqillikka erishdi. Sovet qonunchiligi markazlashgan nazorat va chegaralangan shaxs erkinliklari bilan ajralib turadigan O‘zbekiston huquq tizimining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Tarixiy qiyinchiliklarga qaramay, O‘zbekiston hozir o‘zining milliy an‘analari va xalqaro inson huquqlari standartlariga mos keladigan o‘ziga xos huquqiy o‘ziga xoslikni shakllantirishga harakat qilmoqda. Islom huquqiy tamoyillarining, xususan, shariatdan kelib chiqqanlarning ta’siri, dunyoviylikka sodiqlik bilan bir qatorda, hozirgi huquq falsafasi uchun murakkab asosni tashkil qiladi.

Siyosiy g‘oyalar va huquqiy asoslar: Prezident Shavkat Mirziyoyev 2016-yilda hokimiyatga kelganidan so‘ng O‘zbekiston hukumati jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Uning ma’muriyati qonun ustuvorligini oshirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan islohotlarga alohida e’tibor qaratdi. Ushbu islohotlarga asos bo‘lgan siyosiy falsafani bir nechta asosiy g‘oyalarga bo‘lish mumkin:

1. Qonun ustuvorligi: javobgarlikni ta’minlaydigan va shaxs huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy bazani yaratish muhimligini ta’kidlab o’tish. Ushbu g‘oya hukumat hokimiyatini cheklash va sud jarayonlarida adolatni ta’minlashga qaratilgan.

2. Inson huquqlari: O‘zbekiston hukumati inson huquqlarini hurmat qilish zarurligini tan oldi, bu uning xalqaro shartnoma va konvensiyalarga sodiqligida namoyon bo‘ldi. Inson huquqlarining ichki qonunchilikka integratsiyalashuvi va fuqarolar erkinliklarini rag‘batlantirish amalga oshirilayotgan islohotlarning markaziy o‘rinni egallaydi.

3. Demokratiya va ishtirok: Siyosiy jarayonlarda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga e’tibor kuchaymoqda. Fuqarolarni fuqarolik jamiyati tashkilotlari va jamoatchilik tashabbuslari orqali qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb qilish harakatlari avvalgi avtokratik tendentsiyalardan voz kechishni anglatadi.

Qiyinchiliklar va kelajak yo‘nalishlari Bunday ijobiy o‘zgarishlarga qaramay, O‘zbekiston huquq falsafasida o‘rnatilgan siyosiy va huquqiy g‘oyalarning to‘liq imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishda muammolar saqlanib qolmoqda. Haqiqiy huquqiy va siyosiy islohotlarni rag‘batlantirish uchun korrupsiya, inson huquqlarining buzilishi va so‘z erkinligini cheklash kabi muammolarni hal qilish zarur.

Xulosa o‘rnida: O‘zbekistonda huquq falsafasini shakllantirgan siyosiy-huquqiy g‘oyalar tarixiy meros va zamon talablaridan kelib chiqib rivojlanmoqda. Qonun ustuvorligi, inson

huquqlari va demokratik ishtirokga sodiqlik yanada ochiq va adolatli jamiyat sari sezilarli siljishni aks ettiradi. Adolat va demokratiya tamoyillarini chinakam o‘zida mujassam etgan mustahkam qonunchilik bazasini barpo etishda huquqiy islohotlar, sud-huquq mustaqilligi va jamoatchilikning faolligini oshirish borasidagi sa’y-harakatlarning davom etishi muhim.

Adabiyotlar:

1. Гойибов Н.Ё. Ҳуқуқ фалсафаси: Маърузалар курси. / Гойибов Н.Ё. Юсубов Д.А., Мавлянов А.А., Саитходжаев Х.Б. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2012. – 146 б А.Қаюмов. Беруний, Ибн Сино. Ёш гвардия. 1987 й. 72-бет.
2. Нерсисянц В. С. ҲУҚУҚФАЛСАФАСИ/ Масъулмуҳаррир:А. Х. Саидов, Т., «Адолат», 2003. 280- бет.

XOTIN-QIZLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Ikramova Feruza Xayrullayevna, Mamatsoliyeva Lobar Olloyor qizi

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ayolning jamiyatdagi faolligi, oilaning mustahkamligi, oqil va bilimdon farzandlarni kamolga yetkazishdagi o‘rni va O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi o‘rniini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Ayol, jamiyatdagi faolligi, oilaning mustahkamligi, gender notengligi, ma’naviyat va ma’rifat, tadqiqot, targ‘ibot, infratuzilma, diniy e’tiqod.

Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan esa dunyoni tebratishga qodir bo‘lgan muhtarama zot hisoblanadi. Shu bois, istiqlol yillarida yurtimizda xotin-qizlarimizga cheksiz hurmat va ehtirom ko‘rsatilib, ularning jamiyatimiz hayotida tutgan o‘rinlari yildan-yilga faollashib bormoqda. Azal-azaldan sharq xalqlarida, xususan, o‘zbek xalqida ayolni e‘zozlash, ehtirom ko‘rsatish eng oliyanob fazilatlaridan biri hisoblangan. Ayolning jamiyatdagi faolligi, avvalo, oilaning mustahkamligi-yu oqil va bilimdon farzandlarni kamolga yetkazishdek ulkan mas’uliyatni ado etish bilan belgilanadi. O‘zbekistonda ayollar jamiyatdagi o‘rniini oshirish bo‘yicha bir nechta ishlar olib borilmoqda. Bunga misol qilib aytish mumkinki, bugungi kunda yurtimizdagi va jamoat tashkilotlari tizimida qariyb 1 ming 500 nafarga yaqin ayollar rahbarlik qiladi. Ayol kishining xizmat lavozimlari bo‘ylab ko‘tarilishiga urinishi uni karyerani yoki oilani tanlashga undaydi. Ayollar uchun bu faoliyat muqobillik asosida shakllanganligini sotsiologik so‘rovlar, ommaviy axborot vositalaridagi chiqishlar, ayollarni qat’iy intilishlariga o‘zlari bergan baholari yaqqol misol bo‘la oladi. Hozirgi vaqtda bu muqobil tanlovining negizida yana boshqa omillar ham, ya’ni oila uchun yordam sifatida maishiy xizmat sohasining talab darajasi past bo‘lishi, oiladagi xo‘jalik ishlarining er va xotin orasida bir xil taqsimlanmaganligi, qolaversa, xotin qizlarimizning o‘z mavqeiga erishish masalasida kelib chiqayotgan ko‘pgina tushunmovchiliklar ayol kishining ijtimoiy kelib chiqishida milliy mentalitetning o‘rni va boshqa omillar ham mavjud bo‘lib kelmoqda. Ayrim tadqiqotchilarning izlanishlariga ko‘ra, ayolning professional faoliyatidan keyin uydagi ikkinchi smena omili shu qadar murakkab muammoki, bu ko‘pincha hatto gender notengligi deb ham izohlanadi.

Har bir jamiyatning mavqei uning ayollarga bo‘lgan munosabatiga qarab baholanadi va shu bois xotin-qizlarning oila va jamiyatda tutgan o‘rni nafaqat qonun bilan, balki siyosat, ma’naviyat va ma’rifat, diniy e’tiqod va falsafa bilan bog‘liq holda belgilanadi. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jamiyatda gender tenglikni ta’minlash, qishloq joylarda infratuzilmalarni yaxshilash orqali turmush farovonligini oshirish, xotin-qizlarning farovonligini ta’minlashga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, maktabgacha tarbiya muassasalari, xotin-qizlar uchun qishloq joylarda yaratilayotgan yangi ishchi o‘rinlar, yil sayin takomillashib borayotgan tibbiy xizmatlar va boshqa ko‘plab misollar mamlakatimizda xotin-qizlarning o‘rni mustahkamlanib, sharoitlari yaxshilanib borayotganidan dalolatdir.

Hozirgi kunda ko‘pgina qishloqlarda ayol kishi “Uy bekasi” yoki qiz bola bironing xasmi degan tasavvurlarga ko‘p bora duch kelamiz. Shu bois yosh xotin- qizlarimiz bu qoidaga bolaligidanoq o‘rganadilar va ayollikning bir qismi bu uyda qolib uy yumushlari bilan shug‘ullanish degan tasavvur paydo bo‘ladi va bu gender rollarini odatga ko‘ra ushlab turilishi orasidagi tobora farqlashuvining ko‘payishiga olib keladi. Olib qishloqlarda yashab kelayotgan yosh xotin-qizlarimiz uchun ko‘pgina servislar haligacha mavjud emas. Eng birinchisi bu ularga

yetarlicha ta’lim sohasi rivojlanmaganidan darak beradi, chunki eng yaxshi kadrlar rivojlanishdan ortga qolgan qishloqlarga borib dars bergisi kelmaydi, natijada ta’lim sifati qobiliyatli yosh xotin-qizlarning uyda qolishiga sababchi bo‘ladi. Bundan ko‘rinib turibdiki, psixologik va kommunikatsion texnologiyalardan foydanilmaydi, ko‘pgina qizlarimiz erta turmish qurish natijasida, oilalarning buzulib ketishiga guvoh bo‘lamiz. Ayrim qishloqlarda ko‘p ayollarimiz ishsizlik tufayli uyda qolishga yoki turmush o‘rtog‘i bilan chet elga ketishga qaror qiladi. Bu esa ularning farzandlari ota-ona mehriga zor bo‘lib ulg‘ayishiga sababchi bo‘ladi. Bu muammolarga yechim sifatida olis qishloqlarda yashovchi ayollar bilan doim kommunikatsion aloqalar olib borish va ular bilan doim psixologlarning ish faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xotin-qizlar berilgan imkoniyatlardan to‘la qonli foydalana olishlari uchun, bizdek fidoyi talaba-yoshlar birlashib, ko‘pgina tadqiqot, targ‘ibot, shuningdek, keng qamrovli konferentsiyalar va forumlarni joriy eta olsak, o‘zimiz kutgan natijaga erisha olamiz. Darhaqiqat, ayol va uning jamiyatdagi o‘rni, faoliyati masalasi bugungi kungacha turli-tuman qarashlar, ta’limotlar bilan boyitib kelinmoqda. Shuni ta’kidlash lozimki, bu qarashlarning barchasida ayol muqaddas bir xilqat sifatida talqin etib kelinmoqda.

Bugungi kunda xotin-qizlar nafaqat uy bekasi balki, jamiyatda o‘z o‘rniga ega pedagog, shifokor, rahbar, deputat, olim, shoir, hamdirlar. Bu esa barchamizning baxtimizdir.

Mening maqsadim ham mustaqil O‘zbekistonimizni jahonga tanitish va tanlagan kasbim bo‘yicha el-yurtga hizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda men Avtomobil yo‘llari muhandisligi fakultetida tahsil olish bilan birga o‘qishdan bo‘sh vaqtlarimda til o‘rganish bilan birga univemitetimiz miq‘yosida o‘tkaziladigan turli hil tanlovlarda ishtirok etib kelmoqdaman. Bugungi kunda Davlatimiz tomonidan xotin-qizlarga ta’lim olish uchun berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda men xam o‘z yo‘nalishim bo‘yicha magistraturada o‘qib, bilimlarimni va tanlagan yo‘nalishim bo‘yicha salohiyatimni oshirishni o‘z oldimga maqsad qilib qo‘ydim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qarori.
2. 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” PQ-5020-sonli qarorlari
3. 2. Toxir Malik. Tanlangan asarlar: To‘qqizinchi jild. “Odamiylik mulki”- “Husnu xulq” (Ahloq kitobi).-T.: “Sharq”, -704 b
4. www.gender.stat.uz
5. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal
Year : 2022, Volume : 12, Issue : 5 First page : (129) Last page : (133) Online ISSN: 2249-7137. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00365.2
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=5&article=022>

AYOLLARNING CHET TILLARIDAN TAHSIL OLISHI, BILIM BERISHI HAMDA CHET TILLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA XALARO VA YUQORI LAVOZIMLARDA FAOLIYAT YURITISHI

Xudoyberganova Durdona Ismail qizi

Toshkent davlat transport universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Ushbu maqola ayollarning xorijiy tillarini o‘rganish va o‘qitish jarayonidagi ahamiyatini yoritadi. Ayollarning chet tilidagi ta'limi, global aloqa va madaniyatlararo tushunishni oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Chet tillarni o‘rganish orqali ayollar professional imkoniyatlarini kengaytirib, o‘z shaxsiy va ijtimoiy hayotlarida muvaffaqiyatga erishishadi. Shuningdek, ayollarning bilim berishdagi roli farzandlarining ta'limida, tarbiyasida va ularning kelajakdagi imkoniyatlarida muhim ahamiyatga ega. Maqola, ayollarning ta'lim olish va berish jarayonini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni ham muhokama qiladi.

Kalit so‘zlar: ajnabiy tillar, ta'lim, metod, strategiya, resurslar, tashkilot, biznes, diplomatik aloqa, professionallik

Kirish. Chet tillari bugungi kunda global kommunikatsiya va bilim almashinuvi uchun muhim vositadir. Ayollarning chet tillarini o'rganishi, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot uchun ham zarurdir. Ta'lim va imkoniyatlar: Xorijiy tillarini o'rganish orqali ayollar yangi imkoniyatlarga ega bo'lishadi, malakalarini oshiradilar va jahon bo'ylab ish topish imkoniyatlarini kengaytiradilar. Gender tengligi: Ayollar ta'lim olish orqali o'z huquqlari va imkoniyatlarini yanada kengaytirishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi mumkin. Kelajak avlodlar: Ayollar chet tillarini o'rgatish orqali kelajak avlodlarni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydilar, bu esa jamiyatning rivojiga hissa qo'shadi. Shu nuqtai nazardan, ayollarning ajnabiy tillardan ta'lim olishi va bilim berishi, nafaqat shaxsiy manfaat, balki jamiyatning umumiy rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Ayollarning chet tilini o‘qish va o‘qitish jarayoni, ayniqsa xalqaro va yuqori lavozimlarda ishlash uchun muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon quyidagi jihatlarni o‘z ichiga oladi: Til bilishning ahamiyati: Xorijiy tillarni o‘rganish, ayollarga xalqaro arenada raqobatbardosh bo‘lish imkonini beradi. Boshqa tillarda muloqot qila olish, xalqaro tashkilotlarda va kompaniyalarda ishlashda muhim afzallik hisoblanadi. O‘qitish metodlari: Ayollarning chet tilini o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanish, interaktiv darslar va amaliy mashg‘ulotlarni kiritish muhimdir. Bu orqali til o‘rganish jarayoni yanada samarali bo‘ladi. Raqamli resurslar: Onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali ajnabiy tillarni o‘rganish imkoniyatlari kengaygan. Bu, ayniqsa, ish bilan band bo‘lgan ayollar uchun qulay. Mentorlik va qo‘llab-quvvatlash: Yangi tilni o‘rganishda tajribali ayollardan maslahat olish va mentorlik qilish jarayoni, yangi bilmalarga erishishda katta yordam beradi. Xalqaro lavozimlarda ishlash: Ajnabiy tillarni yaxshi bilish, ayollarga diplomatik, xalqaro munosabatlar, biznes va boshqa sohalarda yuqori lavozimlarga erishish imkonini yaratadi. Bunda til bilish, kommunikatsiya ko‘nikmalari va madaniyatlararo muloqot muhim o‘rin tutadi.

Asosiy qism: Ajnabiy tillarni o‘rganishning afzalliklari. Karyera imkoniyatlari: Chet tillarini bilish, ayollarga global bozorga kirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, xalqaro kompaniyalarda yoki tashkilotlarda ishlashda juda muhimdir. Malaka oshirishga kelsak, yangi tillarni o‘rganish, shuningdek, professional rivojlanish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratadi. O‘zbekiston kabi ko‘p tilli jamiyatlarda, ko‘plab mutaxassislar xorijiy tillarni bilishlari kutiladi. O‘qitish metodologiyasi: Interaktiv o‘qitish: O‘quv jarayonida zamonaviy texnologiyalarni, masalan, video darslar, onlayn testlar va muloqot platformalarini qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Amaliy mashg‘ulotlar: Tillarni o‘rganishda amaliyot juda muhim. Rol o‘ynashlar, muhokamalar va real hayot vaziyatlarini simulyatsiya qilish orqali o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash mumkin. Raqamli resurslar va onlayn ta’lim. Mobil ilovalar: Duolingo, Babbel kabi ilovalar orqali, ayollar istalgan joyda va vaqtda chet tilini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Onlayn kurslar: Coursera, edX kabi platformalarda turli tillarda kurslar mavjud bo‘lib, ayollar ulardan foydalangan holda bilimlarini kengaytirishi mumkin. O‘zaro qo‘llab-quvvatlash va tajribalar bilan bo‘lishish ayollarning o‘rganish jarayonini kuchaytiradi. Mentorlar va professional guruhlar bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy tillarni o‘rganish uchun tashkil etilgan dasturlar va konferentsiyalar, ayollarga yangi imkoniyatlar yaratadi va tajriba almashishga yordam beradi. Xalqaro lavozimlar va jamoatchilikdagi roli Karyera yutuqlari: Ayollar, chet tillarini bilgan holda, diplomatik, savdo, marketing va boshqaruv kabi sohalarda yuqori lavozimlarga erishishlari mumkin. Ajnabiy tilini bilish, ayollarning o‘z jamiyatlarida ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatini kengaytiradi, bu esa ularning o‘zgaruvchan va rivojlanayotgan dunyoda o‘z o‘rnini topishlariga yordam beradi.

Xulosa. Xorijiy tillarini o‘rganish, ayollarning professional va shaxsiy hayotida katta o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Ushbu jarayonni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash, jamiyat uchun ham ijobiy natijalar beradi. Ayollar, chet tillarini bilish orqali nafaqat o‘z karyeralarini rivojlantirish, balki jamiyatda o‘z o‘rnini topishga yordam berishlari mumkin. Shuning uchun, bu jarayonni yanada kengaytirish va rivojlantirish, kelajak avlodlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ajnabiy tillarni o‘rganish dunyoqarash va fikrlash doirasini kengaytiradi. Shuningdek, ayollar o‘z bilim va ko‘nikmalari bilan o‘z farzandlarini ham bilimli qiladi. Chet tillarini o‘rganish ayollarga ham xalqaro va yuqori lavozimlarda faoliyat yuritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. FLUEDU.UZ <https://fluedu.uz/uz>
2. Google ijtimoiy tarmog‘i va saytlari
3. Daryo.uz <https://daryo.uz/uz>

O‘ZBEKISTON RIVOJLANISHI TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O‘RNI (DUTORCHI SOZANDA RO‘ZIBI HODJAYEVA IJODIY FAOLIYATIGA CHIZGILAR)

Mirzaahmedova Farangiz, Gulshanoy Tursunova

O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi (Toshkent, O'zbekiston)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston jamiyati rivojlanishi va taraqqiyotida xotin-qizlarining o‘rni va mavqei, madaniyat sohasiga davlatimiz tomonidan berilayotgan alohida e‘tibor, san‘at namoyandalari faoliyatining ahamiyati, jumladan, mohir dutorchi-sozanda, pedagog, O‘zbekiston davlat konservatoriyasi professori Ro‘zibi Hodjayeving milliy san‘atimiz rivoji va targ‘ibotiga qo‘shayotgan hissasi haqida so‘z yuritiladi.

Kalitli so‘zlar: diplomatiya, festival, tanlov, konservatoriya, Ro‘zibi Hodjayeva, kafedra, pedagog, professor, shtat.

Insoniyat o'z tarixi, bugungi va kelajak hayotini o'zi yaratadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda turli sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar yurtboshimizning ilm-fan, madaniyat, san'at va sport sohasi bo'yicha erishilayotgan ulkan yutuqlarga e'tibor berayotganidan dalolat beradi. Bu o'z o'rnida yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarni har tomonlama yetuk tarbiyalashda xotin-qizlarning o'rni beqiyos ekanligini e'tirof etish, shuningdek, ularning jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirish va mustahkamlash kabi chora-tadbirlari, O'zbekiston taraqqiyoti rivojlanishi yo'lidagi sa'y-harakatlariga poydevor bo'ladi. Shu o'rinda muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyayev ta'kidlaganidek: “Biz mamlakatimizni har tomonlama yuksaltirish uchun, yangi tarixiy davrga qadam qo'ydik. Farzandlarimiz qalbiga ulug' maqsadlar, olijanob g'oyalarni singdirish - barcha O'zbekiston onalarining sharaflari burchidir.” Darhaqiqat, bugungi kunda ayollarimizning turli sohalarda o'z o'rniga ega bo'layotganliklarini bevosita guvohi bo'lmoqdamiz. Nafaqat ta'lim, siyosat, diplomatiyada, shu o'rinda ularning san'at sohasidagi yutuqlari ham iste'dodli va salohiyatli barkamol avlodni voyaga yetkazish bilan bir qatorda chet el davlatlarida bevosita madaniyatimizni targ'ib qilish bilan ham jamiyatda e'tirof etilmoqda.

O'tgan asr mobaynida biz mamlakatlarimiz ayollarining rivojlangan davlatlar o'rtasidagi turli tanlovlar va festivallarda ishtirok etib kelganliklarini bilamiz. Endilikda xotin-qizlarimiz nafaqat madaniyatimizni chet el davlatlarida targ'ib qilish, balki bizni san'atimizni atroflicha o'rganish uchun platforma yaratish, ular tomonidan hamjihatlikda ishlashga taklif qilishlari ham avvalo xotin-qizlarimizning sa'y-harakatlari hamda davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor va qo'llab-quvvatlashlar natijasidandir.

Shu o'rinda mohir dutorchi-sozanda, pedagog, O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori Ro'zibi Hodjayeving milliy san'atimiz rivoji va targ'ibotiga qoshyotgan hissasi va bir necha yillardan buyon bu borada jonbozlik ko'rsatib faoliyat olib botarayotgani etiborga molik.

Ro'zibi Hodjayeva O'zbekiston davlat Konservatoriyasi qoshidagi “Xalq cholg'ulari ijrochiligi” kafedrasida dutor cholg'usi bo'yicha 1984-yildan buyon o'z faoliyatini olib bormoqda. Ularning qo'l ostida shu yillar mobaynida yuzlab shogirdlar tarbiyalanib ular mamlakatimizning nufuzli musiqiy dargohlarida, o'quv maskanlarida faoliyat olib borib milliy ijrochilik san'atimiz rivojiga o'z ulushini qo'shib kelmoqdalar. Ajoyib pedagog Ro'zibi Hodjayeving ijodiy faoliyatining targ'ibot ishlarini yutuqli tomonlaridan biri bu milliy san'atimizni nafaqat chet ellik mehmonlarga tanishtirish, balki, yangi bosqichda ijro sirlarini

o‘rgatish orqali milliy qadriyatlarimiz va an‘analarimizga yaqinlashtirish maqsadi etiborga molik.

2005-yildan to bugungi kunga qadar ular O‘zbekiston-Yaponiya markazi qoshidagi yaponliklar uchun maxsus ochilgan “Dutor kursi”ning tashkil etilishida rahbarlik qilayotgani etiborga sazovor. Mazkur mashg‘ulotlar yaponiyalik erkak va ayollar milliy o‘zbek san‘atimizga nafaqat qiziqishlari ortishi, balki ularni milliy ijrochilik sir-asrorlarini o‘zlashtirib shu orqali keng taassurot va bilim, ijro ko‘nikmalarini ortirishi ham muhim. Dutor o‘rganish kursi orqali O‘zbekiston-Yaponiya o‘rtasidagimadaniy, musiqiy aloqalarni mustahkamlashda yangi poydevor bosqichi paydo bo‘ldi. Xususan, Ro‘zibi Hadjayeva Tokioda bo‘lgan safari haqida quyidagi fikrlarini bayon etadi: “2005-yildan shu kunga qadar muntazam ravishda har yili konservatoriyadagi talabalarim bilan birgalikda hamdo‘stlik konsertlarini o‘tkazib kelaman. Gohida ularga qarab hayron qolaman. Dini, irqi tili, dunyoqarashi boshqa, lekin qunt bilan dator o‘rganib, o‘zbek xalq qo‘shiqlarimizni ham ijro etishadi”.

Bunday xalqaro amaliyot va mahorat darslari sozandaning tajribasida kam emas, Xususan, joriy yilning 2-8-fevral kunlarda Ro‘zibi Hadjayeva AQSHning Kaliforniya shtatining “Santa Kruz” universiteti professori Tanya Merchant tashabbusi bilan amalga oshirilgan loyihada Ro‘zibi boshchiligidagi “Dutorchilar ansambli” bilan mashg‘ulotlar, ma‘ruzalar va mahorat darslari o‘tkazildi. 9-11-12-fevral kunlari esa Kolorado shatatining Boulder universitetida dator hamda turdosh cholg‘ular bo‘yicha mahorat darslari va konsertlari, 12 - fevral Kolorado shtati Denver shahrida MGU universitetida dator ijrochiligi va milliy kuy-qo‘shiqlar, lapar ijrochiligi bo‘yicha konserti, 13-fevral kuni esa Santa Kruz universitetida ochiq havo ijrochilik mashg‘ulotlari, 16-fevral Loss-Anjelos universitetida mahorat shunday darslarni, 18-fevral Kaliforniya shtatining Lafayette shahrining Madaniyat markazida dator cholg‘usi bo‘yicha davra suhbat va tantanali konsert o‘tkazildi. 2-mart kuni Santa Kruz universiteti katta zalida Ro‘zibi Hadjayeva mahoratli dars olgan talabalar ijrosidagi ajoyib yakuniy konsert bo‘lib o‘tdi.

Olis mamalakatda xalqimizning jozibali kuylarini yangrashi, o‘zga ijrochilar tomonidan mehr va mahorat bilan dutorda tarannum etilishi, o‘zbek madaniyatiga qiziqishni namoyon etgan holda milliy qadriyatlarimizni iftihar bilan tilga olishga zamin yaratmoqda.

Ro‘zibi Hadjayevaning Yaponiyada 200 dan ortiq o‘quvchilari, AQSHning Kaliforniya shtatida bugunda ustoz-shogird an‘analarini davomchisi bo‘lgan amerikalik shogirdi Tanya xonim ham, datorchilar ansamblini tuzib, bugunda chet elda bu yunalishda faoliyat olib bormoqda. Koreyaning Seul universitetida bugunda Li xonim O‘zbekistonga tashrif buyurib, dator cholg‘usidan bilim-ko‘nikmalar egalladi.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasini Ro‘zibi Hadjayeva qo‘lida tahsil olib ketgan barcha talabalar o‘z sohalari bo‘yicha ish faoliyatlarini olib borib, yosh datorchilarni tarbiyalab kelmoqdalar. Shogirdi Dono Rahimova Koreyada magistraturani tamomlab, “Tanovor” haqida koreys tilida kitobni nashr qildi.

Yurtimizda dator ijrochiligi san‘ati bo‘yicha Ro‘zibi Hadjayevadek yuqori saviyali va iste’dodli ustozlar tomonidan xozirda dunyo boylab malakali mutaxassislar yetishib chiqishi dator ijrochilik san‘atiga, cholg‘u ijro etish va o‘rganish uslubiyoti rivoji va targ‘ibotiga ijobiy ta’sir etmoqda.

Musiqqa san‘atimiz ravnaqi bugunda professional sohani egallash borasida Ro‘zibi Hadjayeva singari o‘bek ayollarimizning xizmatlari alohida taqsgina sazovor.

Ro‘zibi Hodjayevaga 2021 yili O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan “Esdalik nishoni”, 2022 yili O‘zbekiston davlat konservatoriyasining 85 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga binoan “Sodiq xizmatlari uchun” medali topshirilgan .

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Шукурова Ф.Дутор ижрочилик услубиёти масалаларига доир // Ж. “Musiqqa” 2024, №4, 48-б.
2. Ҳайдаралиева Д.Дутор чолғуси тарихига бир назар // EJSSPC. 2024. №6-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dutor-chol-usi-tarihiga-bir-nazar>: 29.09.2024).

AYOLLARNING ILM-FAN VA TEXNOLOGIYA SOHALARIDA ERISHGAN MUVAFFAQIYATLARI, ULARNING JAMIYATDAGI ROLI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna, Barnoyeva Sevara Uchqun qizi

Buxoro muhandislik-texnologiya institute (Buxoro, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilm-fan sohasida o‘zbek ayollarining jamiyatdagi o‘rni haqida hamda ayollarning tarixiy va zamonaviy ilmiy faoliyati yoritilgan. Maqolada qadimgi va o‘rta asrlarda yashagan o‘zbek olimalaridan tortib, mustaqillik davridagi mashhur ayollarning ilm-fan va ta’lim sohasidagi yutuqlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ayollarning STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida faoliyat yuritishini rag‘batlantiruvchi dasturlar va imkoniyatlar haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ayol, ilm, fan, texnika, jamiyat, soha, ish, bandlik, gender tenglik.

ДОСТИЖЕНИЯ ЖЕНЩИН В ОБЛАСТИ НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ, ИХ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ

Самиева Шахноз Хикматовна, Барноева Севара Учкунувна

Бухарский государственный университет (Бухара, Узбекистан)

Аннотация: В данной статье описывается роль узбекских женщин в сфере науки в обществе, а также историческая и современная научная деятельность женщин. В статье представлена подробная информация о достижениях знаменитых женщин в области науки и образования в период независимости, от узбекских ученых, живших в древности и средневековье. В нем также обсуждаются программы и возможности, которые поощряют женщин работать в областях STEM (наука, технология, инженерия и математика) в Узбекистане.

Ключевые слова: Женщина, наука, технологии, общество, промышленность, труд, занятость, гендерное равенство.

KIRISH. Ilm-fan va ta’lim sohalari jamiyat rivojlanishining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u insoniyatning texnologik va madaniy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Bu sohalarda erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham muhim rol o‘ynab kelgan. O‘zbekiston tarixida ayollar ko‘plab qiyinchiliklarga qaramay, ilm-fanga sezilarli hissa qo‘shganlar va ular hozirgi kunda ham bu jarayonda faol ishtirok etmoqdalar. Ushbu maqolada o‘zbek ayollari ilm-fan sohasida qanday o‘rin egallagani, qanday yutuqlarga erishgani va ularning jamiyatdagi roli qanday o‘zgarib kelayotgani haqida so‘z yuritiladi.

Ilm-fan sohasida ayollarning jamiyatdagi o‘rni tarix davomida sezilarli darajada o‘zgarib keldi. Ayollar o‘z iste’dodlari va izlanishlari bilan jamiyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, uzoq vaqt davomida ular o‘z ishlarining qadrini ko‘rmay kelgan. Biroq, oxirgi asrlarda bu tendensiya asta-sekin o‘zgarib, ayollarning ilm-fan sohasidagi roli tobora kuchayib bormoqda[8].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ko‘plab ayollar fan sohasida kashshof bo‘lishga muvaffaq bo‘lganlar. Misol uchun, Mariya Kyuri radioaktivlik sohasida inqilobiy kashfiyotlar qilgan birinchi ayollardan biri bo‘lgan va Nobel mukofotini olgan ilk ayol sifatida tarixga kirgan. Uning ishlari fizika va kimyo fanlari rivojiga ulkan hissa qo‘shdi. Ada Lavleys esa kompyuter texnologiyalari sohasida dastlabki ishlanmalar qilgan va birinchi dasturlovchi sifatida tanilgan. Lavleysning ishlari hozirgi zamon

kompyuter fanlari rivojida katta ahamiyatga ega. Hozirda u dasturlash olamining ramzi sifatida qadrlanadi[2].

Zamonaviy jamiyatda ayollar ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) kabi sohalarda tobora ko‘proq rol o‘ynashmoqda. Biroq, ayollarning bu sohalarda to‘laqonli ishtirokini ta‘minlash uchun hali ham ko‘plab muammolar mavjud. Ko‘plab davlatlarda ayollar ilmiy lavozimlarga erishish yoki tadqiqotlarni moliyalashtirishda gender tengsizligi bilan duch keladilar. Oxirgi o‘n yilliklarda ko‘plab ilmiy va akademik tashkilotlar ayollarning ilmiy izlanishlarga ko‘proq jalb etilishini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqdi. Masalan, Yevropa Ittifoqi va Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan “STEMdagi ayollar” kabi loyihalar ayollarning bu sohalarga kirib kelishi va muvaffaqiyatga erishishini rag‘batlantiradi.

Ilm-fan tarixidagi ayollar. Ilm-fanning tarixiy rivojlanishida ayollar ishtiroki, ko‘p hollarda erkaklarnikiga nisbatan nisbatan kam e‘tirof etilgan. Biroq, ko‘plab olim ayollar o‘z davrida ilm-fanga katta hissa qo‘shgan, ular orasida qator kashfiyotlar qilgan ayollar bor[7].

Gender tengsizligi va to‘siqlar. Ilm-fan sohasida ayollarning oldida turgan muammolardan biri gender tengsizligi bo‘lib kelgan. Bir vaqtlar ayollar ilmiy karyera tanlashda ko‘plab to‘siqlarga duch kelganlar. Ilmiy maktablar, universitetlar va tadqiqot muassasalarida ayollar erkaklar bilan teng imkoniyatlarga ega bo‘lmagan, bu esa ularning ilmiy yo‘nalishlarda oldinga siljishlarini cheklagan. Hozirgi kunda ham STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohaslarida gender tengsizligi muammosi davom etmoqda. Ayollar bu sohalarga kirib kelishda turli ijtimoiy va institutsional to‘siqlar bilan duch keladilar. Masalan, ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar erkaklarga nisbatan kamroq rahbarlik lavozimlariga tayinlanadi va ilmiy grantlar olishda qiyinchiliklarga duch keladilar[3].

Ayollar va STEM. STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohaslarida ayollarning faolligini oshirish uchun dunyo miqyosida turli dasturlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. Hozirgi zamon texnologiyalarining rivojlanishi bilan ayollarning ushbu sohalarda roli tobora kuchaymoqda[6].

MUHOKAMA. O‘zbekiston tarixida ham ayollar ilm-fan, ta‘lim va madaniyat sohaslarida katta hissa qo‘shganlar. O‘zbek ayollari asrlar davomida turli ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy to‘siqlarga qaramay, o‘z salohiyatini namoyon etib, jamiyat rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Bugungi kunda O‘zbekiston ilmiy va texnologik sohalarda faoliyat yuritayotgan ayollarning ko‘pligi ularning o‘rni va ta‘siri tobora ortib borayotganidan darak beradi[8].

Tarixdagi o‘zbek olimlari va ziyolilari O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlardagi ayollari orasida ilmiy va ma‘rifiy faoliyat bilan shug‘ullangan mashhur shaxslar ko‘p bo‘lgan. Garchi tarixda ayollarning ilmiy faoliyati to‘liq qayd etilmagan bo‘lsa-da, ular orasida o‘z davrining ilg‘or ayollari bo‘lgani ma‘lum. Ular fan, adabiyot va madaniyatning rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

Nodira Begim – XIX asrning taniqli shoira va ma‘rifatparvarlaridan biri bo‘lib, madaniy-ma‘rifiy ishlarga katta e‘tibor bergan. U adabiyot orqali ayollarning o‘z huquqlarini himoya qilishga chaqirgan va ilmiy bilimlarni qadrlashni targ‘ib qilgan.

Mustaqillik davridagi ayollar O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ayollarning ilm-fan va ta‘lim sohaslaridagi faoliyati ancha kuchaydi. O‘zbek ayollari milliy rivojlanish yo‘lida o‘zlarining yetakchilik qobiliyatlarini namoyon eta boshladilar. Bugungi kunda ko‘plab o‘zbek olimlari xalqaro miqyosda tan olingan kashfiyotlar va ilmiy ishlanmalar bilan mashhur.

Habiba Aripova – O‘zbekistonning birinchi ayol neyroxirurgi sifatida tanilgan olim. U tibbiyot sohasida katta yutuqlarga erishgan va ko‘plab bemorlarga yordam bergan. Habiba Aripovaning ilmiy faoliyati nafaqat O‘zbekistonda, balki xalqaro miqyosda ham e‘tirof etilgan.

Dilbar Abdullayeva – fizika-matematika fanlari doktori, O‘zbekistonning mashhur matematik olimasi. U matematik tadqiqotlar va ta‘lim yo‘nalishidagi faoliyati bilan tanilgan. Abdullayeva O‘zbekiston milliy universiteti professorlaridan biri bo‘lib, yosh olimlarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga katta hissa qo‘shgan.

O‘zbekistonda qizlar uchun STEM dasturlari – O‘zbekistonda qizlar va yosh ayollarning STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida o‘qishini va ishlashini rag‘batlantiruvchi dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar orqali ayollarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish va ularni kelajakdagi yetakchi olimlar sifatida tayyorlash maqsad qilinadi.

NATIJALAR. O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan sohasida tutgan o‘rni sezilarli darajada o‘sib borayotgani ko‘zga tashlanmoqda. Tarixiy jarayonlar davomida ayollar ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelishganiga qaramay, ular muhim ilmiy kashfiyotlar qilishgan va jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shganlar. Bugungi kunda O‘zbekistonda ko‘plab ayollar xalqaro miqyosdagi ilmiy va texnologik yutuqlarga erishmoqda. Maxsus dasturlar va tashabbuslar orqali ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash jarayoni jadallashmoqda, xususan STEM sohalarida ayollarning ishtiroki ortib bormoqda. Bunga qaramay, ayollarning ilmiy sohalarida faoliyat ko‘rsatishini yanada kengaytirish uchun jamiyatda gender tengligini mustahkamlash va ularning ilmiy izlanishlariga ko‘proq imkoniyatlar yaratish zarurligi ko‘rinib turibdi. O‘zbekiston ayollari o‘z salohiyatini namoyon etish va ilm-fan taraqqiyotiga yangi yutuqlar olib kelish uchun katta potensialga ega[4].

Jumladan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, manfaatlarini muhofaza qilish va ularning oiladagi va umuman jamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan huquqiy asoslar shakllantirilgan. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta‘minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlashga xizmat qiluvchi bir keyingi olti yilda 40 dan ziyod qonunlar va qonun osti xujjatlari qabul qilindi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining Yangi O‘zbekiston Strategiyasi nomli asarida “Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e‘tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta‘minlashdir. Bu o‘z navbatida, «Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmi, ma‘rifatli va salohiyatli qilish» degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish” kerakligini alohida ta‘kidlab o‘tganlar. Ma‘lumki, 2016 yil yildan boshlab, har yili 11 fevral kuni BMT qaroriga binoan “Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni” sifatida nishonlanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad, xotin-qizlarning ta‘lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e‘tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi [1].

XULOSA. O‘zbekiston ayollari ilm-fan, ta‘lim va madaniyat sohalarida tobora katta ta‘sirga ega bo‘lib bormoqda. Ular xalqaro miqyosda tan olingan yutuqlarga erishmoqda va jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda. Ayollarning ilmiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va ularning teng imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash mamlakatning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun muhimdir. O‘zbek ayollari ilm-fan va texnologiya sohalarida yetakchi bo‘lish uchun zarur

qobiliyat va imkoniyatlarga ega, va bu jarayon davomida ularning roli yana ham oshib borishi kutilmoqda.

Shuningdek, ko‘plab universitet va ilmiy markazlar ayollar uchun maxsus grantlar, stipendiyalar va tadqiqot dasturlari taklif qilish orqali ayollarni ilmiy faoliyatga jalb etishga harakat qilmoqda. Bu turdagi tashabbuslar ayollarga ilm-fanda o‘z o‘rnini topishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ayollarning ilmiy fanlardagi o‘rni yildan-yilga oshib bormoqda, ammo hali ham erishilishi kerak bo‘lgan ko‘plab marralar mavjud. Jamiyatning rivojlanishi uchun ayollar va erkaklar teng imkoniyatlarga ega bo‘lishi, ayollarning iste’dod va salohiyatlarini to‘liq namoyon eta olishlari zarur. Bu nafaqat ilmiy kashfiyotlar sonini oshiradi, balki ilm-fanning har tomonlama rivojlanishiga katta turtki beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 250 бет.
2. Шафранова ОИ. Образование, общественная и профессиональная деятельность женщин во второй половине XIX-начале XX в. Ставрополь: СГУ. 2004.
3. Oldham, G. 1997. “Gender Equity in Science and Technology: Does it Matter?”, Keynote presentation at the Conference on Gender, Science and Technology, October 26, 2000, Montevideo, Uruguay, Available at: <http://gab.wigsat.org/oldham.html>
4. Samiyeva S. Янги Ўзбекистон илм-фан тараққиётида аёлларнинг ўрни ва роли //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2023. – Т. 31. – №. 31.
5. Petersen, A. C. 1995. “Women & Science, Celebrating Achievements, Charting Challenges”, Available at: <http://www.nsf.gov>. Encyclopedia Britannica 2005, Available at: <http://www.britannica.com/>
6. Nath, V. 2001. “Empowerment and Governance through Information and Communication Technologies: Women’s Perspectives”, Inform Lib. Rev., Vol 33, pp 317-339.
7. <https://uza.uz/oz/posts/ilm-fan-taraqqiyotida-ayollarning-orni>
8. Самиева Ш. Х. ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСКОГО МАСТЕРСТВА ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВЫСШЕЙ ШКОЛЫ //ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБЛАСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ДИЗАЙНА И ТЕХНОЛОГИЙ: ОПЫТ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ. – 2023. – С. 215-218.

SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

Duschanova Nilufar Sabirbayevna

Urganch texnologiya universiteti (Urganch, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari, shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatini shakllantirishning murakkab jarayoni, har tomonlama pedagogik yondashuv axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash, rahm-shafqatni tarbiyalash va odamlarga to'liq hayot kechirish imkoniyati, o'z-o'zini aks ettirish va empatiya orqali hissiy intellektni rivojlantirish haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy madaniyat, pedagogika, emotsional savodxonlik, qo'llab-quvvatlovchi muhit, adabiyot, tanqidiy fikrlash, axloqiy xulq-atvor.

Kirish:

Shaxsning ma'naviy-axloqiy madaniyatini yuksaltirish – umrboqiy faoliyat, erta bolalikdan boshlanib, butun umr davom etadigan murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Shaxsning qadriyatlar, e'tiqodlari va xulq-atvori bilan chambarchas bog'langan bu jarayon uning dunyo haqidagi tushunchasini, undagi o'rnini shakllantiradi. Pedagogika bu taraqqiyotni yo'lga qo'yishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, axloqiy xulq-atvorni tarbiyalash, empatiyani tarbiyalash, maqsad va ma'no tuyg'usini tarbiyalash uchun asos yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishda qo'llab-quvvatlovchi muhit asosiy hisoblanadi. Bolalar o'zlarining his-tuyg'ularini o'rganish, ishonchni mustahkamlash va empatiyani o'rganish uchun o'zlarini xavfsiz his qilishlari kerak. Ochiqlik, qabul qilish va hurmatni rivojlantiradigan sinf yoki uy muhiti bolalarga o'z fikrlarini erkin ifoda etish va tegishlilik tuyg'usini rivojlantirish imkonini beradi. Tengdoshlar, o'qituvchilar va oila a'zolari bilan mustahkam munosabatlar o'rnatish axloqiy xulq-atvorni yanada rivojlantiradi, bolalarni boshqalarning istiqbollari va ehtiyojlarini hisobga olishga undaydi. Turli madaniyatlar, qadriyatlar va e'tiqodlar bilan tanishish ufqlarni kengaytiradi, tanqidiy fikrlashni va dunyoni nozik tushunishni rivojlantiradi.

Ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning zahirida qadriyatlar va e'tiqodlarni tarbiyalash yotadi. Bolalar kuzatish va taqlid qilish orqali o'rganadilar, bu esa o'qituvchilar va ota-onalarning halollik, adolat, hurmat va mas'uliyatni doimiy ravishda namoyon etishlarini talab qiladi. Hikoyalar, munozaralar, rol o'ynash va axloqiy dilemmalar orqali mehribonlik, rahm-shafqat, jasorat va halollik kabi qadriyatlarni aniq o'rgatish axloqiy xatti-harakatlar uchun aniq asos yaratadi. Tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, so'roq qilish, axloqiy dilemmalarni o'rganish va o'ylangan munozaralarda ishtirok etish bolalarga o'zlarining axloqiy asoslarini rivojlantirishga yordam beradi, ularning to'g'ri va noto'g'ri tushunchalari asosida ongli qarorlar qabul qiladi.

Natijalar:

4. Базарова Д. “Ўзбекистонда хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш – давр талаби”. –Тошкент: ТДЮУ, 2019.
5. Абдурауф Фитрат. Семья или процедуры управления семьей. - Ташкент: Чулпон, 2019.
6. Информация Госкомстата Республики Узбекистан, 2019 год. // www.stat.uz.

LEGAL FOUNDATIONS FOR ENSURING ACTIVIZATION OF WOMEN’S PERFORMANCE IN THE EDUCATION AND RESEARCH ACTIVITIES

Kadirbekova Durdona Khikmatullaevna, Taktasheva Dinara Rinatovna

Branch of Russian State University of Oil and Gas (NRU) named after I.M. Gubkin in
Tashkent

Abstract: This article is devoted to the consideration of legal framework worked out to ensure active involvement of women in the education and research activities. Having analyzed statutory acts aimed at ensuring the rights and interests of women, the authors have developed relevant conclusions.

Key words: government policy, gender equality, financial aid, incentives.

Currently women participate in public administration, make the most significant political decisions, develop public activities, as well as implement large business projects. As history illustrates, caring mothers, wives, daughters played a vital role in the development of many great personalities. In this regard, the priorities of the government policy in the Republic of Uzbekistan have become ensuring the rights and interests of women, gender equality, protection of the family, motherhood and childhood. Furthermore, comprehensive measures are being undertaken to provide girls and women with the opportunity to engage in business and entrepreneurship, develop farms, and implement advanced research developments and innovations. Jobs are being created for women, their living and working conditions are being improved.

The Republic of Uzbekistan has already commenced financial support for education and enhancing the potential of women. The fourth priority area of the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026 - implementing a fair social policy, developing human capital - defines the measures required to create comprehensive opportunities for women in the republic. It should be noted that recently Uzbekistan has created a solid legal framework for ensuring the rights and freedoms of women, providing special benefits when entering higher education institutions and being involved in entrepreneurial activities. In addition, in reliance upon the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to further accelerate work on systemic support for families and women”, starting from the 2022-2023 academic year in order to create favorable conditions for getting education, supporting the systemic improvement of the research potential and qualifications of women, the following tasks have been identified starting from the 2022/2023 academic year:

- annually allocate from the State Budget minimum 1.8 trillion UZS of resource funds to commercial banks for the purpose of financing interest-free educational loans for a period of 7 years to pay for fee-based contracts of women studying in higher educational institutions, technical schools and colleges, including extramural education;

- annually allocate from the State budget minimum 200 billion UZS to finance, on a non-refundable basis, installments (for fee-based education) for all women studying in the master’s program at state higher educational institutions;

- through the “El-Yurt Umidi” Foundation allocate annually additional grants for study in foreign higher education institutions to 50 women - for bachelor’s degree programs, 10 women - for master’s degree programs;

- annually finance on a non-repayable basis study contracts for 150, a total of 2100 female students (fee-based study) from socially needy families, orphans or those left without parental care, at the expense of additional sources of local budgets;

- annually allocate minimum 300 targeted quotas for women in doctoral programs at the public research entities or state higher education institutions.

Moreover, the Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan “On measures to pay contract fees to women studying for a master’s degree in the public higher education institutions” adopted on August 15, 2022, serves as a good incentive for women to have the opportunity to study for a master’s degree. In compliance with this Resolution, women are provided with interest-free loans to pay the amount of fee for study.

In addition, large-scale measures are being implemented to rise to a qualitatively new level the activity of activation of women’s performance in all spheres of the economic, political and social life of the country, providing comprehensive assistance in training, mastering professional skills and ensuring employment, and further supporting women’s entrepreneurial initiatives. In particular, in accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 5, 2021 № PP-5020 “On measures to further improve the system of support for women and ensure active participation in the life of society”, in order to establish entrepreneurial activities, women can be allocated loans in the amount of up to 33 million UZS for a period of up to 3 years, including a grace period of up to 6 months, at a rate of 14 percent per annum.

Legal guarantees of women's rights to work have also been created, in particular, according to the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to further strengthen guarantees of labor rights and support for women’s entrepreneurial activity”, it is prohibited to terminate, at the initiative of the employer, an employment contract concluded for an indefinite period in connection with women reaching retirement age or the emergence, in accordance with the law, of the right to an old-age pension until women reach the age of 60, as well as a fixed-term employment contract before the expiration of its term.

In New Uzbekistan, an atmosphere of intolerance towards oppression of women is created, and gender discrimination is not admissible, as violence against women is an obstacle to achieving progress in the field of equality, development and peace, as well as ensuring women’s rights. This is also confirmed by the fact that the main principle of the Sustainable Development Goals is to leave no one behind, and this cannot be achieved without eradicating violence against women.

In New Uzbekistan, the atmosphere of intolerance towards oppression of women is created, and gender discrimination is not admissible, as violence against women is an obstacle to achieving progress in the field of equality, development and peace, as well as ensuring women’s rights. This is also confirmed by the fact that the main principle of the Sustainable Development Goals is to leave no one behind, and this cannot be achieved without preventing violence against women.

Reference

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022, №PD-60 “On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022-2026”.

2. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 7, 2022, №PD PP-87 “On measures to further accelerate work on systemic support for families and women”, <https://lex.uz/docs/5899500>

3. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 5, 2021, №PP-5020 “On measures to further improve the system of support and ensuring the active participation of women in society”, <https://lex.uz/docs/5320584>

4. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated March 7, 2019, №PP-4235 “On measures to further strengthen guarantees of labor rights and support for women’s entrepreneurship”, <https://lex.uz/docs/4230938>

5. Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated August 15, 2022, №447 “On measures for the payment of fee-based contractual funds to women studying for a master's degree in state higher educational institutions” , <https://lex.uz/ru/docs/6158578>.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ РАЗВИТИЯ УМЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАТЬ МЕТОДЫ ИНДУКЦИИ И ДЕДУКЦИИ У СТУДЕНТОВ-ЭКОНОМИСТОВ.

Темирова Светлана Владимировна

Ташкентский государственный транспортный университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: В статье рассматриваются важные факторы развития способностей студентов сегодня, ориентация на экономическую профессию, способы помощи им в выборе профессии в соответствии с их интересами, склонностями, способностями и развитыми способностями, а также эффективность и анализируется уникальность использования дедуктивных и индуктивных методов.

Ключевые слова: дедукция, индукция, направленность, интерес, склонность, способность, профессия.

Сегодня одним из важных вопросов является ознакомление студентов с информацией о профессиях и их потребностях в отраслях (экономической, промышленной, транспортной и других), а также о потребностях рынка труда в кадрах, потребностях кадров для личности и направления их в профессию.

С целью определения интересов, склонностей и врожденных способностей студентов с ними проводятся различные психолого-педагогические методы диагностики. Объединение этих методов в единую систему, т.е. создание их комплекса, предполагает облегчение использования этих методов в будущем. Через «психолого-педагогические диагностические методы, используемые при ориентации студентов в профессию». Для того, чтобы человек улучшил свою жизнь, во-первых, он должен этого хотеть, во-вторых, он должен быть к этому готов и опять-таки должен работать для достижения этого.

Подростковый возраст – период самосознания и формирования мировоззрения. «Кто я?», «Какой я человек?», «К чему я стремлюсь?» Естественно задуматься о таких вопросах.

Самосознание – это открытие своего внутреннего мира, целостное представление о нем, своего эмоционального отношения к себе, оценка своих психических, моральных и волевых качеств (самооценка).

Если обратить внимание на схему, представленную ниже, то внешние и внутренние воздействия на осознанный выбор профессии совпадут, сделают человека ориентированным на профессию и приведут к определению профессионального плана. При этом уникальность индуктивного и дедуктивного методов заключается в следующем: Процесс апробации дедуктивного метода обучения включает в себя следующие основные этапы: Первый этап – идентификация. Он заключается в диагностике состояния изучаемого процесса формирования избранных профессиональных компетенций экономиста-менеджера в вузе и возможных методов его совершенствования. Этап определения включает в себя разработку критериев, уровней, показателей оценки эффективности обучения, а также выбор с этой целью исходного мотивационного уровня обучающихся, направления и оперативного уровня развития умений обучающихся. разработка собственных методик проведения диагностических процедур, подбор контрольных и экспериментальных групп.

Второй этап – формирующий. Основной основой формирующего этапа эксперимента является технологическое изменение процесса изучения формирования профессиональных компетенций экономиста-менеджера. На данном этапе осуществляется выбор содержания

курса «Экономическая теория», разработка уникальной педагогической технологии, основанной на дедуктивном методе обучения, и порядка ее дальнейшего внедрения как фактора эффективного формирования профессиональных компетенций учащихся. указаны экономисты-менеджеры вузов. в общем педагогическом процессе подготовки экономистов-менеджеров.

Третий этап. Итоговая проверка эффективности процесса развития профессиональных компетенций экономиста-менеджера посредством дедуктивного метода обучения осуществляется на контрольном этапе эксперимента, где оцениваются уровни навыков студентов контрольной и экспериментальной групп. определенный. измеряли, анализировали, обобщали результаты эксперимента и определяли основные направления дальнейшей работы по совершенствованию изучаемого процесса.

В качестве вывода стоит отметить, Социально-психологические явления в группах (микросреде). К ним относятся психологическая гибкость в узких группах, межличностные отношения в группах, групповая ситуация, положение лидеров и лидеров в группе, проблемы типов групп (объединение, корпорация, коллективы), соотношение формальных и неформальных групп, количественная ограниченность групп. малые группы, уровень и причины групповой сплоченности, единство людей в группе - способность понимать друг друга, групповые ценности и многие другие подобные вопросы окажут положительный эффект.

REFERENCES

1. Тихомиров О.К. Психология: Учебник / Под ред. О.В. Гордеевой. – М.: Вўсшее образование, 2006. – 538 с.
2. Психология: Учебник. / В.М. Аллахвердов, С.И. Богданова и др. Отв. ред. А.А. Крулов. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005. – 752 с.
3. Немов Р.С. Психология: Учебник. – М.: Вўсшее образование, 2005. – 639 с.

АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙ АСАРЛАРИДА ХОТИН -ҚИЗЛАР ТАРБИЯСИ МАСАЛАСИ

Умарова Рўзигул Шералиевна

Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация. Мақолада Беруний асарларида Инсон унда ахлоқийлик мезонлари, яхшилик ростгўйлик, олижаноблик, мурувват, меҳр-шафқат, дўстлик ва жамоатчилик каби фазилатлар, комил инсон, ватанпарварлик, ҳалқ, миллат ҳаёти, унда хотин -қизларнинг тарбияси масаласи, Шунингдек, ахлоққа зид фазилатлар, миллат таназзулига олиб келувчи омиллар, умуминсоний нормалар, ҳаётнинг азалий қонунлари, қизлар ахлоқи миллий маънавий борлиқнинг ўзаги масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Беруний, Инсон, хотин-қизлар, ахлоқ, яхшилик, ростгўйлик, олижаноблик, мурувват, меҳр- шафқат, дўстлик, жамоатчилик, фазилат, комил инсон, ватанпарварлик, ҳалқ, миллат, тарбия.

Дарҳақиқат, Буюк аллома Абу Райхон Беруний асарларини ўрганар эканмиз орадан Ўн бир аср ўтган бўлсада худди бугунги кун учун айтилгандек, Хусусан, Беруний ёзган “Ёдгорликлар”, “Ҳиндистон”, “Минерология”, “Китоб ас Сайдана”, “ал-Қонун ал-Масъудий”, “Геодезия”, “Мақоллар”, “этикодлар ва динлар ҳақида”, “Қароргоҳ ва омонат жой ҳақида сўз” ва бошқа асарларида ахлоқ, диний этикод, урф-одатлар, оила масаласи, хотин-қизлар тарбияси масалаларига алоҳида эътибор берган.

Бугунги кунда Учинчи Ренессанс бунёдкорларини тарбиялаш асосий давлатимиз сиёсати даражасида қаралаётган бир даврда Буюк аллома Беруний ҳам инсонни ҳар томонлама камол топишини, энг аввало, меҳнат қилиб ўқиб, маълумот ва ҳунар эгаси бўлиш билан боғлиқ деб билган. Унинг фикрича, инсон ақли ва маърифатлилиги билан баркамол ва расодир. Ақлий қобилиятлар одамнинг кундалик эҳтиёжлари асосида вужудга келса, ахлоқий масалалар тарихий тараққиёт, одамларнинг ўзаро муносабатлари билан чамбарчас боғлиқ ҳолда пайдо бўлади ва ривожланади. Беруний сўзлари билан айтганда, инсон ердаги бунёдкор ва яратувчи кучдир. Шунингдек, у инсоннинг ижобий ва салбий томонларини бирма-бир таъриф этади. Масалан, олим инсондаги яхшилик ростгўйлик, олижаноблик, мурувват, меҳр-шафқат, дўстлик ва жамоатчилик каби фазилатларни улуғлайди. Шу фазилатларни ўзида мужассамлаштирган инсонгина комил инсондир дейди. У ўз эли ва юрти учун бекиёс наф келтириши мумкинлигини алоҳида таъкидлайди[4].

Ахлоқийлик инсоннинг, миллат ҳаётининг барқарорлик шартидир. Ахлоққа зид фазилатлар инсон, ҳалқ, миллатни таназзулга олиб келади, уларни умуминсоний нормаларга, умуман, ҳаётнинг азалий қонунларига қарши қўяди. Масалан, Беруний шунинг учун ҳам ахлоқ миллий маънавийликнинг ўзаги ҳисобланади.

Масалан, “Минерология” асарига кириш қисмида оталарнинг балоғатга етган қизларини турмушга чиқариш пайтида берган ҳаётий маслаҳатларини келтиради. Оиладаги тинчлик, тотувлик аёллар зиммасига тушишини таъкидлайди ва шундай ёзади: - Эй қизим! Сен ўрганган уйингдан кетиб, нотаниш хонадонга тушмоқдасан. Сен бўлажак куёвингнинг ҳамма хислатларини билмайсан. Сен ер бўл, у эса осмон бўлади. Демак, сен у билан шундай йўл тутки, унинг олдида ер каби камтар бўлсанг, у осмон каби олийжаноб бўлади. Осмон шифобахш ёмғири каби ерни кўқартиргани каби у ҳам ўз меҳру-шафқати билан сени хушнуд этади. Яна сен унга канизак бўлсанг, у сенга хизматчи бўлади[5].

Эринг сендан фақат юмшоқ ва ширин сўзларгина эшитсин, ярамайдиган ёки эски либосда ёки юзларингга оро берилмаган ва сочларинг тартибга солилмаган ҳолда унинг олдида ўтирма.

Беруний ҳам ота-оналарнинг қизларга маслаҳатида юксак ахлоқни кўрсатиб ўтади. Буни унинг ўз асарларида келтирган мисолларидан билса бўлади. Унинг ёзишича, Абдулла ибн Жаъфар қизини эрга бераётганида унга бундай деган: “Рашқдан сақлангал. У талокнинг калитидир. (Эрингга) тез-тез танбеҳ қилишни сенга тақиқлайман. Чунки танбеҳ нафрат уйғотади. Ўзингни безаб юргин. Бунинг учун энг яхши восита сурмадир. Яна хушбўй атирлардан фойдалангин. Уларнинг ичида энг яхшиси - сувдир”[1].

Беруний ота-оналарнинг қизларига берган бундай оқилона маслаҳатларини тўласига маъқуллаган. Аслида булар ҳаммаси Берунийнинг маслаҳатидир. Аммо олим кўпроқ аёлларни кўзда тутиб маслаҳат берган[2]. Беруний ижодига мурожаат қилсак, шунга ўхшаш фикрни “Ҳиндистон” асарида ҳинд халқининг урф-одатлари, ахлоқий қарашлари ҳақида унинг фикр юритганини, хусусан ҳиндча китобларда баён этилган еттинчи афсонавий оролдаги халқ ҳаётини қисқача тасвирланиши эътиборимизни ўзига тортади. “Улар бир жинс бўлиб яшайдилар, оролларда қарама-қаршилик йўқ, қаҳатчилик кўрмайдилар ва қаримайдилар. Истаган нарсалари олдиларида мухайё бўлиб туради ва бир-бирлари билан тотув бўлиб, роҳатда яшайдилар, яхшиликдан бошқани билмайдилар, гўё улар жаннат боғида истикомат қиладилар. Уларга ҳусн ва узок умр берилган, бир-бирларидан ортиқча ва кам жойлари йўқ, ҳаммаси бирдай. Уларда хизматкорлик, хўжайинлик, гуноқ қилиш, бир-бирини кўролмаслик, қарама-қаршилик, ортиқча гап-сўзга бориш, бу оролда яшовчилар бир-бирлари билан тенг”[3]. Бундан Беруний кишиларнинг тенглиги, жамоа бўлиб яшашининг сабаби, ёмонлик, душманлик нима эканлигини билмаслигидадир, деб хулоса чикарган[6].

Хулоса ўрнида: Беруний илм кишиларнинг онгини, ақлини барча ёмонликлардан тозалайди, деган хулосада эди. Ёмонликларни илм нури билан куйдириб ташлаш ва шу йўл билан яхшилик тантанасига эришиш мумкин деб ҳисоблайди. Унинг ана шу фазилатни тарғиб қилиши ва шу йўл билан яхшилик тантанаси учун курашиши катта бир жасоратдир. Унинг фикрича, ғазаб ва илмсизлик инсон учун энг кучли ва энг ҳалокатли душмандир. Разиллар, кишилар овқатланганда қандай лаззат ва роҳатлансалар, ўч олганда ҳам шундай роҳатланишга ўрганган.

Адабиётлар:

1. Беруний. Танланган асарлар. 2-том. 1965 й. 101-102-бетлар.
2. Булгаков П. Жизнь и труды Беруни. Т. 1972 й. 189-бет.
3. Р.Умарова. Урф-одатлар ва халқ байрамлари. “Мулоқот”. 2001 й. 12-бет.
4. А.Қаюмов. Беруний, Ибн Сино. Ёш гвардия. 1987 й. 72-бет.
5. Беруний. Минерология. М. 1963 й. 119-бет.
6. Беруний. Танланган асарлар. II-том. 1965 й. 101-102-бетлар.

ИЖТИМОЙ ДЕТЕРМИНИЗМ ВА МАСЪУЛИЯТ ДИАЛЕКТИКАСИ

Хайдаров Абдор

Тошкент давлат транспорт университети (Тошкент, Ўзбекистон)

Аннотация: мақолада масаланинг тарихи, Конт социологияси, марксизм, структурализм, функционализм таълимотларида ижтимоий детерминизмнинг тизимли ёндашувга айланиши, экзистенциализм, постмодернизмда эса ижтимоий детерминизмга нисбатан танқидий нуқтаи назар шакллانганлиги, Янги Ўзбекистондаги жадал ижтимоий ўзгаришлар шароитида ижтимоий детерминизмнинг аҳамияти таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: детерминизм, ижтимоий детерминизм, ирода эркинлиги, иқтисодий детерминизм, тарихий материализм, структурализм, функционализм, экзистенциализм, постмодернизм, ижтимоий нормалар ва институтлар

Ижтимоий детерминизм иқтисодий, маданий ва тарихий шароитлар жамият ва унинг институтлари ривожланишига қандай таъсир қилишини тушунтиради. Ушбу назария муайян шароитларда жамиятдаги ўзгаришларнинг муқаррарлигини кўрсатиб, ижтимоий ислохотлар зарурлигини асослаш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин. Бу ҳукумат ва жамиятга келажакдаги муаммоларга яхшироқ тайёргарлик кўриш ва уларни бошқаришга ёрдам беради. Ижтимоий детерминизмнинг илмий назарияси ижтимоий ўзгаришларни бошқаришнинг муҳим воситасига айланиши ва глобаллашув ва ички ўзгаришлар шароитида Ўзбекистоннинг барқарор ривожланишига ҳисса қўшиши мумкин. Ушбу мақолада масаланинг тарихи, асосий назарий ёндашувлар кўриб чиқилади.

Дастлаб муаммонинг тарихи ҳақида сўз юритамиз. Ижтимоий детерминизм тушунчаси XVIII аср маърифат фалсафасидан келиб чиққан. Тўғри, ижтимоий детерминизм ғояларининг куртаклари антик давр ижтимоий фалсафасида, шарқ фалсафаси тарихида мавжудлигидан кўз юмиш нотўғри бўлар эди ва у алоҳида тадқиқот мавзуси бўлишини эътироф этамиз. Ушбу мақолада эса биз асосан ғарб анъанасидаги ижтимоий детерминизм ғояси ҳақида фикр юритамиз. Бу даврда файласуфлар инсон хулқ-атвори ва ижтимоий ҳодисаларни тушунтиришда ақл ва илмий билимларнинг ролига эътибор қарата бошладилар. Жан-Жак Руссо [1:386] ва Шарль Монтескье [2:302-303] биринчилардан бўлиб ижтимоий институтлар ва қонунларнинг инсон хулқ-атворида таъсирига эътибор қаратдилар. XIX - асрда социологиянинг ривожланиши билан ижтимоий детерминизм янада асосли ва тизимли ёндашувга айланди. Социологиянинг асосчиси Огюст Контнинг таъкидлашича, ижтимоий ҳодисаларни илмий усуллар билан ўрганиш мумкин. Унинг ижтимоий статика ва ижтимоий динамика ҳақидаги ғоялари ижтимоий детерминизм соҳасида кейинги тадқиқотлар учун асос яратди. [3:135-136]. Бу ёндашувда табиий фанлар соҳасида қўлланилган детерминизм сингари илмий тамойиллар ижтимоий соҳага ҳам тадбиқ этилиши асосланади. Марксизмдаги тарихий материализм тушунчаси барча ижтимоий ўзгаришлар иқтисодиётдаги ўзгаришларга асосланганлигини ва синфий кураш тарихий тараққиётнинг ҳаракатлантирувчи кучи эканлигини таъкидлайди. Тўғри, ҳозирги кунда унинг бирмунча схематик тарзда эканлиги, чекланганлиги ҳам аён бўлди. [4]. Зеро, ўз вақтида Поль Лафарг марксча ижтимоий детерминизмни иқтисодий детерминизм билан тенглаштирганлиги бежиз эмас эди. [5:222].

Ҳозирги замон ижтимоий фалсафаси ва социологиясида ижтимоий детерминизм кенг қабул қилинишига қарамай, турли назарий йўналишлар томонидан танқид қилинди.

Танқиднинг асосий нуқталаридан бири бу шахс эркинлиги ва ижодига эътиборнинг етишмаслиги. Жан-Поль Сартр каби экзистенциалистларнинг таъкидлашича, инсон танлаш эркинлигига эга ва унинг хатти-ҳаракатларини ижтимоий тузилмалар тўлиқ аниқлай олмайди. Ижтимоий детерминизм - бу ижтимоий тузилмалар ва шароитлар одамларнинг ҳуқ-атвори ва ҳаётига қандай таъсир қилишини яхшироқ тушунишга имкон берадиган муҳим тушунча. Янги Ўзбекистон концепцияси доирасида ҳар бир фуқаро ўз тақдирини умумий ижтимоий-ҳуқуқий нормалар доирасида белгилаш имкониятига эга бўлганда, шахсий жавобгарлик ва танлаш эркинлиги ғояси биринчи ўринга чиқади. Шундай қилиб, ижтимоий детерминизм тамойилларини қўллаш мураккаб ижтимоий жараёнларни чуқурроқ тушунишга ёрдам беради ва Ўзбекистонни замонавий шароитда муваффақиятли ривожлантириш ва модернизация қилиш учун шароит яратади.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Философский энциклопедический словарь. М.: “Энциклопедия”, 1983. С.386.
2. Современная западная социология. М.: Политиздат, 1990. С.302-303.
3. Аберкромби Н., Хилл С., Тернер Б.С. Социологический словарь. М. “Экономика”, 1999. С.135-136.
4. Маркс К., Энгельс Ф. «Манифест Коммунистической партии». Издательство «Азбука», 2017. 64 с.
5. Лафарг П. Экономический детерминизм Карла Маркса / Перев. с франц. П. Э. Давыдовой; — 2-е изд. — Москва - Ленинград : Московский рабочий, 1928. 222 с.

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В ОПЕРЕ «САДОКАТ» РУСТАМА АБДУЛЛАЕВА

Умида Касимова

Государственной консерватории Узбекистана

Аннотация: узбекская поэтесса Зульфия Исроилова оставила глубокий след в литературном наследии, ее образу - основоположнице современной узбекской литературы посвящена опера Рустама Абдуллаева «Садокат».

Ключевые слова: Зульфия, Хамид Алимджан, поэзия, узбекская литература, музыка, опера, лирика.

Любви и правды огненная сила,
Казалось, двигала моим пером,
Ни горя, ни веселья не таила,
Я честно говорила обо всем.

Эти стихотворные строки принадлежат одной из самых лиричных поэтесс XX века Зульфие Исроиловой, которую по праву считают основоположницей современной узбекской литературы.

Яркая художник, тонкий знаток души простого человека, поэтесса работала в различных жанрах: поэмы, баллады, элегии, лирические стихотворения, рассказы, очерки, публицистические статьи. Поэтесса никогда не останавливалась на достигнутом, стремясь освоить новые знания она очень много работала, поступила в аспирантуру, где изучала классику мировой литературы, философию Востока и Запада, осваивала многообразные формы восточной поэзии. Ее стихи «Хаджар», «Свободная девушка», «Мы», «Я любила тебя», «Песня восхождения» полюбились читателю.

Она переводила на узбекский язык классиков мировой литературы: Александра Пушкина, Михаила Лермонтова, Николая Некрасова, Лесю Украинку, Саломею Нерис, Марварид Дилбози, Амриту Притам, Мирзо Кемпе и других.

В своем творчестве Зульфия воспевала культуру узбекского народа, его историю, многовековые, семейные традиции. Особое место отведено образу матери, причем в двух ее ипостасях: Родина-мать и мать-хранительница очага.

Молодость поэтессы пришлась на тяжелые военные годы и несмотря на то, что Ташкент находился в глубоком тылу, Зульфия видела и осознавала человеческую трагедию через судьбы эвакуированных женщин и детей. Стихотворения тех лет носят ярко выраженный патриотический характер и посвящены борьбе за мир и дружбе народов. Вместе с тем, поэзия Зульфии овеяна трепетным чувством любви к природе и человеку как неотъемлемой, высшей части самой природы. В ее стихах природа предстает в светлых тонах, ярких красках и образах. Среди наиболее известных стихотворений писательницы можно выделить: «Хулькар» (1947), «Я пою зарю» (1950), сборники стихотворений «Близкие сердцу моему» (1958), «Сердце в пути» (1966), «Дар долины» (1966), «Моя весна» (1967), «Водопад» (1969), «Радуга» (1976). Также многие свои произведения Зульфия посвящала своему горячо любимому супругу, узбекскому поэту, драматургу, литературному критику, общественному деятелю Хамиду Алимджану.

История любви и верности талантливых поэтов XX века Зульфии и Хамида Алимджана запечатлена в опере «Садокат» известного композитора Узбекистана Рустама Абдуллаева. Опера была посвящена 100-летию со дня рождения Народного поэта Узбекистана Зульфии Исраиловой.

Сюжет оперы происходит в Ташкенте в 1930-1970-е годы. Встреча главных героев, проживших вместе яркую, творчески насыщенную жизнь, их дружба с поэтами Гафуром Гулямом и Ойбеком, а также тяжелые испытания, выпавшие на долю Зульфии после гибели мужа, все это – основа сюжета произведения Р. Абдуллаева, созданного по либретто Амана Матчона. В качестве режиссера-постановщика выступил народный артист Узбекистана и Азербайджана Фирудин Сафаров.

В начале 90х годов была создана первая редакция оперы «Садокат», поставленная в Самаркандском театре оперы и балета. Небольшие оркестровые и хоровые коллективы, работавшие в театре, предопределили камерность оперы и, в связи с этим, отсутствие больших развернутых сцен. Возможно, этим и объясняется несколько скупая передача эмоционального состояния героев, бедная палитра красок в передаче духа того времени.

Фабула оперы, ее лирико-драматическая канва заставила Р. Абдуллаева спустя тридцать лет, вновь обратиться сюжету и собственно опере «Садокат». Композитор практически заново написал партитуру произведения, сохранив лишь отдельные темы и фрагменты первоначального варианта. Премьера новой редакции оперы состоялась в 2016 году в театре оперы и балета имени А. Навои, под бурные аплодисменты зрителей.

В результате опера «Садокат» получила новую жизнь в сочинении совершенно иного масштаба, характера и содержательного наполнения. Это – лирико-драматическое произведение, в котором переплетаются поэтические образы главных героев с их душевными переживаниями.

Внимание в опере автор сконцентрировал вокруг образа Зульфии, олицетворяющей символ узбекской женщины-матери, преданной своей стране, семье, любимому делу.

Необыкновенно мелодичны темы, звучащие во вступлении, олицетворяющие символ вечной любви и верности героев, их стремление к жизни, любовь к Родине, своему народу. Одна из таких становится лейтмотивом любви Зульфии и Хамида Алимджана, являясь основой их монологов и дуэтов, а вторая – темой верности, преобразуясь в величественный и мощный посыл всему человечеству, который в финале оперы исполняется солистами, хором и оркестром в полном составе.

Ярко и многопланово раскрывается образ Зульфии в драматически напряженной 4-ой картине. В которой главной героине приходится преодолевать сложнейшие испытания судьбы. Известие о гибели мужа, осознание неизбежности разлуки порождают в душе Зульфии желание выстоять любой ценой, чтобы поднять на ноги и воспитать своих детей. Драматический монолог Зульфии, охваченной преследующим ее воспаленное воображение образом Хамида, звучит на фоне музыки, представляющей собой реквием – заупокойную мессу, исполнители которой облачены в черное одеяние.

Значительное место в опере занимают народно-жанровые сцены, а именно картина весеннего праздника Навруз. Р. Абдуллаев ярко изобразил сцены народной жизни, сопровождающих традиционными узбекскими песнями и танцами.

Опера «Садокат» - одно из наиболее романтических и лирических произведений Рустама Абдуллаева, повествующий о жизни и большой любви двух наших земляков, прекрасных поэтов Зульфии и Хамида Алимджана. Своим жизнеутверждающим финалом

она призывает к мужеству и стойкости несмотря ни на какие жизненные трудности, это яркий пример достойных человеческих отношений.

Использованная литература:

1. Зульфия Такое сердце у меня, стихотворения и поэмы. Изд. Г. Гуляма, Ташкент, 1978.
2. Сыздыкбаев Н.А. Образ весны в лирике Зульфийи. История узбекской литературы. Ташкент, 2006.
3. Научная редакция Вызго Т.С., Кароматова Ф.М., Насыровой Ч.Р. История узбекской советской музыки, том III, 1968-1984. Изд. Г. Гуляма, Ташкент, 1991.

SAN'AT VA SPORT SOHALARIDA XOTIN-QIZLARNING OLIB BORAYOTGAN YANGILIKLARI

Mansurova Muattarbonu Muattarbonu Fayzulla qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Xotin-qizlar sportiga yaratilayotgan imkoniyatlar, ayollar sportidagi yutuqlar va rekordlar, ayollar mehnati samarasi, san'at va sport sohasini bir-biriga bog'liqlik tomonlari.

Kalit so'zlar: ayollar sporti, yutuqlar, rivojlanish, san'at, rivojlanish



Barchamizga ma'lumki, yangi O'zbekistonda Xotin-qizlar qizlar sportiga va san'at sohasini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Rivojlanish sari yurmoqchi, yangilik yaratishga intilmoqchi bo'lgan xotin-qizlar fikri, ijodiy va ilmiy yondashuvlari chetda qolayotgani yo'q. Barcha berilgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, sportchi xotin- qizlarimiz jahon arenalarida o'zbek xalqi qay darajada kuchli ekanligini ko'rsatib kelishmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, yurtimizda ayollarimizga berilgan imkoniyatlarni chek chegarasi yo'q. Jumladan, o'zbek ayollari qay darajada zabardast va kuchli motivatsiyaga ega xalq farzandi ekanligini shu yilda Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan olimpiadada isbotlashdi. Sportchilarimiz Fransiyaning Parij shahrida o'tkazilgan yozgi olimpiada o'yinlarida munosib ravishda ishtirok etib, vatanimiz sharafiga yuksaklarga ko'tarishdi. Parijdagi Olimpiada O'zbekiston uchun mamlakat mustaqil taraqqiyoti tarixida eng muvaffaqiyatlisi bo'ldi. Respublika 13 ta medal (8–2–3) bilan 206 ta davlat orasida umumiy medallar hisobida 13-o'rinni, Markaziy Osiyoda va MDHda 1-o'rinni hamda Osiyoda 4-o'rinni egalladi. Qayd etish kerakki, O'zbekistondan bir qancha sportchilar tarixiy yutuqlarga erishdi. Xususan, Diyora Keldiyorova O'zbekiston tarixida dzyudo bo'yicha oltin medalni qo'lga kiritgan birinchi sportchi bo'ldi.



Shuningdek, u yozgi Olimpiya o‘yinlarida ayollar o‘rtasida O‘zbekistonda oltin medalni qo‘lga kiritgan birinchi sportchi hamdir. Diyoraning bu erishgan yutug‘i barcha ayollarimizga kuchli motivatsiya berdi. Barcha ijtimoiy tarmoqlarda uning yutug‘i ovoza bo‘ldi. Jahon chempionlari, hali hamon hech ham yengilmagan sportchilarni yenggani oltin qarsaklarga arziydi. (Uta Abe) Bungacha yagona “oltin”ni 1994-yilda qishki Olimpiada o‘yinlarida erkin chang‘ichi Lina Cheryazova qo‘lga kiritgan edi.

Davomli ravishda paralimpiyachilarimiz XVII yozgi Paralimpiya o‘yinlarida rekordlar o‘rnatgan holda dunyo reytingida yuqori marralarga erishishga muvaffaq bo‘lishdi. 28-avgust — 8 sentabr kunlari o‘tkazilgan o‘yinlarda O‘zbekiston delegatsiyasi 10 ta oltin, 9 ta kumush va 7 ta bronza, jami 26 ta medalga sazovor bo‘ldi. Ushbu natija bilan delegatsiya Osiyo mamlakatlari orasida Xitoy va Yaponiyadan keyin uchinchi o‘ringa, shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng yaxshi ko‘rsatkichga ega bo‘ldi. Paralimpiyachilarimizda 12 ta medalni ayollar qo‘lga kiritgani xalqimiz tarixi zarvaraqlariga kirdi. Ayniqsa, Asila Mirzayorovani erishgan natijasi yigirma sakkiz yillik rekordni yangiladi. Bilasizmi, paralimpiyachi qizlarimiz imkoniyati cheklangan emas, balki imkoniyatni chek chegarasi yo‘q ekanligini isbotlashdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, ayollarimizni yillar davomida qilgan mehnati o‘z samarasini berdi va barcha qizlarimizga ushbu yutuqlar bilan cheksiz motivatsiya berishdi.





Oliygoohlarda sport faoliyati va san'ati fakultetlar faoliyat olib borayotgani sport va san'at sohasini rivojlanayotganidan dalolat beradi. O'zbekistonda san'at sohasida tashkil etilayotgan festivallar, anjumanlar, ko'rik tanlovlar juda ko'p. Xotin-qizlarning bu jamoat ishlarida faol ishtirok etayotgani vatanimiz taraqqiyoti rivojlanishida xotin-qizlarning o'rni muhim va ahamiyatli ekanligini ko'rsatib beradi. Bunga yaqqol misol qilib, 15-22-iyul kunlari Germaniyda bo'lib o'tgan xalqaro nemis tili olimpiadasida andijonlik 10-sinf o'quvchisi Rayyona Ibrohimova 1-o'rinni olganligi ilm-fan san'ati qanchalik darajada rivojlanganligini ko'rsatib beradi. Rayyona interyusida: "3-o'rin hamma tanigan Buyuk Britaniya, 2-o'rin hamma bilgan Italiya, 1-o'rin ENDI HAMMA TANIGAN O'ZBEKISTON bo'ldi", -- degani insonga yanada kuchli faxr va iftixor berdi. Ushbu olimpiada ijodiy yondashuv san'at asosida bo'lib o'tganligi va o'zbek qizi buni uddalay olgani tahsinga loyiqdir. Bizning yurtimiz xotin-qizlari har sohada kuchli va iqtidorli ekanligini barcha sohada, nafaqat sport va san'at sohasida ham isbotlay oladigan mehnatkashlardandir.

Xulosa qilib aytganda, atoqli ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy: "Qizlar hammadan ko'ra bilim olishga intilishi kerak, chunki bu bilim bilan kelajak avlodni tarbiyalaydi", deb uqtirgani bejiz emas. Aslida ham, har qanday rivojlangan jamiyatda taraqqiyot va sivilizatsiya darajasi ayolga bo'lgan munosabat, xotin-qizlarga yaratilgan imkoniyatlar ko'lamini hamda miqyosi bilan belgilanadi. Bizning xalqimiz ayollari hech kimdan kam emasligini har jabhada ko'rsatib berishadi. YANGI G'OYALAR, YANGI YUTUQLARI SARI OLG'A.

FOYDALANILGAN SAYTLAR RO'YXATI

1. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Inson_huquqlari
2. <https://daryo.uz/>
3. <https://kun.uz/news/list>

KOMPOZITOR EOLA PAKNING MUSIQIY DUNYOSIGA NAZAR

Narturayeva Sitara Oribovna

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: ushbu maqolada iste’dodli kompozitor Eola Pakning o‘zbek kino sohasiga qo‘shgan musiqiy hissasi haqida so‘z yuritiladi. Kompozitorning qisqa umri davomida yaratilgan samarali ijod namunalari ko‘plab tomoshabinlar qalbidan chuqur joy egallashga ulgurgan.

Kalit so‘zlar: kino, multiplikatsiya, musiqa, kompozitor, rejissyor, syujet.

Eola Pak, iste’dodli bastakor, nazariya-kompozitsiya fakultetining kompozitorlik yo‘nalishini tamomlagan (professor B.I.Zeydman va R.D.Vildanovlar sinfi) yetuk ijodkorlardan biridir. U to‘rtta badiiy film, 16 ta animatsion film va 30 dan ortiq hujjatli filmlar ustida ishlagan, fortepiano va orkestr uchun ikkita konsert, “Xotira” simfonik poemasi, yakkaxonlar xori va orkestr uchun “Sharq etyudlari” kantatasi, “Triptix” vokal-instrumental kompozitsiyasi, triolar, kvartetlar va turli musiqiy cholg‘ular uchun pyesalar, radio va kino uchun yozilgan qo‘shiqlar muallifidir.

2008-yildan boshlab Eola Borisovna Moskvada "Producing Television Company" NPda ishlagan va "Mening quvonchim" telekanalida 700 dan ortiq musiqiy dasturlarni loyihalashtirgan. O‘zbekiston Kinematograflar va bastakorlar uyushmasi a‘zosi sifatida 1995-yildan Koreya Respublikasi Seul shahrining faxriy fuqarosi hisoblangan.

Mashhur dramaturg Jasur Isxakov Nizomiyning “Bizni eslab qolishgunicha – biz tirikmiz” degan iqtibosini keltirgan holda, Eolani shunday xotirlaydi: hayotining so‘nggi yillarida Eola Pak hujjatli filmlar sohasida ssenariy yozishni va rejissyorlikni o‘rganishni boshladi. 2013-yilda Obninskda bo‘lib o‘tgan “Uchrashuv” nomli VIII Xalqaro kinofestivalida «Ho памяти лампада светится» filmi rejissyori sifatida diplom oldi. 2014-yilda ssenariy muallifi, rejissyor va kompozitor sifatida "Erkin Umid yeri" (2 seriya) va "O‘ttiz yettinchi yil" nomli hujjatli filmlar ustida ishlagan. Eolaning "Erkin Umid yeri" hujjatli filmi uchun yozilgan musiqasida uning ajoyib ustozi Rumil Vildanov kabi odamlarga va hayotga bo‘lgan hissiy keng ko‘lamli va keng qamrovli muhabbat eshitiladi.

Eola Pak Rossiya va O‘zbekiston Respublikasining yetakchi rejissyorlari bilan hamkorlikda faoliyat olib brogan hamda XX asrning 60-80-yillarida o‘zbek filmlari uchun ko‘plab musiqa asarlarini yozgan. Kompozitor kino sohasining barcha janrlarida – hujjatli filmlar, multiplikatsiya, badiiy filmlarda samarali ijod qilgan, taniqli o‘zbek rejissyori Jasur Isxaqovning filmlarini musiqiy tomonlama bezatgan. Ular birgalikda "Haqiqiy erkaklar ovi" filmi, o‘zbek xalq musiqiy va fantastik ertagiga asoslangan "Susambil" (jannat joyi nomi) animatsion film, o‘zbek xalqining fashist Germaniyani mag‘lub etishdagi hissasi va sovet respublikalari – Ukraina, Belorusiya, Rossiyadan evakuatsiya qilingan bolalarga yordam berish to‘g‘risida "Urush bolalari" hujjatli filmlari ustida ishlashgan.

Eola Pakning musiqiy dunyosidagi samimiylik va beg‘uborlikni kino sohasining eng ommaviy turi – multiplikatsiyada ham yaqqol ko‘rish mumkin. Kompozitor multiplikatsiya sohasida samarali ijod qilgan ayol ijodkorlardan biri bo‘lib, haligacha ushbu multfilmlar barcha yoshdagi tomoshabinlar tomonidan sevib tomosha qilinadi. Eola multiplikatsiya sohasida turli rejissyorlar bilan hamkorlik qilgan va har bir filmga o‘z musiqiy dunyosining bir qismini singdirgan. Iste’dodli kompozitor quyidagi multfilmlar uchun musiqa bastalagan:

1. “Gullar qo‘shig‘i” (1984) o‘zbekfilm. Rejissyor S.Muratxodjayeva
2. “Topishmoqlar kuni” (1987) o‘zbekfilm. Rejissyor L.Polevaya
3. “Simbodning sarguzashtlari” (1994) o‘zbekfilm. Rejissyor M.Maxmudov
4. “Qora saroy” (1996) o‘zbekfilm. Rejissyor V.Nikitin

5. “Quyov – topotun” (1997) o‘zbekfilm. Rejissyor S.Silka va D.Vlasov
6. “Yangi shoxlar haqida” (1998) o‘zbekfilm. Rejissyor S.Silka
7. “Popugay haqida” (2000) o‘zbekfilm. Rejissyor S.Muratxodjayeva
8. “Armagedonda uxlab qolganlar” (2001) “Rademus” studiyasi, Rejissyor S.Muratxodjayeva
9. “Mushuk va jin” (2005) o‘zbekfilm. Rejissyor S.Chufirov
10. “Bor-baraka” (2005) o‘zbekfilm. Rejissyor D.Vlasov
11. “Yana bahor” (2006) o‘zbekfilm. Rejissyor M.Maxmudov
12. “Dangasa” (2006) SDF hujjatli filmlar studiyasi. Rejissyor E.Xachaturov
13. “Ikki chelak nok” (2006) “Lit-tel Animation” studiyasi. Rejissyor N.To‘laxo‘jayev
14. “Dugonalar” (2006) o‘zbekfilm. Rejissyor G.Martivosyan
15. “Irkivoy” o‘zbekfilm. Rejissyor G.Martivosyan
16. “Susambil” (2007) o‘zbekfilm. Rejissyor M.Maxmudov.

Eola Borisovnaning multiplikatsiya sohasida ishlagan ilk filmlardan biri “Gullar qo‘shig‘i” rejissyor Svetlana Muratxodjayeva bilan hamkorlikda yaratilgan. Ushbu multiplikatsiya so‘zsiz bo‘lib, syujetning asosiy qismi musiqadan tashkil topgan. Aynan musiqadagi xarakter orqali obrazlar mohirlik bilan ochib berilgan. Uning syujetida tuvakda gul o‘stirayotgan bola tasvirlanadi. Bolakay tuvakdagi gulni mehr bilan parvarishlay boshlaydi hamda gul o‘sib-unib, chiroyli ko‘rinishga keladi. Yuqori qavatdagi qizaloq bu go‘zallikni ko‘rib, zavqlanib qo‘shiq kuylay boshlaydi. Gullar ham qizaloqning ajoyib qo‘shig‘idan minnatdor bo‘lib, raqsga tushishni boshlashadi. Bolakayni bunga g‘ashi keladi, parvarishlagan gulidan begonalar zavqlanishini istamaydi va gulni yashirishga urinadi. Tongda uyg‘ongach esa, gullar yanada o‘sib, yuqoriga intilganini va qo‘shiq kuylayotganini, atrofini kapalaklar qurshab olganini, yuqori qavatda yashaydigan qizaloq esa bu go‘zallikka mehr bilan termulib turganini ko‘radi. Bolakayni jahli chiqib, gulni nobud qilishga urinadi va unga bog‘langan arqonni kesib tashlaydi. Gul esa sinib ketadi hamda so‘lib, ko‘z yosh to‘kadi. Lekin qizaloq ularga yordam berish maqsadida gullar qo‘shig‘ini kuylay boshlaydi, bolakay ham qilgan ishiga afsuslanib, u bilan birgalikda kuylashga kirishadi, gullar yana jonlanib o‘sib-una boshlaydi. Kompozitor bolakay obrazini sintetik tovushlar, harakatchan ritmlar va damli cholg‘ular orqali to‘laqonli ochib bera olgan, quvnoq va harakatchan ohanglarda bolaning fe‘l-atvori ko‘rsatiladi. Gul va qizaloq obrazlariga esa lirik xarakterdagi mavzular yaratgan. Gulni parvarishlayotgan paytda qo‘ng‘iroqchalar ovozi elektron pianinoda hamda torli cholg‘ularda yangraydi. Gul obrazining leytemasi esa qizaloq ovozida bir necha marotaba takrorlanadi. Bolakayning g‘azablanishi damli cholg‘ulardagi mavzu orqali tomoshabinga yetkazib beriladi. Multfilm so‘ngida esa gul leytmavzusi kengaytirilgan va rivojlantirilgan variantda orkestr jo‘rligida yangraydi. Kompozitor ushbu multiplikatsiyada tomoshabinlarga voqealar syujetini mohirlik bilan tasvirlab berishga erishgan. Bu uning sermahsul ijodidan faqatgina kichik bir namuna xolos. Albatta, Eola Pakning bunday iste‘dodini shakllanishida uning ustozlari Rumil Vildanovning ham hissasi kattadir. Kompozitor R.Vildanov ham kino, xususan multiplikatsiya sohasida samarali ijod qilgan kompozitorlardan biri hisoblanadi, ushbu kompozitorning musiqasi “Sehrlil sandiq”, “Farrux va Zumrad”, “Xo‘ja Nasriddin” va boshqa ko‘plab multfilmlar orqali tomoshabinga yaxshi tanishdir.

Eola Pak qisqa umr kechirgan bo‘lsa-da, lekin ko‘p ijodkorlar hamda yaqinlari xotirasida go‘zal qalb egasi, ajoyib kompozitor, mehribon farzand va ona sifatida qoldi. Bu fazilatlarining barchasi Eola Pakning musiqiy va adabiy asarlarida o‘z aksini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.kultura.uz>
2. <https://library-koresaram.com>
3. <https://www.youtube.com> «Цветочная песенка» (1985).

O‘ZBEKISTON MUSIQA SAN’ATIDA AYOL KOMPOZITORLARINING TAFAKKURI

Abrarova Moxina Fatxullayevna

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: O‘zbekiston musiqa san’atida ayol kompozitorlarining faoliyati alohida diqqatga sazovordir. Bugungi kunda soha vakillari asarlari nafaqat respublikamizda, balki uzoq xorijda ham o‘z muhlislarini topib, olqish qozonmoqda. Ayol kompozitorlar asarlarida o‘tmish va zamon an’alarining mushtarakligi, milliy va umuminsoniy tamoyillarning uyg‘unligi, zamonaviy kompozitorlik texnikasining mahorat bilan qo‘llanilishi kuzatiladi.

Kalit so‘zlar: Kompozitor, musiqa, tafakkur, ijod, san’at, kompozitorlik texnikasi, milliy, umuminsoniy, an’ana, zamonaviylik.

THE THINKING OF WOMEN COMPOSERS IN UZBEKISTAN MUSIC ART

Abrarova Mohina Fathullayevna

State Conservatory of Uzbekistan

Annotation The work of female composers in the musical art of Uzbekistan is particularly noteworthy. Today, the works of representatives of the industry find their fans not only in our republic, but also far abroad. In the works of female composers, the commonality of the traditions of the past and the present, the harmony of national and universal principles, and the skillful use of modern compositional techniques can be observed.

Key words: Composer, music, thinking, creativity, art, composition technique, national, universal, tradition, modernity.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda ayollarning jamiyatdagi, ayniqsa san’at sohasidagi, oiladagi o‘rnini mustahkamlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasida qator amaliy ishlar qilinayotganiga guvohmiz. Hozirgi kunda O‘zbekistonda ayol kompozitorlarning ijod qilib, yuqori badiiy darajadagi san’at asarlarini yaratishlariga barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Ayol kompozitor – o‘ziga xos ijodiy tafakkurga, ong va zakovatga ega bo‘lgan siymodir. U ayol sifatida farzandlarni dunyoga keltirish bilan chegaralanib qolmay, balki, ijodkor shaxs sifatida asrlar osha saqlanib qoluvchi, ma’naviyat bulog‘i bo‘lgan musiqiy asarlarni yaratadi. Va yozgan asarlari bilan tarix zarvaraqlarida nom qoldiradi. Ayol kompozitorning o‘ziga xos musiqiy didi, alohida tabiati, dunyoni qabul qilish va tafakkur qilish xususiyatlari bor. U borliqni go‘zalligini his etib, musiqa tovushlari vositasida tinglovchilar e’tiboriga havola eta olish qobiliyatiga egadir. Jahon musiqa madaniyatiga nazar solar ekanmiz, turli tarixiy davrlarda deyarli har bir milliy maktabda ayol kompozitorlar faoliyat olib borganiga amin bo‘lamiz. Xususan, Xildegard fon Bingen, Mariya Shimanovskaya, Klara Shuman, Galina Ustvolskaya, Sofiya Gubaydulina, Aleksandra Paxmutova, Gaziza Jubanova va boshqa ko‘plab ayol kompozitorlarni nomlarini keltirish mumkin. Ularning ijodi jamiyatda bo‘layotgan jarayonlarni, insonlarning orzu umidlarini, go‘zal tabiat manzaralarini, ichki hissiyotlarni aks ettirishga bag‘ishlangan. O‘zbekistonda ham ayol kompozitorlar o‘z faoliyatini XX asrning ikkinchi yarmidan boshlaganlar. O‘sha kezlari, endigina respublikamizga kirib kelgan murakkab kompozitorlik ijodiyotiga, ayollardan Shoxida Shoyardonova, Zumrad To‘ychiyevalar qiziqish bildirib, birinchilardan bo‘lib, professional ta’limni olishga muvaffaq bo‘lganlar. Xususan, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, “Shuhrat” medali sohibasi, Shohida Shoyardonova o‘z ijodida uyg‘ur va o‘zbek xalq

musiqa merosiga tayanib, yevropa kompozitorlik ijodiyoti an‘analarini, janr va shakl tamoyillarini o‘zlashtirganini namoyon etgan. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, kompozitor Zumrad To‘ychieva esa, simfonik, vokal-simfonik, kamer cholg‘u, qo‘shiq va romans janrlarida samarali ijod qilgan. Uning asarlari milliy ruhiyat bilan sug‘orilgan bo‘lib, insoniy fazilatlarini ulug‘lashga qaratilgan. Nazarimizda, kompozitor qalamiga mansub “Xotin qizlarga qasida” vokal simfonik turkumi, bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etishini inobatga olib, xalq cholg‘ulari orkestrlari repertuariga kiritilsa, ayni muddao bo‘lardi. Betakror ovoz sohibasi, O‘zbekiston xalq artisti, xonanda Olmaxon Xayitova esa, bastakorlik ijodi bilan shug‘ullanib, xalqimiz olqishi va e‘tirofiga sazovor bo‘lgan. Uning ijodiy merosida 50 dan ortiq rang-barang mavzulardagi qo‘shiq, yalla va ashulalar mavjud. Ular orasida “Muhabbat”, “Sen bir yona, men bir yona”, “Torni qo‘lga olinglarey” nomli xalqimiz orasida ma‘lum va mashhur qo‘shiqlar bor. Faxr va g‘urur ila ta‘kidlash joizki, hozirgi kunda ayol kompozitorlarimizning asarlari nafaqat respublikamizda balki, uzoq xorijda ham yangrab, o‘z muxlislarini topmoqda. Zamondosh ijodkorlarimizdan Dilorom Saydaminova, Dilorom Amanullayeva, Oydin Abdullayeva, Xurshida Xasanova, Dilnoz Zakirova, Ulbib Abdullayeva (Qoraqalpog‘iston), Irina Berlin, Zarina Xodiyeva kabilarning nomlarini eslatish o‘rinli. Ularning barchalari O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a‘zolari bo‘lib, bugungi kunda samarali ijod qilmoqdalar. Ular zamonaviy kompozitorlik texnikasi tamoyillarini izchil o‘zlashtirib, davr bilan hamnafas, rang-barang janr va shakllarda musiqiy asarlarni yaratmoqdalar. Yaqindagina O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi, xalqaro tanlovlar sovrindori, kompozitor Д.Сайдаминованинг “Qadimgi Buxoro devorlari” turkumi mashhur pianinochi Behzod Abduraimov tomonidan Nyu-Yorkdagi muhtasham Karnegi-xollda ijro etilib, katta muvafaqqiyat keltirdi. Туркум sakkiz pyesadan iborat bo‘lib, unda milliylik va zamonaviylik unsurlari uyg‘unlashgan. Pianinochi ushbu ijroni o‘tgan avlodlar ruhiga bag‘ishlagan. Shu o‘rinda, ta‘kidlash joizki, kompozitor har bir asarida keng dunyoqarashi, milliy o‘zlikni anglashga intilishlarini namoyon etadi. U zamonaviy texnikalarni yuzaki qo‘llanilishiga qarshilik bildirib, deyarli barcha asarlariga falsafiy mushohada bilan yondoshadi. O‘zbekiston Respublikasi san‘at arbobi, professor, kompozitor Dilorom Amanullayeva betakror estrada qo‘shiqlari, yirik simfonik asarlari bilan kompozitorlik ijodiyoti ravnaqiga hissa qo‘shib kelmoqda. Estrada san‘ati jonkuyari D.Amanullayeva bugungi kunda yaqindagina tashkil etilgan Botir Zokirov nomidagi MESI da samarali faoliyat olib bormoqda. “Yosh avlod ongida milliy estrada qo‘shiqchiligi orqali milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, yuksak badiiy-estetik, musiqiy did va tafakkurni kamol toptirish, estrada yo‘nalishlarida xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va tashkilotlari bilan xalqaro xamkorlikni yo‘lga qo‘yish, o‘zaro tajriba almashish, qo‘shma ta‘lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish imkoni tug‘ilmoqda” – deb yozadi o‘z maqolasida D.Amanullayeva. Kompozitorning “Yomg‘ir yog‘di”, “Saraton”, “Men seni hech kimga bermayman” kabi estrada qo‘shiqlari, o‘zbek estrada san‘ati asoschisi Botir Zokirov an‘analarini izchil davom ettirib, allaqachon xalqimizning sevimli asarlari qatoriga qo‘shilgan va o‘zbek estrada musiqaning nodir durdonasiga aylangan. Zulfiya davlat mukofoti sovrindori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Fan, ta‘lim, madaniyat va san‘at masalalari qo‘mitasi a‘zosi, professor, kompozitor Oydin Abdullayeva bugungi kunda jo‘shqin ilmiy-ijodiy faoliyat olib bormoqda. Milliylikka chuqur tayangan asarlarida O.Abdullayeva o‘ziga xos musiqiy tafakkurini namoyon etadi. E‘tiborli jihati shundaki, kompozitor o‘z ijodida turli janrlarga murojaat etib, teatr va kino uchun musiqa, simfonik va kamer-vokal, estrada qo‘shiqlarini yaratmoqda. Milliy tafakkurini kompozitor musiqiy mavzularda, garmonik tilda, cholg‘ulashtirish kabi ifoda vositalarida aks ettiradi. Shu bilan birga,

Сорта тыквы для хранения очень твердые, имеют тенденцию быть меньше и тяжелее. В начальный период хранения он содержит много крахмала, через 2-3 месяца крахмал превращается в растворимые сахара, в результате чего вкусовая и пищевая ценность повышается. Спелые тыквы твердые, имеют характерный цвет, а плодовая полоска засыхает и сморщивается. Сортируются те, которые созрели для хранения, не повреждены, не поражены болезнями и вредителями. Тыкву временно помещают под крыльцо с соломой или другой подстилкой, укладывают в два-три слоя, а сверху оставляют солому и сено. Тыкву длительного хранения оставляют на солнце на 5-7 дней. Из-за высокого содержания воды в тыкве большие потери воды при ее хранении приводят к снижению ее качества. При хранении тыквы необходимо после сбора каждого ряда накрывать ее соломой или сухой травой, чтобы не допустить ее повреждения. Тыквы хранят на стеллажах, подложив под них коврик, а плоские сорта заливают плодовой полосой вверх. Температура воздуха в складских помещениях должна быть 1-140С, а относительная влажность - около 70%. Не рекомендуется использовать для хранения тыквы холодные и жаркие помещения. В условиях Республики Каракалпакстан мероприятия по уборке сельскохозяйственных культур организуются в зависимости от вида культуры. Плоды сорта тыквы, выращенного в регионах, собирают после созревания и с этого времени используют в пищу. Остальное отправляется на длительное хранение или переработку продукции. В нашем случае тыквенную продукцию можно собирать с полей в сентябре-октябре и до заморозков. Тыква плодоносит из трубочек, полное ее созревание может подливаться до 60-80 дней. В процессе созревания плодов растения происходят изменения в его вегетативных органах и плодах.

Результаты. В наших исследованиях тыквы сортов Кашкар-1644 и Испанская-73 собирали со второй декады сентября в зависимости от сроков посева. Спелые плоды были отобраны во время сбора урожая. Сбор продукции с посевной площади, где выращивается тыква, в основном осуществлялся вручную или машинным способом. При этом использовались агрегаты 2ПТС-4793 и крупнотоннажный транспортер ТШП-25. Следующие мероприятия были реализованы при сборе и транспортировке других сельскохозяйственных культур. Собранную с полей продукцию транспортируют различными видами транспорта на хранение или в соответствующие места. Необходимо не допускать повреждения плодов при разгрузке продукции путем прикосновения их к тракторным прицепах или бортам автомобилей. Загрузка плодов на транспорт и количество их слоев зависели от расстояния и удаленности мест, куда они перевозились. При перевозке тыквенной продукции под тележки или крытые вагоны укладывают сухую солому или древесную стружку, а сверху укладывают плоды тыквы. Возможно размещение в полувагоне высотой до 1,5 метров. Тыквенную продукцию транспортируют в специальных контейнерах (ТКБ-90У, грузоподъемность 560 кг, длина 127 см, ширина 90 см). Однако в специальном контейнере СК-3 помещается продукт от 1700-2000 кг. Контейнеры используются от автопогрузчика – 4046 и вагона – электропогрузчика – ЭП-104.

Обсуждение. Перед хранением и переработкой тыквенной продукции необходимо изучить механический состав плодов. Для изучения механического состава плодов измеряют массу плодов в чистом виде, массу мякоти, кожуры и плаценты без влаги.

У сорта Кашкар-1644 средняя масса плода около 4,0 кг, масса кожуры 1,2 кг 30,0 %, масса мякоти 2,6 кг 65,8 %, масса семенной плаценты 0,2 кг, всего 5,0% содержания фруктов. Такие показатели показывают, что средняя масса плода у сорта Испанская-73

составляет 4,1 кг, масса кожуры - 1,2 кг, 29,2%, масса мякоти - 2,7 кг, 60,6%. семенная плацента - 0,2 кг, 4,8% (табл. 1).

1-таблица

Механический состав плодов сортов тыквы. (Нукусский район, Сельское хозяйство Таж, 2021 г.)

Сорта	Средняя масса плодов, кг	Масса кожуры		Масса мякоти		Масса семенной плаценты	
		кг	%	кг	%	кг	%
Кашкар-1644	4,0	1,2 45	29,5	2,6 65,8	5,8	0,2 224	5,0
Испанская-73	4,1	1,2 78	29,2	2,7 65,8	0,6	0,2 204	4,8

В ходе нашего исследования механического состава плодов тыквы в 2022 году был получен следующий результат. Полученные результаты представлены в таблице 2.

В этом опыте средняя масса плода сорта Кашкар-1644 составила около 4,2 кг, масса кожуры - около 1,2 кг и составила 29,5 %, масса мякоти плода - 2,6 кг и составила 65,8 %, масса кожуры 0,2 кг и составила 5,5% от общего содержания плодов.

2-таблица

Механический состав плодов сортов тыквы. (Нукусский район, Сельское хозяйство Таж, 2022 г.)

Сорта	Средняя масса плодов, кг	Масса кожуры		Масса мякоти		Масса семенной плаценты	
		кг	%	кг	%	кг	%
Кашкар-1644	4,2	1,2 45	29,5	2,6 65,8	5,0	0,2 235	5,5
Испанская-73	4,3	1,2 78	29,5	2,8 65,8	5,3	0,2 225	5,2

В наших исследованиях в этом направлении средняя масса плода у сорта тыквы «Испан-73» составила 4,3 кг, масса кожуры - 1,278 кг, 29,5 %, масса мякоти плода - около 2,810 кг, 65 г. Установлено, что 3%, плода семенной плаценты составили 0,225 кг, 5,2%.

Заключение. В регионах Каракалпакстана распространены три вида тыквы: тыквы твёрдые (*Cucurbita Pepo* L.), тыквы крупноплодные (*Cucurbita mahina* Duch) и тыквы мускатные (*Cucurbita moschata* Duch). Плоды тыквы сорта Кашкар-1644 созревают за 115-119 дней с момента всходов, а плоды сорта Испанская-73 - за 135 дней.

Средние минимальные и максимальные значения одного листа у сорта тыквы «Испанская-73» составляют 79,6; 9,5; 135; Наблюдалась разница в 4,4. Видно, что сорт тыквы Испанская 73 в 10 раз превосходит сорт Кашкар 1644.

Итак, как видно из наших исследований, что средняя масса плодов сорта Испанская-73 имеет определенную степень колебаний по годам исследований.

Использованная литература:

1. Azimov B.J., Azimov B.B. Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilikda tajriybalar o'tkazish metodikasi. Toshkent, 2002.
2. Zuev B., Abdullaev A. Sabzavot ekinlari va ularni etishtirish texnologiyasi – Toshkent : O‘zbekiston, 1997.
3. Ibragimov M.Yu. Poliz ekinlari. Nukus, 2012.

SUV TANQISLIGI SHAROITIDA ALMASHLAB EKISH TIZIMIGA SUVSIZLIKKA BARDOSHLI EKINLARNI KIRITISH LOYIHASI

Xudaybergenova Nilufar Baxtiyarovna

Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti

Anotatsiya: Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv tanqisligi sharoitida suvsizlikka chidamli kunjut, tariq, mosh, loviya va jo‘xo‘ri ekinlarini almashlab ekish tizimiga kiritish loyihasi bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari rejalashtirildi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani dehqonchilik xo‘jaliklarida mo‘l hosil yetishtirish uchun ekin maydonlarida tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Bu ekinlar suvsizlikka bardoshli ekinlar bo‘lib, noqulay sharoitlarga juda moslashadi, tuproq va iqlim sharoiti, kuz-qish mavsumi tufayli umumiy suv iste‘molining 50-60 foizini o‘zlashtiradi. Tabiiy yog‘ingarchilik va oraliq ekin sifatida 300-350 ts/ga gacha ko‘k massa ozuqa beradi. Yoz mavsumi issiq va quruq bo‘lgan yillarda ham hosildorlik miqdori yuqori bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpog‘iston Respublikasi, almashlab ekish tizimi, dehqonchilik, kunjut, tariq, mosh, loviya, jo‘xo‘ri, oziq-ovqat, suv tanqisligi, barqarorlik, fermer xo‘jaligi, ekin turlari.

Abstract: In the conditions of water scarcity of the Republic of Karakalpakstan, scientific and practical research work was planned on the project of introduction of drought-resistant sesame, millet, mash, beans and corn crops into the crop rotation system and agriculture of the Nukus district of the Republic of Karakalpakstan research works were carried out in the cultivated fields for the production of abundant crops in their farms these crops are drought-resistant crops, they are very adaptable to unfavorable conditions, soil and climatic conditions, absorb 50-60 percent of the total water consumption due to the autumn-winter season. Natural rainfall and as an intercrop provides up to 300-350 ts/ha of blue mass feed. The yield is high even in the years when the summer season is hot and dry.

Key words: Republic of Karakalpakstan, crop rotation system, farming, sesame, millet, mash, beans, corn, food, water shortage, sustainability, farm, crop types.

Kirish. Xo‘jaliklarimizni ilmiy-amaliy qo‘llab-quvvatlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Respublika Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlik doirasida Toshkent davlat agrar universiteti olimlari guruhi qisqa muddatli almashlab ekish tizimlari loyihasiga e‘tibor qaratib, ilmiy ishlar olib borildi. Nukus tumani “Jaz jaylaw” namunaviy fermer xo‘jaligi dehqonlari dalalarda qurg‘oqchilikka chidamli ekinlarni aniqlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Dehqonchilikda qishloq xo‘jaligi ekinlarini navbatma-navbat ekish zarurati uzoq vaqtdan beri ma‘lum. Bir xil maydonga o‘simliklar yillar davomida qancha ko‘p ekilgan bo‘lsa, kasallik va zararkunandalarning ta‘siri shunchalik ko‘p bo‘ladi. Ko‘p dalali almashlab ekish tizimlari (ekinlarni ketma-ket va oraliq ekish) salohiyatga ega resurslarni tejash va yuqori samaradorlik nuqtai nazaridan monokulturaga nisbatan afzalliklarga ega.

Mavzuning dolzarbligi: Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv tanqisligi avj olganligi hisobga olsak bu yerlarda asosan suvsizlikka bardoshli ekinlarni ekish maqsadga muaffiq bo‘ladi. Dehqon xo‘jaliklarida suv tanqisligi sharoitida almashlab ekishning yangi tizimlarini yaratmaslik tuproqlarda unumdorlikning pasayishining asosiy sababiga aylanadi.

Adabiyotlar tahlili va metododoliylar: Tadqiqotda dala usuli qo‘llanilib, hisob-kitob, solishtirish, kuzatish, baholash, matematik-statistik, monografik, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Ilmiy izlanishlar dala va laboratoriya sharoitlarida va A.S.Sokolovning to‘g‘irlangan xatoliklarning umumlashtirilgan usuli va B.A.Dospexovning bir faktorli

metodikalarida olib borildi. Tadqiqot maydonining tuproqlari o‘tloqli-alluvial tuproq bo‘lib, o‘rtacha darajada shorlangan, shorlanish tipi xloridli-sulfatli. Tajiriybada delyankalar bir yarusta joylashgan bo‘lib delyankalar razmeri 96m². Bundan tashqari tadqiqot ishlarini amalga oshirishda U.Ismaylovning dala tajriyabasi metodologiyasidan foydalanildi.

Nukus tumani “Jaz jaylaw” fermer xo‘jaligi asosan bahorgi bug‘doy, kunjut, tariq, paxta, beda, mosh, loviya, jo‘xo‘ri kabi suv tanqisligiga bardoshli ekinlarni ekish bilan shug‘ullanadi. Ayrim dalalar bo‘sh qolib ketgan yoki toza shudgor tufayli ekilmagan. Bu esa yerlarning unumdorligining pasayishi va foydalanishdan chiqib qolishga olib keladi. Yerlardan unumli foydalanish uchun dehqon xo‘jalik yerlarida tuproq unumdorligini oshirish maqsadida almashlab ekish tizimining yangi tizimlarini yaratish lozim.

So‘nggi yillarda dukkakli o‘simliklar yetishtirish ko‘paymoqda. Chunki dukkakli o‘simliklar tuproqda azot aylanishi yaxshilaydi va ammonifikatsiya va nitrifikatsiya jarayonlarini tezligini oshiradi. Fermer xo‘jaliklari va dehqon xo‘jaliklari ishlab chiqarishni qisqartirish bilan birga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekish texnologiyalari bilan muommolar yuz bermoqda. Ekish texnologiyalari uchun xarajatlar, kimyoviy o‘g‘itlar, suv yetishmovchiligi, pestitsidlar va zararkunandalar kabi omillar unumdorlikka teskari ta‘sir qilmoqda.

Tadqiqot natijalari: Kunjut o‘simligi almashlab ekish tizimiga kiritish va ekin maydonlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Kunjut o‘simligini suv tanqisligi sharoitida ekish natijasida biz paxta va beda o‘simligiga qaraganda 2-3 barobar suvni tejab qolgan bo‘lamiz. Masalan: 1 ga yer maydoniga paxta ekiladigan bo‘lsa o‘rtacha hisobda 9000-10000 m³ suv sarf bo‘ladi. Paxta o‘rniga kunjut egilsa o‘rtacha 3000-4000 m³ suv sarf bo‘ladi. Bu esa 1 ga paxta uchun sarflangan suv miqdorining yarimidan ko‘p miqdordagi suvning tejaliishiga olib keladi. Kunjut o‘simligidan oziq-ovqat doirasida istemol qilish songi yillarda tobora ortib bormoqda. Chunki kunjutning dorivor xususiyatlari ham bor. Ayniqsa qora kunjut urug‘lari temirga boy, shuning uchun kamqonlik va zaiflikdan aziyat chekayotganlar uni o‘z dietasiga kiritishlari mumkin.

Almashlab ekishda paxta va bedadan song kunjut va tariq ekinlarini ekish maqsadga muvofiq. Kunjut va tariq ekinlarini ekish va unum olish davomida 1 marotaba sug‘orish ishlarini amalga oshirish yetarli hisoblanadi. Paxta va bedadan so‘ng tuproqlardagi azotifikatsiya jarayonlari va sug‘orish ishlarini amalga oshirilganligi kunjut va tariq ekinlariga yetarli bo‘ladi. Bu o‘simlik turlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi sharoitida madaniy ekin sifatida o‘stiriladi va xom-oshyo sifatida foydalaniladi. Bu o‘simliklarga talabning ortib borishini hisobga olgan holda almashlab ekish tizimiga kiritish maqsadga muvofiq.

Suv tanqisligi sharoitida suvsizlikka bardoshli ekinlardan mosh, loviya, jo‘xo‘ri ekinlarini almashlab ekish tizimiga kiritish loyihasi bo‘yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga o‘shirilmoqda. Bu o‘simliklar keng tarqalgan ildiz tizimiga ega bo‘lib, 60 sm dan 80 sm gacha tuproq qatlamlariga kirib boradi va bir tubda 100-200 tagacha urug‘lar paydo qiladi. Bu ekin tu‘rlari suv tanqisligiga bardoshli ekinlar bo‘lib almashlab ekish tizimiga kiritish orqali har yil dehqonchilik xo‘jaliklari uchun beriladigan suv miqdorining 20-30% in tejab qolgan bo‘lamiz.

1-jadval

“Jaz Jaylaw” fermer xo‘jaligida suv tanqisligi sharoitida almashlab ekish tizimiga suvsizlikka bardoshli ekinlarni kiritish sexemasi

N	Ekin tu‘rlari	Qaytalamalar soni			
		I	II	III	IV

1	Paxta	Paxta	Jo‘xori	Kunjut	Jo‘xori
2	Beda	Beda	Paxta	Tariq	Bahorgi Bug‘doy
3	Kunjut	Kunjut	Beda	Mosh	Mosh
4	Tariq	Tariq	Kunjut	Loviya	Paxta
5	Mosh	Mosh	Tariq	Bahorgi bug‘doy	Loviya
6	Loviya	Loviya	Mosh	Paxta	Beda
7	Bahorgi bug‘doy	Bahorgi bug‘doy	Loviya	Beda	Tariq
8	Jo‘xori	Jo‘xori	Bahorgi bug‘doy	Jo‘xori	Kunjut

O‘zbekistonning barcha qurg‘oqchil zonalarida kunjut, tariq, mosh, loviya o‘simliklari almashlab ekishga yaxshi moslashgan ekin hisoblanadi. O‘zbekistonda bahorgi bug‘doy bahorda ekiladigan bir yillik o‘simlik bo‘lib, vegetatsiya davri 120-150 kungacha davom etadi. Bug‘doy yetishtirishda o‘z vaqtida yig‘ib olish muhim ahamiyatga ega. Erta yig‘ish hosilni pasaytiradi, kech o‘rim-yig‘im kimyoviy tarkibini o‘zgartirish mumkin esa, shuning uchun, uning sifati va qiymatiga ham ta‘sir qiladi. Hozirgi dehqonchilik tizimlari boshqaliq don yetishtirishga asoslangan. Mahalliy va xalqaro miqyosda almashlab ekish tizimiga suvsizlikka bardoshli ekinlarni kiritish loyihasi o‘z ichiga olgan paxta, beda, tariq, kunjut, mosh, loviya, bahorgi bug‘doy va jo‘xo‘ri ekinlarining ta‘siri bo‘yicha hosildorlik va iqtisodiy samaradorlik aniqlangan. Bahorgi bug‘doy asosiy don ekinlaridan biridir. U birinchi yetishtirilganlardan biridir. Donli ekinlar hali ham keng miqyosda yetishtiriladi. Bu ekinlar tuzilishi va o‘sishi bilan farq qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nukus tumani fermer xo‘jaligida tajriba olib borildi. Fermer xo‘jaligining ekin maydonlariga almashlab ekish tizimiga kiritiladigan suvsizlikka bardoshli ekinlar ekildi va 2023-yil hosili uchun 1-dalada 10 ga bahorgi bug‘doy ekildi. Hosildorlik miqdorlik o‘rtacha hisobda 10% ga oshti. 2024-yil hosili uchun malumotlar to‘planmoqda va vegetatsiya davrlari o‘rganilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 31 maydagi PF-5065-sonli “Yerdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish nazoratini kuchaytirish, geodeziya va kartografiya faoliyatini takomillashtirish, davlat kadastrlarini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Toshkent. 2017.
2. ИИТАС – Арал – 2000-1059 «Экономическая оценка локальных и совместных мер по сокращению социально-экономического ущерба в зоне Приаралья», Вена -Амстердам- Москва- Алматы-Ташкент 2014 г.
3. Ibragimova.M.M, Egamova.D.A “Qishloq xo‘jalik ichki yer tuzish loyihalarida almashlab ekishlar hududini tashkil etishning ilmiy ahamiyati” Yangi O‘zbekiston Pedagoglari Axborotnomasi.1-jild,3-son (YO‘PA) 118- 122-b.
4. Isayev.S, Jurayev.U, Murodov.O “Takroriy tariq ekinini yetishtirishda zovur suvlaridan foydalanish”. “Qishloq va suv xo‘jaligida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash samaradorligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallar to‘plami.2-tom.2024.
5. Ismaylov.U.E “Uliwma diyqanshiliq” (Sabaqliq) Sholpan atindagi baspa-poligrafiyalik doretivshilik uyi Tashkent-2018.141-b.

BOLALARDAGI AUTIZMNING KELITIRIB CHIQARUVCHI XAVF OMILLARI

Jamalova Shaxlo Avazjon Qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

Annotatsiya: Autizmli bolalarga yordam berishning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

o Yuqori va asta-sekin o'sib borayotgan tarqalish darajasi (aholining taxminan 1%)

o Klinik ko'rinishning murakkabligi va xilma-xilligi tufayli diagnostika va differentsial diagnostika qiyinchiliklari

o Mavjud terapevtik tuzatish yondashuvlarining samaradorligi yetarli emas.

Kalit soʻzlar: Autizm, xulq-atvor buzilishlari, nutqiy buzilishlar, xavf omillari

Аннотация: Актуальность помощи детям с аутизмом определяется несколькими факторами:

o Высокая и медленно растущая распространенность (около 1% населения)

o Диагностические и дифференциально-диагностические трудности из-за сложности и разнообразия клинических проявлений.

o Современные подходы к терапевтической коррекции недостаточно эффективны.

Ключевые слова: аутизм, поведенческие расстройства, речевые нарушения, факторы риска.

Annotation: The relevance of helping children with autism is determined by several factors:

o High and slowly increasing prevalence (about 1% of the population)

o Diagnostic and differential diagnostic difficulties due to the complexity and diversity of clinical manifestations.

o Modern approaches to therapeutic correction are not effective enough.

Key words: autism, behavioral disorders, speech disorders, risk factors.

Tadqiqotning maqsadi. Autizmli bolalarda autizmning keltirib chiqaruvchi xavf omillarini o'rganish

Tadqiqot vazifalari

1. Bolalarda autizm rivojlanishining eng muhim xavf omillarini aniqlash

2. Maxsus testlar (CASD, ATEC) , va funktsional tadqiqot usullari yordamida asb ning dastlabki diagnostikasini o'tkazish

Tadqiqot ob'ekti. Ilmiy tadqiqot ishida asb bilan kasallangan 45 bolani klinik, nevrologik va paraklinik (EEG, MRI) tekshiruv ma'lumotlarini Qurbonov nomli psixonevrologik shifoxonada o'rganilgan.

Tadqiqot materiali: bolalar va onalarning anamnestik so'rovnomalari , autizmni erta tashxislash uchun anketalar, paraklinik tadqiqot usullari : EEG va MRT .

Tadqiqot natijalari

1. Antenatal va perinatal patologiyaning kasallik rivojida roli o'rganilganda, og'ir akusher anamnezi, xomiladorlik va tug'ruq kechishidagi xususiyatlar, xomila tushishi, o'lik tug'ilish, abort kabi holatlar qayd etildi.

Xomiladorlik davridagi patogen omillar ichida xomila tushish xavfi, toksikoz, gestoza, anemiya kabilar yetakchilik qildi. Xomiladorlik davridagi somatik kasalliklardan ORVI, piyelonefrit, qalqonsimon bez funksiyasining buzilishi, kuchli stress, qandli diabet ko'p uchradi.

Bu esa infeksiya agentlar va endokrin disbalansini kasallik rivojlanishiga birmuncha ta'siri borligini ko'rsatadi

2. Autizmli bolalarning ota-onasi bilan (yoshi, ta'lim darajasi, kasbi, surunkali kasalliklari, oilav a'zolari sog'ligi holati) va bolaning antenatal va posnatal davrdagi xavf omillari tahlil qilindi.

3. Maxsus skrining testlar (CASD, ATEC) bilan tekshirilganda, bunda bolalarning 55,5% i o'rta og'irlik darajasiga mansubligi aniqlandi. Eng kam qismi 17,8% yengil darajadagi autizm bilan kasallangan bolalarni tashkil qiladi. EEG dagi o'zgarishlar tahlil qilinganda, eng ko'p bolalarning 64,4% i da (n=29) patologik EEG patternlar aniqlanmadi, 8,9% I da esa bosh miya markaziy sohalarida patologik faollik o'chog'i aniqlandi.

4. Bolalarning MRT tekshiruvlari tahlilida bolalarning ko'p qismida struktur o'zgarishlar aniqlanmadi (42%) 24% bolalarda bosh miyaning oq moddasida mayda leykomalyatsiya o'choqlari aniqlanishi va 34% bolalarda periventrikulyar sohada leykomalyatsiya o'choqlari aniqlandi.

Xulosa: Autizm kasalligi multifaktorial kasallik bo'lib, uning kelib chiqishida onaning homiladorlik vaqtidagi somatik kasalliklari, og'ir akusher anamnezi, xomiladorlik va tug'ruq kechishidagi xususiyatlar, xomila tushishi, o'lik tug'ilish, abort ota-onasi bilan (yoshi, ta'lim darajasi, kasbi, surunkali kasalliklari, oilav a'zolari sog'ligi holati) bilan bog'liq faktorlar muhim o'rin tutishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баенская, Е.Р. Аутичный ребенок. Пути помощи. [Текст] / Е.Р. Баенская, М.М. Либлинг, Никольская О.С. – Изд. 8-е – М. : Теревинф, 2014. – 288 с.

2. Баенская, Е.Р. Дети и подростки с аутизмом: Психологическое сопровождение [Текст] / О.С. Никольская, Е.Р. Баенская, М.М. Либлинг. – М. : Теревинф, 2011. – 224 с.

3. Баенская, Е.Р. Закономерности раннего эмоционального развития в норме [Электронный ресурс] / Е.Р. Баенская // Режим доступа <http://alldf.ru/ru/articles/almanah-19>

4. Баенская, Е.Р. Помощь в воспитании детей с особым эмоциональным развитием (ранний возраст) [Текст] / Е.Р. Баенская. – М. : Теревинф, 2014. – 112 с.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLARGA BERILAYOTGAN IMKONIYATLAR VA SHART-SHAROITLAR HAQIDA

Ikramova Feruza Xayrullayevna, Sanjarova Marjona Sanjar qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston xotin-qizlarining jamiyatdagi o‘rni, ayollar va erkaklar huquqlari tengligini ta‘minlash masalalari, xotin-qizlarga zarur shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish, davlatimizning bu masalani qo‘llab-quvvatlashi borasidagi mavjud qonunlari va boshqa me‘yoriy hujjatlari tahlili qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: ayol salomatligi, jamiyat mustahkamligi, Gender tenglik, ayollarning ijtimoiy faolligi, siyosiy ongi, hayotdagi o‘rni.

Annotation: This article briefly discusses the role of women in Uzbekistan, the issues of ensuring equal rights for women and men, the creation of necessary conditions and opportunities for women, and the analysis of existing laws and other regulatory documents supporting this issue by our state.

Keywords: women's health, societal stability, gender equality, social activism of women, political awareness, their role in life.

Bugungi kunda O‘zbekiston xotin-qizlariga katta e‘tibor qaratilib, jamiyatning turli sohalarda ularning faol ishtirok etishlari uchun keng sharoitlar yaratilmoqda. Mamlakatda xotin-qizlarga bo‘lgan munosabat o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lib ajdodlarimizning doimo ayollarni qadrlashga, ularga nisbatan hurmat va izzatda bo‘lishga da‘vat etishgan.

Ayollari sog‘lom elning farzandlari barkamol, kelajagi nurafshondir. Bu borada O‘zbekistonlik xotin-qizlariga, aziz va muxtarama onajonlarimiz, munis opa-singillarimizga havas qilsa arziydi. Bugun yurtimizda qaysi sohani olib ko‘rmang, o‘z o‘rnini topayotgan ayollar safi kengaymoqda. Aslida ayolning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi - uning hayotdan mazmun va quvonch topib yashayotganidan dalolatdir. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, salomatligini mustahkamlash, bir so‘z bilan aytganda, ularga munosib shart-sharoitlar yaratish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlar samarasini bugun har jihatdan sog‘lom va yetuk farzandlarimiz timsolida hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Zero, ayol salomatligi – oila sog‘lomligi, jamiyat mustahkamligi, mamlakat barqarorligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning rahnamoligida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muxofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta‘minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2022 yil 1 martda “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda 05.03.2021 yildagi PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” dagi Prezident qarorlari qabul qilindi.

Ta‘kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me‘yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me‘yor va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan.

Jamiyatda ham, oilada ham ayollar o‘z o‘rniga ega. Ular ta’lim bo‘ladimi, tibbiyot yoki sport sohalarida, siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etayapti. Davlatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan e’tibor esa bu borada yanada faol bo‘lishni talab etadi. Aslida xalqimizning uzoq tarixiy yo‘lida xotin-qizlarning o‘z o‘rni bo‘lgan. Oqila, dono ayollar ishtiroki bilan adolatli qarorlar qabul qilingani, turli masalalar ko‘pchilikka ma’qul bo‘ladi. Sharq ayoli timsoli hamisha buyuk bo‘lgan. To‘marislar, Bibixonimlar, Nodirai davronlar tug‘iladi bu zaminda. Bu zaminning ayollari iffatu hayoda tengi yo‘q, ehtimol, shuning uchun ham asrlar silsilasida ham ularning madhi tillarda doston, dillarda barhayot. Mamlakatimizda o‘zbek ayolining o‘zi uchun muqaddas bilguvchi oiladagi o‘rni, uning farzandlar tarbiyasiga bo‘lgan e’tibori, shuningdek jamiyatdagi o‘rni har doim muhim hisoblangan.

Qadim o‘tmish bitiklaridan ma’lumki, sharqda ayol zotiga bo‘lgan e’tibor va hurmat millatga xos qadriyat sanalgan. Ayolning jismonan nozikligi va ojjizligi uchun emas, aksincha, uning oiladagi beqiyos o‘rni, kelajak avlod tarbiyasidagi ahamiyati va xonadon mustahkamligidagi rolining yuksak ekanligi nazarda tutilgan. Shu bois ular go‘zallik hamda nafosat timsoli, avlodlar davomiyligini ta’minlovchi mo‘jizaviy xilqat sifatida shoirlar ash’ori, musavvirlar suratlari, haykaltaroshlar ijodi, zargarlar ziynatining bosh sarlavhasi bo‘lib kelgan. Bu asriy an’anaviy meros asrlar o‘tib hamki, zamonaviy jamiyatimizda yanada sayqal topib davom etmoqda. Ayolga ehtirom, nainki, oilada, jamiyatda ham tobora yuksalib, uning bor mahorati, bilim, tajribasi, salohiyatidan samarali foydalanish hamda faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “Ayol qadri, inson qadri ulug‘langan yurtida tinchlik va farovonlik, ahillik va baraka albatta barqaror bo‘ladi” Hayotimizni nurafshon etgan saxovatlik, mehr- muxabbatni, barcha olam go‘zalliklarini baxshida etguvchi aziz inson ham o‘zbek ayolidir. Yurtimizda azaldan ayol zotiga hurmat bilan qaralgan. Mamlakatimiz mustaqilligi bois bu hurmat-e’tibor yanada yuksaldi. Xotin-qizlarimizning ijtimoiy hayotdagi o‘rni mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. 2022 yil 1 martdagi “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-146-sonli qarori.
2. 2021 yil 5 martdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risi” PQ-5020-sonli qarorlari
3. www.gender.stat.uz
4. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Year : 2022, Volume : 12, Issue : 5 First page : (129) Last page : (133) Online ISSN: 2249-7137. Article DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00365.2
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=5&article=022>

ТИББИЁТ ОЛИЙГОХЛАРИНИНГ ХАЛК ТАБОБАТИ ЙУНАЛИШИДАГИ ТАЛАБАЛАРИГА ПАТОЛОГИК АНАТОМИЯ ФАНИНИ УУУ-ЧИЗМАСИНИ КУЛЛАШ МЕТОДИКАСИ.

Реймназарова Гулсара Джамаловна, Рахмонова Шахноз Каххоровна.

ТДСИ, “Физиология ва патология”

Институт микёсида барча талабалар билим савиясини ошириш, уларнинг амалий машгулотга кизиқишини кутариш мақсадида педагог томонидан ҳар хил инновацион ноанъанавий технологиялар қулланилади.

Аннотация: Бу қулланиладиган усул ва технологиялар талабанинг билим олиши, ушлаштириши ва фанга кизиқишини оширади, натижада талаба ўзидаги бор билимларини ошириб борилишига шароит яратилади.

Педагог дарс жараёнида факатгина ўзининг соҳа фанига катта эътибор бермасдан балки бошқа фанлар билан боғлашни ҳам билиши лозим. Бунинг учун унда қучли билим ва маҳорат талаб қилинади. Яъни ҳозирги кунда тиббиёт олийгоҳларида ўз фаолиятини олиб бораётган халқ табobati факультетига қисқа муддатда фанлар интеграцияси кесимида дарс олиб бориш мақсадида шахсан ўз педагогик фаолиятим жараёнида ўйлаб топилган.

Калит сўзлар: УУУ- чизмаси, педагог, инновацион, аутопсия, биопсия, дарс жараёни, шифобахш усимликлар.

Annotation: In general, students who take knowledge of the teaching style and technology, assimilate and increase science, as a result of which the student in himself was faced with the conditions of obtaining knowledge. The teacher not only studies the field of science, but also teaches students. It requires skill and skill. At the same time, as in other medical institutions, there are now many medical institutions that specialize in folk treatment of a cat, and the integration of caesarean section with a teacher has been studied for a long time, the purpose of which is the personal training of the teacher was found domesticated in jaraeni.

Key woors: scheme-TTT, teacher, innovator, autopsy, biopsy, the lesson process, herbal medicine

Аннотация: В целом, стиль и технология обучения позволяют учащимся получать знания, усваивать и развивать науку, в результате чего учащийся сталкивается с условиями получения знаний. Учитель не только изучает предмет, не придавая ему большого значения, но и обучает студентов. Это требует умения и навыков. В то же время, как и в других медицинских учреждениях, в настоящее время существует множество медицинских учреждений, специализирующихся на народном лечении кошек, давно изучена интеграция кесимиды с учителем, целью которой является личная подготовка учителя.

Ключевые слова: схема-УУУ, учитель, новатор, вскрытие, биопсия, урок, фитотерапия.

Тадкикот мақсади: УУУ-чизмаси---бу устма уст учбурчак усули бўлиб, бунда асосий кузланган мақсад талаба ва педагог орасидаги боғлиқлигини ўзлуксиз дарс охиригача таъминлаш, талабани бир пайтнинг ўзида бир неча фанлар билан боғлаш, базавий билимини ошириш ва халқ табobati усулини қуллашни ўргатишга таянади.

Тадкикот материаллари ва усуллари: Аутопсия- бу танатологиянинг асоси ҳисобланиб, ўлган организмдаги келиб чиққан касалликнинг сабабларини аниқлаш, морфогенези, кечуви, патанатомияси: макроскопик ва микроскопик белгиларини, оқибати ва аҳамиятини аниқлаш учун мурдани очиб текшириш усули.

Биопсия - бу патологик анатомиянинг асоси ҳисобланиб,тирик организмдаги келиб чиккан касалликнинг сабабларини аниклаш, морфогенези, кечуви, патанатомияси: макроскопик ва микроскопик белгиларини, турларини оқибати ва ахамиятини аниклаш учун олинган тежимани текшириш усули.

Шу уринда талабаларга кенг қулланиладиган биопсия усуллари: билвосита ва бевосита, пункцион, эндоскопик, экспрессион биопсияларни тушунтириш керак,чунки барча соҳа шифокорлари ушбу тушунчаларни билиши керак.

Бевосита биопсияда жаррохлик амалиётига мақсад қилинган туқима олиб чиқиб кетилади ва текширилади.Мас:аппендицит ташҳиси билан қилиб,шу аъзодан кесма олиш.

Билвосита биопсияда жаррохлик амалиётига қилинганда мақсадланган туқимадан ташқари ён атрофдаги туқимадан ҳам қирқма олинади. Мас: бачадон миомаси ташҳиси қилиб, тухумдон кистаси аниқланганда ундан кесма олиш.

Пункцион биопсияда бушликли, суюклик(кон,йиринг,сув) йиғилишга мойил соҳалардан махсус игна ёрдамида олиб,центрифугалаб,чукмани текшириш усули.

Эндоскопик биопсияда ковакли аъзоларда бушлигига урган туқимадан қирқма олиш усули.

Экспрессион биопсияда жаррохлик маҳалида шошилиш ҳолатда жаррох тактикасини узгартириш мақсадида қулланиладиган текшириш усули.Бу усуллар Стоматология,ортопедия,терапия,онкология ва ҳок. Соҳаларнинг барчасида қулланилганлиги учун талабалар чуқур англаши керак.

Шу билан бирга оралик танаффусда тиббиётга оид терминология қуллаш орқали талабанинг терминологик хотирасини қучайтиришга қаратилган. УУУ-чизмасидаги биринчи ўқбурчакнинг томонлари патанатомиянинг аутопсия, биопсия, морфогенез, кечуви , оқибати ва ахамиятини аниқлаш, иккинчи ўқбурчак фангача бўлган нормал фанлар: анатомия,гистология,биохимия,физиология,патфизиология асосларини, учинчи ўқбурчак эса қулланиладиган халқ таъбири шифобахш ўсимликлар бўғлиқлигини аниқлатади. Булар устма уст ҳар томонлама бўғлиқлик ҳолатда мавзунинг кенг тушунишга ердан беради. Баъзан устма уст усулда фаннинг уз мавзулари орқалигида бўғлаш орқали ўтказиш мумкин.

Натижа: Бу усул ўйлаб топилган шахсан ўзимнинг малакавий ишим бўлиб,бунинг ўтказиш қилидагича:

Педагог дарсга қилишдан олдин ўзига мавзу ва унга оид бўлган терминлар, аъзодан юзага келадиган жараёнларни чуқур билиш учун қисман анатомик жойлашуви, гистологик тузилиши, биохимик жараёнлар кечуви, морфологик белгилари, патогенези ҳақида тулиқ маълумотга эга бўлиши, кроссвордлар, тест, вазиятли масалалар, микропрепаратлар, макропрепаратлар, ўтилатган мавзуга тегишли шифобахш ўсимликлар, уларнинг тиббиётдаги роли ва ахамиятлари ҳақида билиши лозим.

Шунга асосланиб дарсга қилишдан олдин режа тузиб олиши,педагог мажмуасига асосланиб, хронокарта соатида мослаб,мавзунинг асосий нуқтасига эътибор қаратиши, талабаларни қизиқарли маълумотлар билан оралик танаффусда қисман қалғитиши керак. Бу талабада фикрлаш доирасининг юксалишига олиб келади.

Педагог дарсга қилганда авваломбор, саломлашади ва давоматни текширади, сунг ҳозирги кунда кечадиган тиббиётга алоқадор янгиликларни навбатма-навбат талабалардан тайёрланиб қилишига қура, қурайди ва ўзи шунга бўғлаб гапиради.Талабаларни 3 гуруҳга бўлиб, айлана ҳолатда жойлаштиради, уларнинг ҳар бирининг столига мавзуга оид бўлган

макропрепарат, микропрепарат куйиб чиқади ва эркин ҳолатда қолдиради, талабалар бу препаратларнинг жавобини мавзу муҳокамасидан сунг амалга оширишини тайинлайди.

Мавзунинг бошланишини яъни номланиши сабабларини қайсидир: масалан узбек гурухидан инглиз ва рус тилида, рус гурухидан инглиз ва узбек тилида қисқа айтиб беришини талаб қилади, бунда талаба умуман билмайдиган терминларининг ҳеч бўлмаганда қандай аталишини англайди ва эслаб қолишига тўртки бўлади.

Талаба жавоб бераётганда унинг фикри ҳоҳ тугри, ҳоҳ нотугри бўлсин, эшитилади, барча талаба узини фикрини айтгандан сунггина тулик, аниқ тугри таъриф педагог томонидан тўлдирилади, сабаб талаба ҳато айтганда уни бирдан рад этиш қизиқишни сундиради. Бу кейинги мавзуларга уз таъсирини қурсатади.

Мавзуга оид таърифда асосий мақсад терминни тугри тушуниб, англаб айтишга қаратилган. Дарс жараёнида педагог мавзуга оид саволлар шаблонини презентация экранда намоён қилиб қуйиши лозим, талаба экранга қараб педагог томонидан кейинги бериладиган саволларни кетма-кетлигини англайди ва бериладиган жавобларни беришга интилади, бу дарснинг узлуксизлиги ва педагог билан талабани давомий мулоқотини таъминлайди.

Мавзуга оид саволлар кетма кетлиги узаро боғлиқ ҳолда бўлиши керак, чунки бу билим мустақамланишида асосий роль уйнайди. Ҳар бир савол асосида албатта тестлар ва вазиятли масалалар билан яқунланиши керак, бунда актив қатнаша олмаётган талаба ҳам иложи борича жавоб беришга ва баҳоланишга олиб келади.

Мавзуга оид қасалликни тушунишида патологик анатомиянинг асоси бўлган аутопсия ва биопсия материаллари барча факультет ва қурс талабалари учун қизиқарли ва тушунишига ас қотадиган усул ҳисобланади. Яъни 1 қурс талабаларидан токи 6 қурс талабаларигача барча фанлар аутопсия ва биопсия материаллари орқали олиб қорилса, мақсадга мувофиқ, ҳақиқий даволловчи шифокорлар етишади.

Яъни институт укув амалиётини доимий эркин инновацион-секцион ҳона ташкил қилиш орқали қучайтириш лозим, бунда эркин навбатчилик ташкил этилиб, патанатом-педагог ҳар хил қурс муржаатига қарамасдан барчага қисқа аниқ секция қилиш усуллари, қечуви, қуллашларни ургатиб қорганда талаба қул билан ушлаб урганганини тулик англаб тушунади, бу қелажак авлод қизиқишини ва актив билим олишни оширади.

Педагогдан шундай маҳорат талаб қилинадики, бу усулда педагог томонидан ёритиладиган макро ва микропрепарат музоқара оралиғига мос қелиши керак, яъни мас: усма мавзусининг инфилтратив усиши қандайлиги ҳақида гапирилгандагина: уша муддатда педагог шу макропрепаратни қурсатиб, усишини таҳлил қилиб, аъзолар: бўшлиқли ва бўшлиқсиз аъзолар мисолида қурсатиши, иложи борича ҳар бир талабанинг яқиндан қуришини таъминлаш учун қулига тутқизиши лозим, шунда талаба мавзунинг қерақли нуқтасини англайди.

Шу оралиқда талаба мавзунинг деярли 50%ни тушунгандан сунг столларга шу мавзуга тегишли қуллаш мумқун бўлган шифобахш усимликларни мас: уткир респиратор қасалликлар мавзусида наъматак, туршак, мойчечак усимликлар қуритмасини қуйиб қикиши ва эркин вақт бериши керак. Бунда талаба ушбу усимликнинг тиббиётга оид лойтн номланиши, халқ тилидаги номланиши, қайси қасалликларда қуллаш мумқин, қайси қасалликларда қарши қурсатмалар қорлигини ва қисман тайёрлаш усуллари ҳақида маълумот бериши керак.

Талаба ушбу маълумотларни тулик тушуниб англаши ва эслаб колиши учун педагог олдин утилган дарсдан кейин кейинги мавзуга доим вазифа бериб бориши керак. Талабалар билимини баҳолашда махсус елимли стикерлар ердамида доскага епиштириш оркали баҳоланиб борилади ,шунда талаба тахминий баҳоланишини тушунади ва паст баҳоланмасликка ҳаракат қилади.

Талабалар билан кроссворд ва сканвордлар устидан ишланганда унинг тез фикрлаши ва дунёқарашини тез узгаришига, терминологиянинг мустаҳкамланишига, вазиятли масала ечишда тезрок ташхислаш ва киёслашни урганади.

Талаба мавзуга доир сузлаётганда, бошқа талабалар унинг фикрини диққат билан эшитишини талаб қилиш унинг айтган хатоларини ким топса, яхши баҳоланиши мумкинлигини дарс бошланишида айтилса, талабалар диққат билан тинглашга ва мавзунини тулакони тушунишга ҳаракат қилинади.

Талаба баҳоланаётганда унинг терминларни тугри куллаши, макро ва микропрепаратни англаб етиши, анатомик тузилиши ва бошлангич гистологик билимининг борлигига асосланиб баҳолаш даркор. Вазиятли масалалар ва тестлар ечилганда тугри ва нотугри жавоблар асослар келтирилиб, изоҳланиши керак, шунда талабадаги саволларга тулик жавоб олган бўлади.

Талаба мавзуга оид макро ва микропрепаратни альбомга ёзиб чизганда унга фанга оид кийинчиликларда ердам керак бўлади, сабаби талаба бу фанга янги кириб келаётганлиги сабабли тусиклар бўлиши аниқ. Агар педагог доимий изланиш оркали фанини чуқур талабага етказа олса, талаба дарсдан ташқари фанга оид муаммолар билан доимий педагог билан мулоқотда бўлади, бу фан тугараклари ташкил этилишида ва шу соҳа вакили бўлишига туртки бўлади. Яъни талабага макро ва микропрепаратни узлаштираётган талабага нормал аъзо микроскопик қурилишини курсатиш, у нормани тушунгандан кейингина унга патологик ҳолатни тушунтириш лозим.

Хулоса: УУУ-чизмаси ҳам педагог ҳам талаба учун қулай усул ҳисобланиб, педагогда уз устида ишлашга, соҳани ривожлантиришда, илмий ёндашишда, инновацион-секцион маҳоратни оширишга қул келади, талабада эса бир пайтнинг узида анатомик, гистологик, патанатомик, секцион, биохимик фанларни такрорлаш ва мустаҳкамлаш, узаро боғлаш, касалликнинг морфогенезини англаш ва халқ таъбатини қуллаш усуллари урганишга замин яратади.

УУУ-чизмаси усули ари уяси, айлана стол, балик скелети ва бошқа усулларни бир узида жамлайди, лекин катта маҳорат талаб қилинади.

Тиббиётда қулланиладиган инновацион технологик усуллар оркали педагог маҳорати аниқ қуринади ва талаба билан мулоқотни мустаҳкамлайди.

Педагог кадрлар иш жараёнида институт ривожини учун доим уз устида ишлаши, соҳага оид бўлган технологияларни қуллаш билиши ва мавзуга монанд ҳолатда олиб бориши керак.

Адабиётлар:

1. Б.А.Магруппов Патологик анатомиядан қуллаш. 2012 й. Тошкент.
2. Б.А.Магруппов Секцион-биопсия курси. 2015 й. Тошкент.
3. Абдуллаходжаева М.С. Патологик анатомия. 2012 й. Тошкент. 1-2 том.
4. Педагогик технологиялар. Мирзаев А.А. 2008 й.

MODIFIKASİYALANGAN GIPSLI BOG‘LOVCHI XOSSALARIGA POLIMIX SUPERPLASTIFIKATORNING TA’SIRI

**Dossaliyev Kanat Serikovich, Turg‘unbayeva Jumagul Raximberdiyevna, Mirzaeva
Zamira Muxamadazizovna**

Janubiy Qozog‘iston universiteti M. Auezova, Toshkent davlat transport universiteti

Anotatsiya: Tadqiqotning asosiy maqsadi POLIMIX polikarboksilatli superplastifikatori qo‘shilgan gips toshining strukturasi va xossalarini o‘rganish, xamda gipsli bog‘lovchi xossalariga POLIMIX polikarboksilatli superplastifikatori ta'sirining o‘ziga xosligi va mexanizmi aniqlangan.

Tadqiqotda fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari, gips bog‘lovchi sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganishning standart usullari, tadqiqot natijalarini qayta ishlashning matematik usullari va statistik usullari qo‘llanildi.

Tadqiqot natijasida polikarboksilatli superplastifikatorlarning bog'lovchi vosita sifatida gipsning strukturaviy hosil qilishiga qanday ta'sir qilishini aniqladilar. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, polikarboksilat superplastifikatorlardan foydalanish orqali gips bog'lovchilarining gidratatsiya jarayonini kuchaytiradi. Bundan tashqari, ular polikarboksilatli kompozitsion gips bog'lovchi xossalarining siqilish kuchi va yumshatish koeffitsientini aniqlash uchun matematik modellarni ishlab chiqdilar.

Kalit so'zlar modifikatsiya • gips bog‘lovchi • kimyoviy qo‘shimcha • “POLIMIX” superplastifikatori • sozlash vaqti • mustahkamlik ko‘rsatkichlari.

Annotation The main goal of the research is to study the structure and properties of gypsum stone with POLIMIX polycarboxylate superplasticizer added, as well as to determine the specificity and mechanism of the effect of POLIMIX polycarboxylate superplasticizer on the gypsum binding properties.

Modern methods of physico-chemical analysis, standard methods of studying quality indicators of gypsum binder, mathematical methods of processing research results and statistical methods were used in the research.

As a result of the study, they determined how polycarboxylate superplasticizers as a binding agent affect the structural formation of gypsum. In addition, studies have shown that polycarboxylate enhances the hydration process of gypsum binders through the use of superplasticizers. In addition, they developed mathematical models to determine the compressive strength and softening coefficient of polycarboxylate composite gypsum binding properties.

Key words modification • gypsum binder • chemical additive • "POLIMIX" superplasticizer • setting time • strength indicators.

Hozirgi vaqtda gips asosidagi materiallar yengilligi, tabiiy tarkibi, tejamkorligi, ekologik xavfsizligi, ishlab chiqarish jarayonida kam energiya sarflanishi bilan eng ilg‘or qurilish materiallaridan sanaladi. Biroq gipsli bog‘lovchini qo‘llash sohasi, mustahkamligi va suvga chidamliligining pastligi kabi muhim kamchiliklari tufayli ularni ishlab chiqarish cheklangan bo‘lib, bu xolat ularning fizik-texnik va ekspluatasion xossalarini yaxshilash uchun gipsli bog‘lovchilarni modifikasiyalashni talab qiladi. Shuning uchun texnogen chiqindilarni modifikator sifatida ishlatish va yangi avlod superplastifikatorlaridan kompleks foydalanish yo‘li bilan kompozitsion gipsli bog‘lovchilar va ular asosidagi samarali gipsobeton buyumlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda gipsli bog‘lovchi asosidagi buyumlar sifatini yaxshilash maqsadida, xususan mineral mikroto‘ldirgichlar va yangi avlod superplastifikatorlaridan kompleks foydalanish asosida

ekspluatatsion xossalariining ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan gipsobeton plitali materiallarni ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, bunday buyumlarni ishlab chiqarish va ulardan foydalanish nafaqat atrof-muhit uchun zararsiz, balki mahsulotlarning o‘zi xam inson hayoti uchun xavfsizroqdir. Shu bilan birga, polikarboksilat efiri asosida olinuvchi “POLIMIX” superplastifikatorli kompozitsion gipsli bog‘lovchining gidratatsiya jarayonini kuchaytirish usuli dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda. [7-16].

O‘zbekiston Respublikasida turli sohalarning jadal rivojlanishi qurilish sohasida ham sezilarli yutuqlarni o‘z ichiga oladi. So‘nggi paytlarda ushbu sohani texnik va texnologik jihatdan modernizatsiya qilish bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli sa‘y-harakatlar energiya sarfini kamaytirishga va resurs tejamkor qurilish materiallari ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga olib keldi. Bunday keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirish, jumladan, oldindan belgilab qo‘yilgan belgilangan majmui xossalari to‘plamiga ega kompozitsion gipsli bog‘lovchilar asosida energiya tejamkor va ekologik toza qurilish materiallarini ishlab chiqish eng zarur vazifalardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan yangi avlod superplastifikatorlaridan foydalangan holda kompozitsion gipsli bog‘lovchi asosida energiya tejamkor gipsobeton buyumlarini ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish masalasini hal etish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy avlod superplastifikatorlarni, xususan, polikarboksilat efirlar asosidagi superplastifikatorlar va binar mikroto‘ldirgichlar bilan modifikatsiyalangan gipsli bog‘lovchilarning kompozitsiyalarini ishlab chiqish, shuningdek ular asosida olinuvchi gipsobetonning xossalariini yaxshilash masalasi etarli darajada o‘rganilmagan.

Bundan tashqari, har xil tabiatdagi superplastifikator qo‘shimchalarning gips bog‘lovchining tuzilishi va fizik-texnik xossalariiga ta’siri xam etarlicha o‘rganilmagan. Muammoning shu va boshqa jihatlari dolzarb bo‘lib, batafsil o‘rganishni talab qiladi [17-24, 30].

Tadqiqotning maqsadi gips biriktiruvchi strukturaning hosil bo‘lish xossalariini aniqlash va polikarboksilatli superplastifikator yordamida yuqori fizik, texnik va ekspluatatsion xossalariiga ega yuqori samarali kompozitsion gipsli betonni olishdir.


Tadqiqot vazifalari: turli tabiatdagi superplastifikatorlar bilan gips biriktiruvchi strukturaning hosil bo‘lish xossalariini o‘rganish va aniqlash; gipsli toshning siqilish kuchi va suvga chidamliligi mezonlari bo‘yicha polikarboksilatli superplastifikator bilan kompozitsion gips bog‘lovchining tarkibini optimallashtirish [25-27];

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, gipsli bog‘lovchilarga nisbatan samarali bo‘lgan, ularning o‘ziga xos xossalariini hisobga olgan holda, plastifikatsiyalovchi ta’sirga ega kimyoviy qo‘shimchalar shakllantirish zarurati bor deb hisoblaymiz. Gipsli bog‘lovchilar xossalariining o‘ziga xosligi bu bog‘lovchilarning qotib qolish jarayonida gidratatsiya va struktura hosil bo‘lish jarayonlari, shuningdek, gips toshining tuzilishida nuqta kontaktlarining ustunligi bilan bog‘liq [1]. Bizning tadqiqotimizda gips bog‘lovchining qattiqlashishiga har xil tabiatdagi superplastifikatorlarning ta’siri ko‘rib chiqiladi. Ma’lumki, superplastifikatorlar kimyoviy kelib chiqishi xususiyatiga ko‘ra uch turga bo‘linadi: 1) naftalin formaldegid smolalari asosidagi superplastifikatorlar; 2) melamin formaldegid asosidagi superplastifikatorlar; 3) polikarboksilat efir asosidagi superplastifikatorlar. Bizning tadqiqotlarimizda doimiy suv-gips nisbati ($S/G = 0,70$) va superplastifikatorlar dozasi (gips bog‘lovchining massasiga nisbatan 0 dan 0,8% gacha) bo‘lgan gips mahsulotlari ko‘rib chiqildi. Eksperimental tadqiqotlarda G-6 markali Samarqand qurilish gipsidan foydalanilgan.


Tadqiqotning birinchi bosqichida biz superplastifikatorlarning gips bog‘lovchining suvga bo‘lgan talabiga ta’sirini o‘rgandik. Grafik bog‘liqliklar ko‘rinishidagi tadqiqotlar natijalari (3-rasm,

a) da ko'rsatilgan. Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, POLIMIX superplastifikatori bilan qo'shimcha bilanda gipsli xamirning suvga bo'lgan talabining eng katta pasayishi, ya'ni 0,7 dan 0,47 gacha yoki 33% ga kamayishi kuzatiladi. Boshqa turdagi superplastifikatorlar suvni kamaytiradigan ta'sirga ega, bu esa 16% dan oshmaydi. Olingan natijalar qo'shimcha bilan gips toshining mustahkamlik xossalariiga yaxshi mos keladi (3-rasm, b).

Gips aralashmasiga polikarboksilat efiriga asoslangan POLIMIX superplastifikatorsi qo'shilsa, qo'shimcha bilan gips toshining maksimal kuchiga erishiladi, u 9,5 MPa ga etadi.



3-rasm, a) Superplastifikatorlarning suvga bo'lgan talabiga ta'siri gips bog'lovchi 1- "Polyplast" bilan; 2 - "Conplast SP430" bilan; 3 - "POLIMIX" bilan




3-rasm, b) SP 1 bilan qo'shimcha bilan gipsli toshning siqilish kuchi - "Polyplast" bilan; 2 - "Conplast SP430" bilan; 3- "POLIMIX" bilan

Dastlab, naftalin-formaldegiddan olingan superplastifikator, xususan, Polyplast ishlatilgan. Aksincha, keyingi tajribada Conplast SP 430 deb nomlanuvchi melamin-formaldegid tadqiqotga birlashtirildi. Ushbu xossalarni solishtirganda, kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadigan oxirgi superplastifikator yordamida yuqori natijalarga erishildi. Shunga qaramay, shuni ta'kidlash joizki, o'rganilgan parametrlardagi farq minimal bo'lib, farq 7,8 MPa bilan solishtirganda 8,2 MPa da qayd etilgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, elektrofizik usul gips aralashmalarining qattiqlashuv jarayonini o'rganish uchun keng qo'llaniladi, tizimning qattiqlashishi paytida yuzaga keladigan fizik va kimyoviy hodisalar haqida har tomonlama ma'lumot beradi. Ushbu tadqiqot natijalarining qo'shimcha bilan va qo'shimchasiz gips bog'lovchilarining elektrofizik tadqiqotlari bilan tasdiqlanishi muhim ahamiyatga ega.


Ko'rsatilgan ma'lumotlarni tahlil qilish (4-rasm) gips biriktirgichni sulfoguruhlarini o'z ichiga olgan Polyplast va Conplast SP 430 superplastifikatorlari bilan o'zgartirish bog'lovchining qattiqlashuv kinetikasini juda oz o'zgartirishini ko'rsatadi.




4-rasm.Gips aralashmalarida elektr signalining o'zgarishlar kinetikasi 1) qo'shimchalarsiz; 2) "Polyplast" bilan; 3) "ConplastSP430" bilan; 4) "POLIMIX" bilan

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, POLIMIX superplastifikatorini gips tizimlariga kiritish, Polyplast va Conplast SP 430 superplastifikatorlaridan farqli o'laroq, material ichida maksimal suvni ushlab turishga olib keladi. Mualliflar bu ta'sirni POLIMIX polikarboksilatli superplastifikator tomonidan kichikroq teshiklari va kapillyarlari bo'lgan strukturalaraning hosil qilishi bilan bog'lashadi. Ushbu xulosa elektron mikroskopiya tadqiqotlari orqali tasdiqlandi, bu qo'shimcha bilan gips toshining mikrostruktura analizlari bilan takidlanadi (5-rasm).


a)




b)



b)



d)



5-rasm.Modifikatsiyalangan SP gipsli toshning mikrostrukturası a) qo'shimchalarsiz; b) "Polyplast" bilan; c) "ConplastSP430" bilan; d) "POLIMIX" bilan

Materialshunos olimlar [3,6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, sun'iy toshlarning mustahkamligi, masalan, qo'shimcha bilan gips toshlari, kompozitsion zarralar orasidagi bog'lanish kuchiga va sinish yuzasining birlik maydoniga ta'sir qilish darajasiga bog'liq. Ma'lum bo'lishicha, zarrachalarning kattaligi ham, ularning aloqa qilish chastotasi ham ularning o'zaro ta'sirining intensivligiga ta'sir qiladi, bog'lanish kuchiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, naftalin-formaldegid va melamin-formaldegid kabi superplastifikator moddalar, jumladan Polyplast va Conplast SP 430, elektrokinetik sirt potentsialini o'zgartirib, bog'lovchilar orasidagi molekulararo o'zaro ta'sir kuchini kamaytiradi. Bu o'zgarish zarrachalarning konvergentsiyasiga va kattaroq siqilishga olib keladi [6].

POLYMIX polikarboksilatli superplastifikatorni qo'llash polikarboksilat molekulasiining gidrofobik poliestir zanjirlari tomonidan osonlashtirilgan bog'lovchi zarralarning elektrostatik va sterik omillarning birlashib kelishiga sodir bo'ladigan mexanizmni keltirib chiqaradi. POLYMIX dan foydalanish biriktiruvchi zarralar o'rtasida mustahkamlangan o'zaro bog'lanish imkonini beradi va shu bilan ularning kontaktlarining mustahkamlik xossalariini yaxshilaydi. Gips biriktiruvchi kompozitsionsiyalarda superplastifikatorlar gidratatsiya modifikatsiyasiga olib keladi, yuqori darajada disperslangan gidrat zarralarini hosil qiladi. Qattiqlashuv jarayonida ushbu modifikatsiya ko'plab kuchli nuqta kontaktlarini kiritadi [4,6]. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, POLYMIX bilan gips bog'lovchining qotib qolishi paytida elektr signalining o'zgarishi tsementli tizimlar qotishidagi egri chiziqlarga aynan o'xshash bo'lib, bu xolat qattiqlashuv jarayoniga va POLYMIX bilan gips toshining paydo bo'lishiga foydali ta'sir ko'rsatadi [5].

Gips dispersiyasidagi superplastifikatorlar suvdan foydalanishni sezilarli darajada optimallashtiradi va gipsning gidratatsiya reaksiyasining stoxiometriyasiga mos keladigan ideal suv-gips nisbatini o'rnatadi. To'g'ri suv-gips balansiga erishish juda muhim, chunki bu nisbatni kamaytirish nafaqat kinetikaga, balki gips bog'lovchining gidratatsiya mexanizmiga ham ta'sir qiladi, bu esa o'z navbatida qo'shimcha bilan gips toshining tuzilishi va xossalariiga ta'sir qiladi. Binobarin, gips dispersiyasi uchun superplastifikatorlarni ishlab chiqish va qo'llash ularning qattiqlashuv kinetikasi va mexanizmiga ta'sirini hisobga oladi. Muhim fikrlarga bog'lovchi dispersiyaning pH va barqarorligi, superplastifikatorlarning gipsning morfologiyasi va zarracha hajmiga ta'siri, ularning gips zarrachalari yuzasiga adsorbsiyasi va gips asosidagi aralashmalardagi boshqa qo'shimchalar bilan muvofiqligi kiradi. Superplastifikator qo'shimchalarni ishlab chiqishda ushbu jihatlarni hal qilish kerakli konstruksiya va texnik xossalariga ega bo'lgan materiallarni ishlab chiqarish uchun kalit hisoblanadi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, biz keyingi tadqiqotlar uchun POLIMIX polikarboksilatli superplastifikatorni tanladik, chunki yuqorida ko'rib chiqilgan barcha turdagi superplastifikatorlardan kelib chiqishi tabiati bo'yicha eng samarali hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Tolipov N. X., Jo'raev N. X., Talipov D.N., Ravshanov Z.A., Gips polimer materiallarini fizik-kimyoviy o'rganish va ularning xossalarini qayta ishlash. Toshkent, J.: Kompozitsion materiallar. 2015 yil, 2-son, 82-83-betlar. 6.
2. Gorshkov VS, Timashev VV, Savelyev VG Metodiya fiziko-ximicheskogo analiza vyazhushchikh veshchestv [Birlashtiruvchi moddalarni fizik-kimyoviy tahlil qilish usullari]. - 1981. - 335 b.

3. Talipov N. X., Dosanova G.M., Talipov D.N., Qodirov A.A. Gips polimer tarkibini hosil qilish jarayonining strukturasini tekshirish. Toshkent, J.: Kompozitsion materiallar. 2015 yil, 4-son, 2-bet. 82.
4. Talipov N. X., Gipsli bog'lovchilar asosida kompozitsion qurilish materiallarining xossalariini yaxshilash // Kompozitsion materiallar.-2004. - № 2, 47-49-betlar.
5. FisherH-B., Hennino O. Zur Massungder Verzogerungderb Hydration Branntgips. Silikattexnika. - 42 (1991) 10.- S 333-337.
6. ShlenkinA.S.. Har xil tabiatdagi plastifikatorlardan foydalangan holda gips mahsulotlari texnologiyasini takomillashtirish va sifatini oshirish.//Dis. uchun ariza uchun. tex.nauk. - Magnitogorsk, MSTU. - 2007 - 110c.
7. MaxamataliyevI. M.,Turg'unbayev U.J.,Turg'unboeva J.R., Ro'zmetovF.Sh.,(2022). Polikarboksilat Superplastifikator Polimixning gips bog'lovchining ishlash xossalariiga ta'siri haqida. Nexus: muhandislik fanining ilg'or tadqiqotlari jurnali1(4), 62-65.
8. Turg'unboyev U. va Turg'unboyeva J. (2023 yil mart).Samarqand va Buxoro gipsleri asosidagi kompozitsion gipsli bog'lovchi olish usullari.AIP konferensiyasi materiallarida (2612-jild, 1-son). AIP nashriyoti.
9. Turg'unbayeva, J. R. (2021). Metallurgiya shlaklari va plastifikatsiyalovchi qo'shimchalar bilan to'ldirilgan gipsning xossalari to'g'risida. InE3S konferentsiya tarmog'i (264-jild, 02027-bet). EDP Fanlar.
10. Turg'unbayeva, J. R. (2017). Metallurgiya shlaklari bilan to'ldirilgan qurilish gipsining xossalari haqida. “Milliy taraqqiyot” Davlat ilmiy-tadqiqot instituti konferensiyalari materiallarida. 2017 yil sentyabr (19-23-betlar).
11. Turg'unbayeva, J. R. (2020). Shlakli to'ldiruvchi va kimyoviy qo'shimchali qo'shimcha bilan gips kompozitsiyalarining xossalari haqida. TASHIIT-Toshkent, 129-132.
12. Turg'unboev, U., Sharipova, D., Turg'unbayeva, J., &Tyxtaboev, E. (2023). Mahalliy xomashyodan foydalangan holda avtoklavlanmagan gazbetonning xossalari haqida.Eurasian Journal of Academic Research,3(5), 22-29.
13. Turg'unboeva, ZR, Ismailova, G.B., Yakhyayeva, MT, &kiziAlieva, GT (2021). Buxoro viloyati er osti suvlaridan yetarli darajada foydalanilmaganligi sababli sho'rlangan tuproqlarda qurilish muammosi.International Journal on Orange Technologies,3(3), 147-152.
14. Raximberdieva TJ va Baxtiyarovich KA (2023). Gips bog'liqlar asosida Energiya Samarali va Ekologik Qurilish Materiallarini ishlab chiqarishda Innovatsiyaning Muhimligi. Yangi asr innovatsiyalari jurnali, 28(4), 98-105.
15. Maxamataliyev, IM, Turg'unboeva, J. R., Toshev, N.K., & Ro'ziboev, R. Sh. (2023). Po'lat ishlab chiqaruvchi cürufdan mineral plomba moddasining kompozitsion gipsli bog'lovchining tuzilishi va xossalariiga ta'siri. Universal Science Research jurnali, 1(5), 663-674.
16. Turg'unboeva, J. R., Rahmatullaev, FS, &Raimov, MK (2023). Po'lat quyish shlaklarini mexanik faollashtirish va gips aralashmalari uchun nozik plomba ishlab chiqarish jarayonini tekshirish. Scientific Impulse,1(10), 1095-1106.
17. J.R.Turgunbayeva*, Z.M.Mirzayeva va Yo. T. Hakimova Mineral plomba moddasining dispersiyasi va tarkibining gips bog'lovchining tuzilishi va xossalariiga ta'siri.E3S

Web of Conferences 401, 03020 (2023) CONMECHYDRO – 2023 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340103020>.

18. JR Turg'unbayeva*, G.B.Ismoilova va K.M.Jo'raev Po'lat quyish shlaklarini mexanik faollashtirish va nozik to'ldiruvchini olishning tadqiqoti E3S Web of Conferences 401, 02039 (2023) CONMECHYDRO – 2023 <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340102039>.

19. Maxamataliyev I.M., Turg'unboyev U.J., Turg'unbayeva J. R., Boltaboev K., & Nomozov A. (2023). Polikarboksilatli superplastifikator polimiksning gips bog'lash fanining ishlash xossalariiga ta'siri va dunyodagi innovatsion g'oyalar, 22 (8), 57-62. Qaytadan olindi <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/7181>.

20. Solomatov VI, Vyrovoy VN Fizicheskie osobennosti formirovaniya struktury kompozitsionnykh stroitelnykh materialov [Kompozitsion qurilish materiallari strukturasini shakllantirishning fizik xossalari]. Izv.Vuzov. Qurilish va arxitektura. -1984 yil. - No 8. - 59-64c.

21. Turg'unbayeva J. R., Muxiddinov F, & Turdiboev S. (2023). Samarqand va buxoro qurilish gipsi asosidagi kompozitsion gipsli bog'lovchi olish usullari. Ilmiy impuls, 1 (10), 1107-1115. Qaytadan olindi <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/9611>.

22. Turg'unboeva JR, Yakhyeva MT, Alieva G.T., Buxoro viloyati yer osti suvlaridan oqilona foydalanish muammolari. Ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar tendentsiyasi xalqaro jurnali (IJTSRD). -3, 2020 yil. www.ijtsrd.com.

23. Turg'unboeva J.R., Jo'raqulova F.S., Kidirniyazov A.B., (2023). Gips bog'lovchilar asosidagi energiya samarali va ekologik qurilish materiallarini ishlab chiqarishda innovatsiyaning muhimligi, *Yangi asr innovatsiyalari jurnali*, 28(4), 98-105. Journal of New Century Innovations, 28(4), olindi <http://www.newjournal.org/index.php/yangi/maqola/view/6344>.

24. Turg'unboeva J. R., Yaxyaeva M.T., Gips mahsulotlari ishlab chiqarishda innovatsiyalarning ahamiyati. Respublika miqiyosdagi ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami.-7, 2021-yil. www.tstu.uz.

25. Hakimov, Abdubiqi, Gullola Kutumova, Zamira Mirzaeva. “Metrolar qurilishida geodeziyani avtomatlashtirishni qo'llab-quvvatlashni rivojlantirishning hozirgi tendentsiyalari”. E3S Web of Conferences. jild. 168. EDP fanlari, 2020.

26. Maxamadazhizovna, Mirzayeva Z., va Rasulmuhamedov M. Mahamadinovich. "O'zgaruvchan yuklar ostida fazoviy tuzilmalarni hisoblashni matematik modellashtirish". NX jurnali, 7-jild, № 05, 2021 yil, 246-249-betlar, doi:10.17605/OSF.IO/N9M47.

НЕФРОТИК СИНДРОМ БИЛАН КЕЧУВЧИ МЕЗАНГИОМЕМБРАНОЗ ГЛОМЕРУЛОНЕФРИТНИНГ МОРФОМЕТРИК ХУСУСИЯТЛАРИ.

Аллабердиев БотирТурсинбаевич, Рахмонова Шахноз Каххоровна
ТДСИ, “Физиология ва патология” кафедраси

Кириш: Кейинги йилларда буйрак касалликларида юзага чиқадиган струк-тур-функционал ўзгаришларни ҳамда касалликнинг патогенезини ўрганишда сезиларли муваффақиятларга эришилди. Шу билан бирга ажратув системаси ка-салликларнинг кўпайиши, унинг асосий қисмини нефротик синдром билан давом қилувчи гломерулонефритларнинг (Гн) ташкил қилиши, касал-ликнинг тез авж олиб бориши натижасида сурункали буйрак етишмовчили-гининг ривожланиши касалликни эрта ташхислаш заруриятини туғдирмокда [1,12]. Адабиётларда берилган маълумотларга кўра, беморларнинг яшаб қола олиш имконияти мембраноз пролифератив Гн нинг биринчи типиди 5 йилдан кейин 80% ни, иккинчи типиди 70 % ни ташкил қилади. 10 йилдан кейин эса биринчи типда 50 %, иккинчи типда 40% беморлар яшаб қолади. Бир оз ижобий натижа мембраноз пролифератив Гн нинг учинчи типиди кузатилади [2,12,13]. Мембраноз Гн да касаллик бошланганидан 15 йил ўтиб 50 % беморлар сурункали буйрак етишмовчилидан азоб чекади [4] 34 % беморларда доимий протеин-урия ёки нефротик синдромнинг қайталаниб туриши кузатилади, факатгина 16 % беморлардагина протеинурия ўз-ўзидан йўқолиб кетиши мумкин, қолган беморларда протеинурия сурункали бўлади ёки нефротик синдром қайталаниб туради [5,6,13].

Калит сузлар: нефротик синдром,гломерулонефритнинг морфологик формаси.

Аннотация. Изучены результаты биопсий, полученных от больных с нефротическим синдромом. Необходимые материалы для исследований были собраны от больных, находившихся на лечении в нефрологическом отделении 1-й поли-клиники МЗ РУз. Всестороннее клинико лабораторное обследование проведено у 104 больных. Из них у 58 установлена протеинурическая форма хронического гломерулонефрита. Средний возраст больных составил 24,9±5,2 года. В зависимости от морфологического варианта гломерулонефрита все больные были распределены на 5 групп. Данные корреляционного анализа изученных морфо-метрических параметров и данные рутинных лабораторных исследований позволили создать математическую модель, с помощью которой можно опреде-лить морфологическую форму хронического гломерулонефрита.

Ключевые слова: нефротический синдром, морфологическая форма гломеру-лонефрита.

Morphometric features of mesangiomembranous glomerulonephritis with nephrotic syndrome.

Resume.

The results of biopsies obtained from patients with nephrotic syndrome were studied. Necessary material for research was collected from patients, naxodivshikhshya na lechenii and nephrological department of the 1st polyclinic MZ RUz. A comprehensive clinical and laboratory examination was performed in 104 patients. Of these, 58 had a proteinuric form of chronic glomerulonephritis. The mean age of the patients was 24.9±5.2 years. Depending on the

morphological variant of glomerulonephritis, all patients were divided into 5 groups. The data of the correlation analysis of the studied morphometric parameters and the data of routine laboratory studies made it possible to create a mathematical model that can be used to determine the morphological form of chronic glomerulonephritis.

Key words: nephrotic syndrome, morphological form of glomerulonephritis.

Ички аъзолар касалликлари орасида сурункали гломерулонефрит (СГн) етакчи ўринни эгаллайди. Бу назарий ва амалий нефрологияда сурункали буйрак етишмовчилиги билан ривожланиб боровчи СГн ларни тўғри ташхислаш ва уларнинг оқибатларини олдиндан баҳолаш қанчалик муҳим эканлигини тасдиқлайди.

Б.И Шулутко берган маълумотларга кўра кўплаб сурункали буйрак касалликлари орасида СГн лар алоҳида ўринни эгаллайди. Соҳа бўйича бир қанча муваффақиятларга эришилганлигига қарамасдан СГн ларнинг ижобий ёки салбий оқибатларини олдиндан башорат қилиш қийинлигича қолмоқда. Буларнинг барчаси бизни ушбу тадқиқотларни олиб боришга ундади, илмий изланишлар жараёнида нефротик синдром билан кечувчи гломерулонефритнинг турли хил морфологик шаклларида протеинурия даражаси, умумий оқсил миқдори ва бошқа лаборатор параметрлар ҳамда морфометрик маълумотлар ўртасидаги боғлиқликни аниқлашга ҳаракат қилинди.

Материаллар ва услублар: Ўз олдимизга қўйган вазифаларни ечиш учун клиник томондан нефротик синдром билан характерланувчи 104 та бемордан олинган биопсия материалларини ўрганиб чиқдик. Текширишлар учун керакли бўлган материаллар Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирлиги 1–клиникасининг нефрология бўлимида даволанган беморлардан йиғилди. Бемор-ларга қўйилган ташхис, уларни комплекс клиник-морфологик текширишлар асо-сида тасдиқланди. 104та беморда ҳар томонлама клиник-лаборатор текширишлар ўтказилиб, шуларнинг 78 тасида керакли маълумотлар аниқланиб, баённомалар тўлдирилди. Буйракнинг пункцион биопсияси ультратовуш сканер аппарати назорати остида "ВІР" (Германия) ниналари ёрдамида амалга оширилди. Кейинги текширишлар учун касалликнинг протеинурик шакли билан оғриган 58 та бемор олинди. Текшириш учун олинган материаллар Гн нинг морфологик вариантларига боғлиқ ҳолатда, айна вариантларга мос келувчи гуруҳларга ажратиб чиқилди. Беморларнинг 58 тасида (74,4 %) сурункали Гн нинг протеинурик шакли, 19 тасида (24,3 %) аралаш ва 1 тасида (1,3 %) эса гематурик шакли кузатилди. Протеинурик шаклда аёл ва эркак беморлар орасида касалланиш деярли бир хил бўлиб, эркаклар 56,4 % ни, аёллар 43,6 % ни ташкил қилди, беморларнинг ўртача ёши 24,9±5,2 йилга тенг бўлди. Сурункали гломерулонефритнинг морфологик шаклиларни аниқлаш мақсадида олинган биопсия намуналари гематоксилин ва эозин, Вангизон бўйича пикрофуксин билан бўялди, Шиф-йод кислотали реак-цияси ўтказилди ва имунофлуоресценсия текширувлари ўтказилди.

Натижа ва муҳокамалар; Беморлардан 23 тасини мезангиопролифератив, 14 тасини мембраноз, 11 тасини мезангиомембраноз, 4 тасини мезангиокапилляр, 4 тасини фибропластик, 2 тасини фокаль сегментар гломеруляр склероз ташкил қилди. Нефротик синдром юзага чиққан 11та беморда мезангиомембраноз Гн аниқланди. Уларнинг 10 тасини эркаклар, 1 тасини аёллар ташкил қилди. Бемор-ларнинг ўртача ёши 31,3±3,1 га тенг бўлди.

Ушбу гуруҳга кирган беморларнинг оёқ, қўл, юз ва тана қисмларида ҳар хил даражада ривожланган шишлар кузатилди.

Лаборатор кўрсаткичларни таҳлил қилиш қондаги эритроцитлар ($P<0,3$; $4,1\pm0,2\cdot10^6$) ва лимфоцитлар миқдорининг ($P<0,6$; $30.01\pm2,5$ %) норма атрофида эканини, қондаги

умумий оксил миқдорининг ($P<0,05$; $45,3\pm 2,5$ г/л) ишончли даражада камайганлигини ва креатинин миқдорининг ($P<0,04$; $2,9\pm 1,4$ мг%) сезиларли даражада ошганлигини кўрсатди. Сийдикда эса протеинуриянинг ($P<0,03$; $7,1\pm 1,5$ г/л; $3,2\pm 0,8$ г/с, $P<0,01$) сезиларли даражада ошганлиги, коптокчалар фильтрациясининг ($P<0,004$; $43,1\pm 5,4$ мл/мин) ишончли даражада камайганлиги кузатилди, бунда реабсорбция жараёни деярли нормада сақланиб қолди ($P<0,1$; $97.3\pm 0.4\%$), сийдик таркибидаги лейкоцитлар ($P<0,009$; $7,6\pm 1,4$), ўзгармаган эритроцитлар ($P<0,01$; $5,2\pm 0,5$) ҳамда гиалинли цилиндрлар сонининг ошганлигини кўрсатди ($P<0,03$; $6,3\pm 1,4$).

Буйракдан олинган биоптатларни микроскопик томондан текшириб кўрганда мезангий соҳасида иммункомплексларнинг ўтириб қолиши ҳисобига, ушбу соҳанинг кенгайиб қолиши кузатилди. Буйракнинг эгри-бугри найчаларида дистрофик ўзгаришлар билан биргаликда, стромасида моноклеар инфильтрация аниқланди.

Буйракни морфометрик томондан текшириш коптокчалар юзасининг ($26870\pm 1306,3$ мкм²) назорат килиш учун олинган гуруҳга ($22642\pm 1268,7$ мкм²) нисбатан ишончли даражада катталашганлигини кўрсатди ($P<0,01$). Коптокчалар юзасининг бундай катталашуви коптокчалар капилляри кесими юзасининг (текширилаётган гуруҳ $58,6\pm 1,3$ мкм², назорат учун олинган гуруҳ $47,2\pm 2,5$ мкм²; $P<0,001$), мезангиал хужайралар сонининг (текширилаётган гуруҳ $53,4\pm 1,4$, назорат учун олинган гуруҳ $22,2\pm 0,8$; $P<0,01$), коптокчадаги хужайралар сонининг (текширилаётган гуруҳ $152,4\pm 3,6$, назорат учун олинган гуруҳ $107,6\pm 3,8$; $P<0,01$) текширилаётган гуруҳда назорат учун олинган гуруҳга нисбатан ишончли даражада юқори эканлиги ҳисобига келиб чиқди. Морфометрик ўзгаришлар, шунингдек буйрак найчаларида ҳам кузатилди. Буйрак эгрибугри найчалари томонидан юзага келган ўзгаришлар, эгри-бугри найча кесим юзасининг (текширилаётган гуруҳ $2664\pm 79,6$ мкм², назорат учун олинган гуруҳ $2475,0\pm 129,2$ мкм²; $P<0,1$) ҳамда эпителиал хужайралар юзасининг (текширилаётган гуруҳ $148,9\pm 3,4$ мкм², назорат учун олинган гуруҳ $152,7\pm 5,3$ мкм²; $P<0,2$) ўлчамлари, текширилаётган гуруҳда назорат учун олинган гуруҳга нисбатан сезиларсиз даражада эканлигини кўрсатди. Шунингдек, эгри-бугри найчадаги хужайралар сони текширилаётган гуруҳда ($13,2\pm 0,2$) назорат учун олинган гуруҳга ($11,6\pm 0,3$) нисбатан ишончли равишда ($P<0,0001$) ошганлигини кўрсатди. Охирги ўзгаришлар кўринишидан эпителиал хужайраларнинг дистрофик-атрофик ўзгаришларга нисбатан жавоб реакцияси сифатида юзага келган.

ХУЛОСА

1. Нефротик синдромнинг ривожланишида сурункали Гн нинг ҳар бир морфологик шакли турлича ўринларни эгаллаб, жумладан, мезангиомембраноз Гн ўрни -18,86% ни ташкил этди.

2. Сурункали Гн нинг ҳар бир морфологик шакли ажралиб турувчи морфометрик белгиларга эга бўлиб, хусусан мезангиомембраноз Гн-коптокчаларнинг юзаси ўлчамлари, мезангиал хужайралар сони, эгри-бугри найчалардаги хужай-ралар сонининг ортиқчалиги бошқа шакллардан ишончли даражада фарқ қилди.

3. Юқоридаги олинган маълумотлар нефротик синдром билан давом қилувчи сурункали мезангиомембраноз Гнга мос келувчи математик моделни ишлаб чиқиш учун асос бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар.

1. West G.D. Childhood membranoproliferative glomerulonephritis: An approach to management.// *Kidney Int.*-1986.-Vol. 29 № 8.-P. 1077-1093.
2. Schmit H., Bohle A. Tubulointerstitial alternations in type I membranoproliferative glomerulonephritis. An investigation of 259 cases.// *Path. Res. Pract.* 1987.-Vol.182, №1-P.6-10.
3. Peruzzi L., et al. Tubulointerstitial responses in the progression of glomerular diseases: albuminuria modulates alpha-beta 5 integrin. *Kidney Int.* 1996 Oct; 50(4)1310-20.
4. Mactier R., et al. The natural History of membranous nephropathy in the west skotland.// *Quart J. Med., New Sep.*-1981.-Vol.60, № 232.-P.946-956.
5. Honkanen E. et al. Membranous glomerulonephritis in rheumatoid arthritis not related to goldor d-penicilamine therapy: a report of four cases and review of the literature.//*Clin. Nephrol.* -1986.-Vol.18. № 2.-P. 87-93.
6. Zucchelli P., Cagnoli L., Pasquali S et al. Clinical and morphologic evolution idiopathic membranous efropathy.// *Clin Nephrol.*- 1986.- Vol. 25.
7. Beck LH, Bonegio RG, Lambeau G. M-type phospholipase A2 receptor as target antigen in idiopathic membranous nephropathy. *N Engl J Med* 361(1):11, 2009. doi: 10.1056/NEJMoa0810457
- 8.Fervenza FC, Appel GB, BarbourSJ, et al: Rituximab or cyclosporine in the treatment of membranous nephropathy. *N Engl J Med* 381(1):36-46, 2019. doi: 10.1056/NEJMoa1814427
9. Ronco P, Debiec H. Molecular pathogenesis of membranous nephropathy. *Annu Rev Pathol Mech Dis.* 2020. 15:287–313 2.
10. Alsharhan L, Beck LH. Membranous Nephropathy: Core Curriculum 2021. *Am J Kidne Dis.* 2020; XX(XX):1-14. doi:10.1053/j.ajkd.2020.10.009 3.
11. Xu Z, Chen L, Xiang H et al. Advances in Pathogenesis of Idiopathic Membranous Nephropathy. *Kidney Dis.* 2020 Sep 6(5): 330-345. doi: 10.1159/00050770
12. Аллабердиев Б. Т. и др. Морфометрические особенности каждой морфологической формы гломерулонефрита, сопровождающейся нефротическим синдромом //Вестник Совета молодых учёных и специалистов Челябинской области. – 2016. – Т. 1. – №. 1 (12). – С. 3-13.
13. Аллабедиев Б.Т. Дон А.Н., Реймназарова Г.Ж. Нефротик синдром билан ке-чувчи мембраноз гломерулонефритнинг морфометрик хусусиятлари ва морфо-лаборатор кўрсаткичларнинг корреляцин боғлиқлиги. 2022. 4-съезд патолого-анатомов Узбекистана с международным участием, посвященный 90-летию академика М.С Абдуллаходжаевой. Специальный выпуск. С. 120-123.

HUMOYUN AKBAR SHE’RIYATIDA VATAN MAVZUSI

Rahmonberdiyeva Nurjahon Humoyun qizi

ToshDO‘TAU

Annotatsiya. Maqolada Humoyun Akbar she’riyatida Vatan konsepti masalasi shoirning qator she’rlari asosida tahlil etilgan. Shoir she’rlaridagi Vatan madhi, g‘oyasi biografik metod asosida tushuntirilgan. Tasvir uslubi, peyzaj masalalari misollar asosida aniqlangan.

Kalit so‘zlar: konsept, ifoda usuli, shakl va mazmun, fonetik uslub, lisoniy birlik, badiiyat, ritm, metafora, uslubiyat.

Abstract: Based on the poet’s poems, the article analyzes the problem of the concept of the Motherland in the poems of Humoyun Akbar. The idea of the national anthem in the poet’s poems is explained on the basis of the biographical method. Image style, landscape issues are defined on the basis of examples.

Keywords: concept, way of expression, form and content, phonetic style, linguistic unity, art, rhythm, metaphor, methodology.

Adabiyotga har bir shoir o‘z dunyoqarashi, fikrlari va tuyg‘ulari bilan kirib keladi. Uning o‘z aytadigan so‘zi bo‘lmasa, o‘z o‘quvchilari bo‘lishi amrimaholdir. Garchi, she’riyat inson tuyg‘ularining rangin tasviri hisoblansa-da, she’rda biron teran fikr, g‘oya o‘z aksini topishi lozim. Ayniqsa, bugungi kun o‘quvchisining talablari juda yuqoriligini hisobga olsak, she’r benuqson taqdim etilishi kerak. Vatan tuyg‘usi har bir yurakda har xil jilvalanadi. Vatan haqidagi she’rlarning nafis va diltortar ohanglariga mast bo‘lish bilan birgalikda ba’zi zo‘raki madhiyalarning qofiyalari orasida adashib qolish ham hech gap emas. Ammo, O‘zbekiston Qahramoni, O‘zbekiston Xalq shoiri ta’biri bilan aytganda, Humoyun Akbarning “tuyg‘ulari samimiy” va “izhorlari rost”. Shoirning ilk she’riy to‘plamlaridagi “E’ritof”(1988), “Bu bolaga xayol bering”(1989), “Vatangado”(1998), “Men tug‘ilgan uy”(1998), “Qishloq”(1999) “Talabalar shaharchasida”(1999) turkumidagi she’rlarida tug‘ilib o‘sgan uyga, qadrdon so‘qmoqlarga, ona qishloqqa, ota makonga muhabbat izhor etilgan bo‘lsa, keyinroq “Vatanni his etish”(2010), “Afsonalar yurti”(2012), “Bir siqim tuproq”(2012), “Nasaf qal’asi”(2012), “Afrosiyob tepaliklari (2012), “Dovon yo‘li” (2012), “Samarqand yo‘lida”(2012), “Sirdaryo”(2012), “Mirzacho‘l”(2012), “Yer isi”(2012), “Andijonda qurilmagan minoralar”, (?) “Vatan ranglari”(2022), yangi she’rlardan “Bu yurti bilmaslar”, “Jahon ayvonida”, “Bug‘doyzor” “Andijon” she’rlarida qamrov ancha kengayib shoir o‘zining yurtiga, Vataniga, Yerga mehr tuyadi. Ijodkor uchun endi nafaqat Andijon, balki Samarqand, Buxoro, Sirdaryo, Mirzacho‘l, hatto Qoraqalpog‘iston ham Vatandir. U endi o‘zini butun Yer yuziga daxldor deb biladi.

Humoyun Akbar she’riyati nafis tuyg‘ularga, lirik kechinmalarga juda boy. U qaysi mavzuda qalam tebratmasin, hodisani butun qalbi bilan his eta oladi. Ohori to‘kilmagan, yangiroq ibora yo tashbehlar topadi. Ba’zan mukammal, quyma satrlar kashf etadi. Masalan, uning ona qishlog‘i haqidagi she’rida yorqin bir mehr nuri tovlanib turibdi:

Salom,
Meni kutgan-kutmagan,
Kuzgi gullar,
Oltin yaproqlar,
Dalalarning ko‘ksidan o‘tgan,
Dehqon umri kabi so‘qmoqlar!

Bu jonli manzara, kishi ko‘z o‘ngida uzoq bolalikdagi kichik bir qishloqning surati, mehnatkash, betinim qishloqning siyrati va ziynati! Shoirning xayoli chuksiz, yeru-osmonni kaftida ko‘rib turganday:

To‘lin oymomani quchoqlab olib
Bulutlar ustidan tashlaysan odim.

Shoir falsafiy chuqur, aytadigan gapiga o‘quvchini ishontirish, yolg‘on hissiyotga berilmaslik kabi holatlarni ustalik bilan ifodalay oladi. Uning “Ishonchsizlik” sarlavhali she‘rida shunday satrlarga duch kelamiz:

Bu ko‘chaning gadolari ko‘r,
Gadolarning duolari ko‘p,
Duolarning xatolari ko‘p,
Bo‘larmikan bari ijobat?

Tabiat manzaralarini so‘z bilan aynan chizish, uning asl qiyofasini buzmaslik uchun shoirning ko‘zi o‘tkir, zehni sezgir, ilhomi uyg‘oq bo‘lishi lozim. “Tog‘larning ko‘z yoshlari” she‘ridagi quyidagi misralarga e‘tibor beraylik:

Biz yo‘qotgan hazina, xayol,
Bizga tinchlik bermagan o‘ylar,
Tog‘larning ko‘z yoshiday zilol,
Buloqlarning tilida kuylar.

Shoirning “Dars”, “Hayot”, “Parvona”, “Andijon”, “Shukrona” kabi she‘rlarida o‘quvchini o‘yga toldiradigan, uni adolat va haq ishiga undaydigan ruhiy quvvat mavjud bo‘lib, yurak tafti, tuyg‘ular silsilasi satrlardan satrlarga ko‘chadi, xulosa esa yaxlit, dangal aytiladi. Ulug‘ adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov ta’kidlashicha, shoir iste’dodli bo‘lishi mumkin, ammo u mayda-chuyda kayfiyat xolatlari atrofida o‘ralashib qolsa, yozganlari odamlar xotirasida iz qoldira olmaydi. Humoyun Akbar hamisha omma ichida, ayniqsa, yoshlar bilan ishlaydi, nafas oladi, ularning orzulari, intilishlari, hayotga munosabatlarini teran anglash uning ijodida yangi omil, ko‘tarilish yo‘lini ochib berishi mumkin. Mustaqillik hamma sohada o‘zgarish, yangilanish kabi imkoniyatlarni yaratib berdiki, buni badiiy adabiyot sohasida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Erk va hurlik, o‘z yeri, o‘z Vatani kelajagini qo‘lga olgan xalq baxt-saodati haqida qayg‘urish har bir ijodkorning asosiy burchidir. Humoyun Akbar bir she‘rida o‘zini-o‘zi tan olib shunday deb yozadi:

Ey, otalar yurti, muqaddas tuproq,
Hanuz bitolmadim sen kutgan she‘rni,
Bahoring gullarin ocharmi tezroq,
Oftob nurlariday sochilsa mehrim.

Shoirning “Ko‘nglim guli” kitobiga “Qalb qal’asi” nomli lirik dostoni ham kiritilgan. Avvalo, shoirning she‘rdan dostonga o‘tadigan ko‘prik haqida. Bu tajriba, bu hayot faktlari, bu tuyg‘ular birlashib paydo bo‘lgan hosila – maydon, hodisa voqealarning mazmun birligi, g‘oya

maqsad esa, asarning o‘zidir. Humoyun Akbar dostonida qalb kechinmalari, ruhiyatda mavjud bo‘lgan unsurlar orqali (jonli) shaxslar sifatida o‘ziga xos ixcham uslub bilan tasvir этилади. Unda makon, ixlos, e‘tiqod, burch, vafo obrazlariga qarama-qarshi shubha, gumon, yolg‘on ham hayol, qat‘iyatsizlik, bevafoqlik kabi hislatlar aks этирилади. Maqsad aniq - inson yuksak, oliy tuyg‘ular sohibi bo‘lishi lozim deyiladi. Muallif boy milliy dostonchiligimiz hazinasida to‘plangan, xalq va zamonlar imtihonidan o‘tgan uslublarni o‘z iqtidori darajasida o‘zlashtirib borayotgani, o‘ziga xos so‘qmoqlar topayotgani yaqqol seziladi.

Adabiyot inson ruhiyatini o‘rganadi, aks ettiradi. Tadqiqotlarimiz natijasida ma‘lum bo‘ldiki, 1998-yilda shoir huzmat safari bilan Hindistonda bo‘ladi. Uning “Hind daftari” to‘plamidan tashqari ba’zi she‘rlarida ham buning ta’siri sezilib turadi. Shoirning 1998- yilda yozilgan “Vatangado” she‘ri e‘tiborimni tortdi. Unda Vatandan ketgan har qanday odam “sargardon” yoki “surgunda” deb beriladi. Ular Vatanning har bir maysasiga jon fido qilgudek. U nuroniy chollarni, ularning juma namozidan qaytishlarini, ayniqsa, onasinign duosini va uning farzandiga alla aytishlarini sog‘inadi. So‘nggi band esa hammasidan ham ta’sirli:

Tanho, o‘z –o‘zi-la gaplashadi u,
Unutmayin, deya turkiy so‘zini.
Beshak, u sog‘inib yashaydi mangu,
Tug‘ilgan yurtida yurgan o‘zini.

Ba‘zan shoirlarda o‘tkir fikrlar kelganda qofiya buzilishlari ro‘y beradi. Gohida eng ajoyib topilmalarini yozayotganda umuman “oq she‘r”lar paydo bo‘lishi ham mumkin. Humoyun Akbarning bu she‘ri kuchli hissiyot bilan tugallanmoqda. Inson ulg‘aygani sa‘ri bolalikdagi o‘zini sog‘inishini his qilib ko‘rmagan inson bo‘lmasa kerak. Bu tuyg‘u ba‘zan ko‘zlarimizni yoshlatadi. Shu tuyg‘u asosida tasavvur qilib ko‘rish mumkinki, “tug‘ilgan yurtida yurgan o‘zini” sog‘inayotgan insonning olisdagi xoh yaxshi, xoh yomon hayotidan ko‘ngli qanchalar to‘lmasligini, har qanday maskan ham Vatandek qadrlil bo‘la olmasligini. Bu tuyg‘uning qanchalar sog‘inchli va alamli ekanligi she‘rdan o‘quvchining yuragiga osongina ko‘chadi.

Vatan mavzusi zamonaviy o‘zbek she‘riyatida aloida yirik ko‘lam kasb etadi. Bu alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Vatan tuyg‘usi g‘oyasini o‘quvchilar ongiga singdirish, vatan konseptining she‘riyatda aks etishini tahlil qilish har doim o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydigan va dolzarblik kasb etadigan mavzu bo‘lib qolaveradi. Vatan mavzusi shoir qalami bilan o‘ziga xos yoritilgan. Insonning mehr-muhabbati, avvalo, o‘zlikka, o‘zi daxldor bo‘lgan diyorga, o‘z ona yurtiga bo‘lgan sadoqati va ehtiromi bilan namoyon bo‘ladi. Shoirning Vatan haqidagi she‘rlari yigirmadan ortiq. Ularning tahlilini keying izlanishlarimizda, albatta, davom ettiramiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirvaliyev S., Shokirob R. O‘zbek adiblari. – Toshkent, 2007.
2. Boltaboyev. So‘z sehri. – Toshkent, 2006. – B.98
3. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent, 2006. – B.78
4. Hamdamov U. Yangilanish ehtiyoji. – Toshkent, 2007. – B.196
3. Humoyun Akbar. Yurakdagi rangin kamalak. – Toshkent. 1997.
4. Humoyun Akbar. Unutilgan gul. – Toshkent. 1998
5. Humoyun Akbar. Dilxiroj. – Toshkent. 1999

6. Humoyun Akbar. Ko‘nglim guli. – Toshkent. 2005
7. Humoyun Akbar. Yoshlik bekati. – Toshkent. 2008
8. Humoyun Akbar. Intihosiz navolar. – Toshkent. 2012

TILSHUNOSLIKDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: CHET TILLARNI O‘RGATISHDA NOAN‘ANAVIY USULLARNING ROLI VA AHAMIYATI

Inog‘omjonova Robiya Rustamjon qizi

Toshkent davlat transport universiteti

Abstract. In the modern education system, methods of teaching foreign languages are rapidly evolving. With the effectiveness of traditional teaching methods and the advent of new technologies, non-traditional teaching approaches have gained significant importance. These approaches not only engage students more deeply in the learning process but also help accelerate and enhance the development of their language skills. This article analyzes the importance and effectiveness of using non-traditional methods, as well as new approaches in linguistics and foreign language teaching.

Keywords: linguistics, non-traditional methods, foreign language teaching, interactive teaching, technologies, pedagogical approaches, innovations, teaching effectiveness, educational technologies.

Annotatsiya: Zamonaviy ta'lim tizimida chet tillarni o'rgatish usullari tez sur'atlar bilan o'zgarib bormoqda. An'anaviy ta'lim usullarining samaradorligi hamda yangi texnologiyalarning kirib kelishi bilan noan'anaviy o'qitish usullari muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Chet tillarni o'rganishda bu yondashuvlar nafaqat talabalarni o'qitish jarayoniga chuqurroq jalb qiladi, balki ularning til ko'nikmalarini yanada tez va samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqola noan'anaviy usullardan foydalanishning ahamiyati va samaradorligi, shuningdek, tilshunoslik va chet tillarni o'rgatishda yangi yondashuvlarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, noan'anaviy usullar, chet tillarni o'rgatish, interaktiv o'qitish, texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar, innovatsiyalar, o'qitish samaradorligi, ta'lim texnologiyalari.

KIRISH: Kun sayin rivojlanib borayotgan davrda chet tillarini o'rganish nafaqat kommunikatsiya, balki madaniyatlararo muloqot va global iqtisodiyotda muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun ham zarur hisoblanadi. Ta'lim tizimining tez o'zgarishi va yangi texnologiyalarning kirib kelishi chet tillarni o'rgatishda an'anaviy usullarning samaradorligini kamaytirmoqda. Bugungi kunda talabalarning qiziqishini oshirish va o'rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun noan'anaviy yondashuvlarga ehtiyoj ortmoqda. Noan'anaviy usullar, masalan, interaktiv o'qitish texnologiyalari, o'yin asosidagi yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlar talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. Bu yondashuvlar, nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki talabalarni faol ishtirok etishga va o'z fikrlarini ifodalashga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Hozirgi vatqda nafaqat chet tiliga o'qitish bo'yicha balki barcha fanlarga o'qitishni, o'rgatishni yangi-yangi metodlarini izlab topish va uni amalda sinab ko'rish to'g'risida ko'p ishlar qilinayapti. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilash, uchun xal qilinishi kerak bo'lgan eng muhim muammolardan biridir. Agar avval chet tili o'qitish shu til sistemasini o'rganish deb qaralgan bo'lsa, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchilarni chet til nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Shuni aytish kerakki chet til o'rganishdagi bu maqsadlar, o'z-o'zidan yoki boshqa kimsalar yoki shaxs tomonidan qo'yilmaydi, balki lingvistika va psixologiya fanlaridagi o'zgarishlar va jamiyatning ijtimoiy rivojlanib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan: Audiolingval metodni olib ko'raylik. Bu metodning yuzaga

kelishiga lingvistika fanidagi o‘zgarishlar, ya’ni struktural oqimni ta’siri bo‘ldi. U quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

- Chet til o‘rgatish avval og‘zaki nutqqa o‘rgatishdan boshlanmog‘i zarur;
- Til o‘rganish turli strukturalar, nutq na’munalari asosida amalga oshiriladi;
- Mashqlar ham tilga asoslangan holda til materialini ko‘p marta takrorlashni talab qiluvchi mashqlar bo‘lishi kerakligini taqozo etadi;
- Grammanik namunalar va leksikani tanlash chet tili bilan ona tilini qiyoslashning natijalariga bog‘liq bo‘lishi kerak.
- Talaffuzga katta e’tibor talab etiladi.

Bu metodning asosiy kamchiligi, mexanik mashqlarning ko‘pligi va haqiqiy nutq mashqlarining ozligidir. Bu metod asoschilari metodist olimlar Ch.Friz va R.Ladolardir. Masalan: Ch.Friz: boshlang‘ich etapning asosiy mazmuni strukturalarni o‘rganishni tashkil qilishi kerak deydi. Grammatikaning ko‘nikmalarni hosil qilish xam shunga asoslangan bo‘lishi maqsadga muvofiq.[1]

MUHOKAMA: Ta’kidlab o‘tish joizki, o‘quvchilarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish yurtimizda qadimdan rivojlanib kelgan. Turli she’rxonlik kechalarida, bahs-munozaralarda ham shu kabi uslublarni ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan. Bu usullar talabalarning tafakkur, zehn, mulohaza, iste’dod va nutqlarini rivojlantirish orqali ularni o‘z mustaqil fikriga ega, barkamol hamda komil inson bo‘lib shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda. Ko‘rinib turibdiki, interfaol usulning eng asosiy maqsadi o‘quv jarayonlarida ta’lim sifatini oshirishga qulay sharoit yaratish orqali o‘quvchining faol fikr yuritishiga erkin atmosfera yaratishdir. U o‘zining potensialidagi imkoniyatlarini va aqliy salohiyatini namoyon etadi va o‘quv samaradorligi va sifatini oshirishga yordam beradi. Interfaollik asosida darslar shunday tashkil etiladiki, dars jarayonida hech bir o‘quvchi chetda qolmaydi. Har biri o‘zining o‘ylagan fikrlarini, bilimlarini ochiq-oydin, tortinmasdan bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki interfaol usullarda asosiy e’tibor faqatgina o‘qitish, bilim berishga emas, balki ularning fikrlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligidan qat’i nazar fikrlashga undashga, darsga jalb qilishga qaratilgan. Interfaol usullar ko‘p turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday progressive usullar kabi eng avvalo, o‘qituvchidan mashg‘ulot oldidan katta tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Dars jarayonini oqilona tashkil etishda o‘quvchilarni rag‘batlantirib turish, turli kichik-kichik materiallardan foydalanish, mavzuga oid savollar berib aqliy hujum tashkil etish, muammoli vaziyatlar berish, bahs-munozaralar o‘tkazish, kichik guruhlarda ishlash kabi metodlar katta ahamiyatga ega va bu har qanday past o‘zlashtiruvchi o‘quvchini ham o‘z ustida ishlashga undaydi.[2,3,4]

TAHLIL VA NATIJALAR: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, noan’anaviy usullardan foydalanish talabalar til o‘rganish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi va tezlashtiradi. Bu yondashuvlar orqali talabalar nafaqat tilni grammatik jihatdan o‘zlashtiradi, balki uni muloqot uchun samarali ravishda qo‘llay boshlaydi. Masalan, interaktiv dars usullaridan foydalanish talabalarning faol ishtirokini ta’minlaydi, bu esa ularning tilga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi. Talabalar o‘zaro muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu ularning so‘zlashuv ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, onlayn platformalar orqali o‘rgatish ham samaradorlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Masofaviy ta’lim texnologiyalari talabalarga o‘zlariga qulay vaqt va joyda tilni o‘rganish imkonini beradi.[5]

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion yondashuvlardan foydalanish natijasida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi va tez va aniq javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchilarni bilim

olishga ishtiyoq uyg‘otadi. Darsning boshida vizual materiallar, o‘rtasida harakatli yoki rolli mashg‘ulotlar, dars oxirida esa o‘quvchilar tomonidan o‘z fikrlarini ifoda etish uchun kartoteka yoki anonimik o‘yinlar o‘tkazish o‘rganishni yanada qiziqarli qiladi, shuningdek, psixologik jihatdan ruhlantiradi va ta’lim sifatini oshiradi. O‘quvchilar darslarga puxta tayyorgarlik ko‘rishga intilishadi va bu ularni ta’lim jarayonining faol ishtirokchilariga aylantiradi. Ta’lim tizimi erkin fikrlovchi, barkamol va yetuk shaxslarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘yganida, kelajakda bo‘lajak o‘qituvchilar innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanish usullarini yanada mukammal ishlab chiqishga hissa qo‘shishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova, S. (2021). Innovatsion pedagogika va ta’lim tizimida yangi usullar. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi nashri.
2. G‘ulomov, O. (2020). Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining samaradorligi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy universiteti, Toshkent.
3. Abduakimova, Sabina Abdukaxar Qizi (2022). CHET TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV.. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (Special Issue 20), 431-435. doi: 10.24412/2181-1784-2022-20-431-435
4. N.Q. Xatamova, M.N. Mirzayeva. “Ingliz tili darslarida qo‘llaniladigan interfaol usullar” (uslubiy qo‘llanma), Navoiy, 2006, 40 bet.
5. Ambrose, S., Bridges, M., Lovett, M., DiPietro, M., & Norman, M. (2010). How learning works: 7 research-based principles for smart teaching. San Francisco, CA: Jossey Bass.

ВОЗМОЖНОСТИ ОНЛАЙН СЕРВИСОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ И ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Омонтурдиева Зебохон

Университета Образования Ренессанс

Аннотация. В статье изложен материал содержащий описывающий онлайн-сервисы на основе искусственного интеллекта (ИИ) ставшие популярными в преподавании и изучении английского языка, открывающие новые возможности для индивидуализации учебного процесса, повышения его эффективности и доступности. Это сервисы на базе ИИ, такие как виртуальные репетиторы, системы автоматической проверки грамматики, голосовые помощники и платформы адаптивного обучения, позволяют создавать интерактивную среду для учеников, предоставляя мгновенную обратную связь и рекомендации, основанные на их успехах и ошибках. В данной статье рассматриваются основные возможности и перспективы использования ИИ в изучении и преподавании английского языка.

Ключевые слова: индивидуализация обучения, интерактивные платформы, искусственный интеллект, онлайн-сервисы, виртуальные репетиторы, адаптивное обучение, голосовые помощники.

OPPORTUNITIES OF ONLINE SERVICES BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN TEACHING AND LEARNING ENGLISH

Omonturdieva Zebokhon

Renaissance University of Education

Abstract. The article presents material describing online services based on artificial intelligence (AI) that have become popular in teaching and learning English, opening up new opportunities for individualization of the learning process, increasing its efficiency and accessibility. These AI-based services, such as virtual tutors, automatic grammar checking systems, voice assistants and adaptive learning platforms, allow to create an interactive environment for students, providing instant feedback and recommendations based on their successes and mistakes. This article discusses the main possibilities and prospects for using AI in learning and teaching English.

Keywords: individualization of learning, interactive platforms, artificial intelligence, online services, virtual tutors, adaptive learning, voice assistants.

В современном обществе изучение иностранных языков становится важной составляющей профессиональной подготовки специалистов самого разного профиля и от качества их языковой подготовки во многом зависит успешное решение вопросов профессионального роста и расширение контактов с зарубежными партнерами. Следовательно, средняя школа и вуз призваны обеспечить определенный уровень владения иностранным языком, который мог бы позволить продолжить его изучение в период послевузовского образования, а также самостоятельно. Успех обучения во многом зависит от методики работы преподавателя иностранного языка, от его умения пользоваться

различными современными методами в контексте решения конкретных образовательных задач.

В настоящее время развивается информатизация образования, при которой в образовательный процесс внедряются средства новых информационных технологий при повышении уровня компьютерной подготовки участников образовательного процесса, а также идет «построение и развитие единого образовательного информационного пространства» [1, с. 53]. Информационные технологии становятся важным инструментом в преподавании и изучении иностранных языков, открывая новые горизонты для образовательного процесса. Рассмотрим основные способы, которыми технологии влияют на обучение и преподавание языков. Современные технологии кардинально изменили подходы к изучению иностранных языков. Они делают обучение более разнообразным и интересным, позволяя каждому желающему овладеть языком в удобном и приятном формате. Использование новых информационных технологий предполагает внедрение не только новых технических средств, но и новых форм и методов преподавания и в целом нового подхода к процессу обучения [2, с. 106].

Интернет предоставляет доступ к огромному количеству материалов: онлайн-курсы, видеоуроки, подкасты и электронные книги. Это позволяет учащимся находить подходящие ресурсы, соответствующие их уровню и интересам, в любое время и из любой точки мира. Одним из наиболее эффективных и современных методов формирования и развития речевой компетенции является использование интерактивных онлайн сервисов для выполнения упражнений и заданий. Важным является выбор и дальнейшее использование интерактивного онлайн-сервиса, в зависимости от целей и задач обучения[3, с.170]. Рассмотрим некоторые из них подробнее.

Интерактивное обучение. Технологии обеспечивают возможность интерактивного обучения через приложения и платформы, такие как Duolingo (<https://www.duolingo.com>) и Rosetta Stone (<https://www.rosettastone.com>). Интерактивные упражнения, игры и тесты помогают учащимся усваивать материал в игровом формате, что делает процесс более увлекательным.

Практика разговорных навыков. Широкое применение разнообразных технических средств обучения вытекает из самой специфики учебного предмета «иностраный язык», предполагающей «создание для обучающихся искусственной языковой среды из-за отсутствия естественной» [4, с. 47]. Онлайн-репетиторы и языковые обмены, например, через платформы Italki (<https://www.italki.com>) и Tandem(<https://tandem.net>) позволяют студентам практиковать разговорные навыки с носителями языка. Это способствует развитию уверенности в общении и улучшению произношения. Онлайн-репетиторы такие как Preply (<https://preply.com>), позволяют находить личных репетиторов для занятий по видеосвязи. Это отличный способ индивидуально практиковаться в разговорной речи. Платформы такие как HelloTalk (<https://www.hellotalk.com>), дают возможность общаться с носителями языка. Вы можете обмениваться сообщениями, аудио и видео с другими учащимися, что помогает улучшить навыки общения.

Виртуальные классы и вебинары. Современные технологии позволяют проводить занятия в формате видеоконференций. Виртуальные классы предоставляют возможность учиться с преподавателями из любой точки мира и общаться с другими учащимися.

Мультимедийные ресурсы. Использование видео, аудио и анимаций в обучении помогает лучше воспринимать материал. Мультимедийные элементы делают уроки более интересными и запоминающимися, способствуя более глубокому пониманию языка.

Социальные сети и онлайн-сообщества. Платформы, такие как Facebook, Instagram и Reddit, создают сообщества, где изучающие языки могут обмениваться опытом, делиться советами и находить мотивацию. Это также позволяет погружаться в языковую среду, что способствует улучшению навыков. Подписка на аккаунты, посвященные изучению английского языка, в Instagram или TikTok может стать дополнительным источником мотивации и практики. Вы сможете получать полезные советы и фразы на английском языке в удобной и доступной форме.

Видеоуроки и курсы. Сайты, такие как YouTube и Coursera (<https://www.coursera.org>) предлагают бесплатные и платные видеокурсы от профессиональных преподавателей. Вы можете найти уроки по различным аспектам языка, включая разговорную практику, деловой английский и подготовку к экзаменам.

Чтение и прослушивание контента. Использование приложений, таких как Audible (<https://www.audible.com>) для чтения книг и прослушивания подкастов на английском языке способствует улучшению понимания и расширению словарного запаса. Это также помогает привыкнуть к естественному звучанию языка.

Платформы для видеозвонков. Приложения такие как Zoom и Microsoft Teams, позволяют проводить занятия в формате виртуальных классов. Это предоставляет возможность преподавателям организовывать интерактивные уроки, обсуждения и групповые занятия, сохраняя личный контакт с учащимися.

Электронные учебники и ресурсы. Электронные учебники и онлайн-ресурсы позволяют учащимся получать доступ к актуальным материалам. Это упрощает обновление содержания и предоставляет возможность интеграции интерактивных элементов, таких как тесты и задания.

Оценка и обратная связь. Современные технологии позволяют использовать автоматизированные системы оценки, которые помогают преподавателям быстро и эффективно отслеживать прогресс учащихся. Платформы могут предоставлять подробные отчеты о достижениях студентов и области, требующие дополнительного внимания.

Искусственный интеллект (ИИ) оказывает огромное влияние на многие сферы жизни, и обучение английскому языку не стало исключением. Онлайн-сервисы, основанные на ИИ, значительно повышают эффективность и доступность языкового обучения. Рассмотрим ключевые аспекты использования таких сервисов. Онлайн-сервисы на основе ИИ создают большие возможности в современном изучении английского языка. Они предлагают более персонализированный, интерактивный и эффективный процесс обучения. Такие сервисы позволяют учащимся совершенствовать произношение, улучшать навыки письма, переводить сложные тексты и получать индивидуальные рекомендации. В результате, обучение английскому языку становится более доступным и продуктивным для всех.

Персонализированный подход. С помощью технологий можно адаптировать процесс обучения под индивидуальные потребности изучающих иностранный язык. Платформы, такие как Busuu (<https://www.busuu.com>) и Lingoda (<https://www.lingoda.com>) предлагают курсы, которые учитывают уровень знаний и скорость обучения каждого обучающегося. Здесь вы можете изучать язык в соответствии с вашим уровнем и получать обратную связь от преподавателей. Онлайн-платформы с ИИ, такие как Mondly (<https://www.mondly.com>)

анализируют прогресс учащихся и адаптируют содержание уроков под их потребности. Эти сервисы способны учитывать слабые места пользователя, корректируя программу обучения, чтобы помочь быстрее преодолеть трудности и добиться успеха.

Коррекция произношения и разговорная практика. ИИ-системы, такие как ELSA Speak (<https://elsaspeak.com>) и Google Assistant (<https://assistant.google.com>), активно используются для тренировки произношения. Они анализируют речь пользователя, сравнивая её с эталонными образцами, и предоставляют обратную связь по исправлению ошибок в произношении. Такой формат тренировки помогает учащимся развивать уверенность в разговорной речи и улучшать акцент.

